



T.TOG'AYEV

---

**O'ZBEK TILINING IMLO  
MUAMMOLARI**

---



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**T.TOG'AYEV**

# **O'ZBEK TILINING IMLO MUAMMOLARI**

**(o'quv-uslubiy ko'rsatma)**

**TOSHKENT-2019**

35292  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
ToshBO'TAU  
AXBOROT-RESURS MARKAZI**

**O‘zbek tilining imlo muammolari [Matn]: o‘quv-uslubiy ko‘rsatma / T. M. Tog‘ayev - Toshkent: “Navoiy universiteti” NMU, 2019. - 168 b.**

**Mas‘ul muharrir:** D. Lutfullayeva, filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:** H. Jamolxonov, filologiya fanlari doktori, professor  
R. Jamonov, filologiya fanlari nomzodi, professor

**«O‘zbek tilining imlo muammolari o‘quv-uslubiy ko‘rsatma”si** 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili), 51112000 - O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan.

Ushbu ishlanma XX asr o‘zbek yozuvi – o‘zbek alifbosi va imlosining shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida nazariy ma‘lumot berish, joriy alifbo va imloni takomillashtirish muammolariga munosabat bildirish, amaliy va seminar mashg‘ulotlari orqali o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini, shuningdek, o‘zbek punktuatsiyasini o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Uni tayyorlashda o‘zbek yozuvi islohotlari va o‘zgarishlariga doir materiallar, tadqiqot ishlari, hozirgi o‘zbek adabiy tili darsliklaridan, yangi o‘zbek alifbosi va imlosini o‘rgatishga qaratilgan qo‘llanma kitoblardan foydalanildi.

O‘quv-uslubiy ko‘rsatma ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakultetining 2019-yil 27-iyundagi 11-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilgani ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo‘llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yangi pog‘onaga ko‘tardi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 4-oktabr kuni “Davlat tili haqida”gi (1989-yil 21-oktabr) qonunning 30 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Shunga ko‘ra butun yurtimizda ommaviy ma‘naviy-ma‘rifiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbarining o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish haqidagi farmoni (2019-yil 21-oktabr) o‘zbek tilini taraqqiy ettirish borasidagi ishlarning yuksak cho‘qqisi bo‘ldi. Endilikda bu sohada qo‘yilgan vazifalar va ularning ijrosi o‘zining o‘ta qizg‘in pallasiga kirmoqda.

Respublikamizda so‘nggi vaqtlarda davlat tili, yozuv, binobarin, alifbo va imlo bilan bog‘liq amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar til ta’limi sohasi kishilari oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda. Mana shunday yumushlardan biri o‘quvchi yoshlar savodxonlik darajasini oshirish, o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini ishlab chiqish, imlo masalalariga oid o‘quv dasturlarini yangilash, ma‘ruza matnlari, o‘quv qo‘llanmalarini yaratishdir. **“O‘zbek tilining imlo muammolari”** fani bo‘yicha tuzilgan mazkur o‘quv-uslubiy ko‘rsatma ham shu yo‘nalishdagi ishlar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, **“O‘zbek tilining imlo muammolari”** kursi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti (bakalavriyat bosqichi) talabalarining o‘rganishi zarur bo‘lgan muhim fanlardan



hisoblanadi. Bu fan hozirgi o'zbek adabiy tilining harf, yozuv va imlo qoidalari tizimiga oid bilimlarni mustahkamlaydi.

“O'zbek tilining imlo muammolari” fanining o'rganilishi talabalarning yozuv bilan bog'liq madaniy saviyasini oshirishga yordam beradi. Bu fan talabalarga yozuv amaliyotida mavjud muammolarni tugatishga ko'maklashadi, ularni o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini puxta o'zlashtirish va unga to'la amal qilishga da'vat etadi.

«O'zbek tilining imlo muammolari” fanidan taqdim etilayotgan ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatma yangi alifboga asoslangan **“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”** (O'zR VMning 1995-yil 24-avgustda qabul qilgan qarori bilan tasdiqlangan) hamda O'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbek tilshunosligi kafedrasi tomonidan tuzilib tasdiqlangan “O'zbek tilining imlo muammolari” dasturiga muvofiqlashtirildi.

O'quv-uslubiy ko'rsatmada asosan XX asr davomida o'zbek yozuvi – o'zbek alifbosi va imlosining shakllanish va rivojlanish tarixi haqida nazariy ma'lumot berish, jadid ziyolilari, keyingi davr tilshunoslarining sohaga doir ishlarini tahlil etish, joriy alifbo va imloni takomillashtirish muammolariga munosabat bildirish, amaliy va seminar mashg'ulotlari yordamida o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini, shuningdek, o'zbek punktuatsiyasini o'rgatish ko'zda tutildi.

O'quv-uslubiy ko'rsatma uchun o'zbek tilshunos olimlari Y.Abdullayev, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, K.Nazarov, H.Jamolxonovlarning masalaga oid o'quv dasturlari va qo'llanmalari, imlo lug'atlari asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda “O'zbek tilining imlo muammolari” fanidan o'quv darsligi mavjud emas. Mazkur o'quv-uslubiy ko'rsatma mana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi degan umiddamiz. Zero, asosiy maqsadimiz talabalarning yozma savodxonligini oshirish, ularning imlo bilan bog'liq xatolariga barham berish, to'g'ri, aniq, xatosiz yozishga o'rgatishdir.

**1-MAVZU: YOZUV TARIXI. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI  
SHAKLLANISH BOSQICHIDA ALIFBO VA IMLO  
MUAMMOLARI (XX АСРНИНГ 20–30-YILLARI)**

**2 soat**

<i>Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: kishi</i>
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	<i>Ma‘ruza (ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)</i>
<i>Ma‘ruza mashg‘uloti</i>	Yozuv tarixi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili shakllanish bosqichida alifbo va imlo muammolari (XX asrning 20–30-yillari)
<i>Mashg‘ulot rejasi</i>	1. “O‘zbek tilining imlo muammolari” kursining maqsad va vazifalari. 2. O‘zbek yozuvlari tarixi. 3. Ilk o‘zbek alifbolari (XIX asr oxiri-XX asr boshlari). 4. XX asr boshlarida alifbo-imlo masalalarining kun tartibiga qo‘yilishi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	Yuqoridagi reja asosida mavzuni mustahkamlash, talabalarning bilimini oshirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • mavzularning mazmun-mundarijasini eslatish ; • tayanch tushunchalar ustida ishlash • ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar	<i>O‘quv faoliyati natijalari :</i> • talaba mavzuning mazmun-mundarijasini eslaydi, bu mavzuga oid bilimini mustahkamlaydi; • talabalarning bilim darajasi, tahlil ko‘nikmalari aniqlanadi, baholanadi.

bilimini, ularning fanga boʻlgan qiziqishini yanada oshirish.	
<i>Ta'lim berish usullari</i>	koʻrgazmali, maʼlumotli, trening, jamoada ishlash.
<i>Ta'lim berish shakllari va metodlari</i>	ogʻzaki, koʻrgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit soʻzlar.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	oʻquv qoʻllanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proektor, doska, audivizual vositalar
<i>Ta'lim berish shartlari</i>	hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega boʻlgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	ogʻzaki nazorat: savol-javob, suhbat, mashq

### MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivasiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1920-1930-yillarda alifbo va imloni islog qilish va oʻzgartirish yuzasidan olib borilgan ishlarni tahlil qiladi;</li> <li>• bu davrda aniqlangan muammoli holatlar boʻyicha suhbat qiladi;</li> <li>• matbuotdan tanlangan matnlarni</li> </ul>	2.1. Yangi mavzuni tinglaydi, mavzuga oid maʼlumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi.

	grafika va imlo nuqtayi nazaridan tahlil qiladi, shu asosda grafika va imlodagi qiyin holatlarga munosabat bildiradi.	va ularni tizimlashtiradi. 2.2. Mavzu yuzasidan savollar beradi. 2.3. Javoblarni to'ldiradi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1.O'z-o'zini baholaydi.

### Reja:

1. "O'zbek tilining imlo muammolari" kursining maqsad va vazifalari.
2. O'zbek yozuvlari tarixi.
3. Ilk o'zbek alifbolari (XIX asr oxiri-XX asr boshlari).
4. XX asr boshlarida alifbo-imlo masalalarining kun tartibiga qo'yilishi.

### Ma'ruza matni

#### 1. "O'zbek tilining imlo muammolari" kursining maqsad va vazifalari.

"O'zbek tilining imlo muammolari" fani imlo qoidalari, imlo bilan bog'liq muammolar, yozuv va alifbo kabi masalalar bilan ish ko'radi.

**Fanning asosiy maqsadi** talabalarga o'zbek yozuvi tarixi hamda o'zbek alifbosining shakllanishi haqida nazariy ma'lumot berish, ularning yozma savodxonligini oshirish, yozuvlarida imlo bilan bog'liq xatolariga barham berish, to'g'ri, aniq, xatosiz yozishga o'rgatish; amaldagi imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishga ko'maklashishdan iborat. Mana shu maqsadlarga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarida **quyidagi vazifalarni** amalga oshirish ko'zda tutiladi:

Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida uni «turkcha yozuv» deb tilga oladi. Alisher Navoiy maktublarining birida uni «turkcha xat» deb atagan. Manbalarda mazkur yozuv «uyg'ur xati», «mo'g'ul xati» deb ham yuritilgan.

Bizgacha yetib kelgan uyg'ur yozuvli yodgorliklarning eng qadimgilari islom davridan ancha burun yaratilgan. Ushbu obidalar o'sha davr turklari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarini qamraydi. Adabiy, diniy-falsafiy, tarixiy, ilmiy asarlar, huquqiy, rasmiy-diplomatik bitiglar (yorliq, tilxat, guvohnoma va sh.k.), xo'jalik ishlariga oid matnlar, qabrtoshlar, tashrifnoma va boshqalar shular jumlasidandir.

Uyg'ur xati uzoq yuz yilliklar davomida qo'llangan. Hatto turkiy xalqlar arab yozuvini qo'llay boshlaganlaridan keyin ham o'z mavqeyini yo'qotmagan. Ma'lumki, X asrda Qoraxoniylar davlatida islom rasman qabul qilindi. Ammo qo'shni Idiqut hokimiyati buddizmni yoqlab, sharqiy turklar orasida islomning yoyilishiga yo'l bermadi. Sharqiy turklar shu paytdan ikki dunyo - «musulmonlar» va «musulmon bo'lmaganlar»ga bo'linib qoldi. Musulmon turklar ko'p o'tmay arab alifbosi asosida yangi yozuv yaratdilar. Oqibatda ular ikki an'ana sifatida davom etib kelayotgan qadimgi turk (uyg'ur) va keyinchalik islom ta'sirida qabul qilingan arab xatini qo'llay boshladilar. Uyg'ur yozuvi O'rta Osiyoda XV asrning oxirlariga qadar arab xati bilan yonma-yon qo'llanishda bo'ldi. Biroq islom ta'siridan uzoqdagi turk-buddistlar yozuv an'anasini uzmay, XVIII asrda ham undan foydalandilar. Uyg'ur xati o'z tarixi davomida hatto arab alifbosi bilan yonma-yon qo'llangan chog'larda ham turkiy davlat va saltanatlarining asosiy rasmiy yozuvi bo'lib keldi.

Uyg'ur alifbosida harflar o'n sakkizta. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit turk» da uyg'ur alifbosini keltiradi va har bir shakl ostida arab harflari bilan ularning ma'nosini ham beradi (DLT, 1, 47).

Alifboda harflar soni oz bo'lishiga qaramay, uyg'ur yozuvining imlo prinsiplari puxta ishlangan edi.

**Moniy yozuvi.** Ushbu alifbo moniychi turklar orasida amal qilgan. Milodiy 247-yili Eronda Moniy boshchiligida yangi diniy oqimga asos solindi va o'sha vaqtlardan boshlab Shom (Suriya)ning Palmira shahrida qo'llanilgan yozuv shakli asosida tuzilgan moniy yozuvi ham amal qila boshladi. Keyinchalik ushbu yozuv moniy dini bilan birga O'rta va Markaziy Osiyoga ham kirib keldi. Eramizning VIII asrida moniylik uyg'ur xoqonligining davlat dini sifatida amal qilgan chog'larda bu yozuv ham turkiylar orasida keng yoyildi. Moniy mazmunli turkiy yodgorliklar bizgacha ikki: moniy va uyg'ur yozuvlarida yetib kelgan.

**Sug'd yozuvi.** U miloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan bo'lib, milodning XI asriga qadar sug'dlarning milliy yozuvi sifatida amal qilgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qo'shnichilik va birga yashash ta'sirida ushbu yozuv turkiy xalqlar uchun ham xizmat qila boshlagan. Turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan uyg'ur yozuvi ham ana shu xat negizida shakllandi.

**Brahma yozuvi.** U bo'g'in yozuvi bo'lib, qadimgi sanskritcha alifbo negizida shakllangan. Turon zaminiga buddizm ta'sirida kirib kelgan.

**Suryoniy yozuvi.** Milodning boshlarida Mesopotamiyaning g'arbi-shimolida xristianlik gurkiragan edi. Bu o'lkada oromiy alifbosi asosida shakllangan suryoniy xati amal qilgan. V yuzyillikning o'rtalarida Suriya dindorlari ikki mazhabga bo'linib ketgan. Ularning nasturiy mazhabidagilari o'z yurtida ta'qib ostida qolgach, Erondan panoh topdilar. Nasroniylar bu yerda o'zlarining ta'limot maktablarini ochishgan. Mana shu maktab namoyandalari ta'limotlarini mahalliy xalq orasiga ham yoydilar. Ularning missionerlik ishlari oqibatida nasroniylik VII-VIII asrlarda Hirot, Samarqand, Qoshg'ar, hatto Hindiston va G'arbiy Xitoygacha yetib bordi. Bu o'lkalarda nasroniylik bilan bir paytda suryoniy alifbosi ham tarqalgan. Suryoniy xati turk nasroniylar

orasida ham qo'llanilgan. Bizgacha yetib kelgan nasroniy mazmunli turkiy yodgorliklar ikki - uyg'ur va suryoniy yozuvlaridadir<sup>1</sup>.

**Arab yozuvi.** Turkiy xalqlarning orasida islomning tarqalishi bilan amal qilgan. Turk dunyosi o'n asrdan oshiqroq davr mobaynida **arab yozuvini** qo'lladi.<sup>2</sup>

**Lotin yozuvi.** 1929-1940-yillarda foydalanildi. 1993-yildan boshlab respublikamizda lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yildan yangi tahrirdagi alifbo va imlo tatbiq etildi.

**Kirill-rus alifbosi.** 1940-yildan joriy etilgan bu yozuv hozirga vaqtga qadar davom etmoqda.

### 3. Ilk o'zbek alifbolari (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)

XX asr boshlarida jadidlar tomonidan yangi tipdagi maktablarning ochilishi va unda o'qitishning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi tufayli bolalarning xat-savodini tezroq chiqarishni ta'minlaydigan yangi darsliklarga ehtiyoj tug'ildi. Bog'chasaroyda Ismoilbey G'aspirali tomonidan bolalarning tez savod chiqarishini ta'minlash uchun muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan «usuli savtiya» Markaziy Osiyo jadidlari tomonidan ham ma'qullandi. Bu mintaqada an'anaviy «usuli hijo» da olib boriladigan darslar yangi maktablarda «usuli savtiya» bilan almashtirildi. Bu usulning afzalligi amaliyotda tez sezildi va u omma o'rtasida tobora obro'-e'tibor topa boshladi. Ana shu usul asosida savol chiqarish bag'ishlangan bir qancha alifbolar paydo bo'la boshladi. «O'z davri uchun inqilobiy isloh hisoblangan bu ishga Turkistonda hammadan avval Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) kirishgan. Saidrasul Saidazizov 1902-yilda «Ustodi avval»

<sup>1</sup> Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006. -Б.110-114.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang. M.Mirtojiyev. N. Mahmudov. Til va madaniyat. -Toshkent: O'zbekiston.1992. -B.10-16; Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -Toshkent: O'zbekiston, 2002. -B. 122-125; Jamolxonov. H.A.Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. -Toshkent. 2004.



kitobini, Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1907-yilda «Adabi avval» kitoblarini Toshkentda nashr ettirdilar.

1917-yilga qadar o'ndan ortiq o'zbekcha alifbo kitoblari yaratildi. Lekin ularning ichida alifboning ichki tuzilishi va boshqa bir qator jihatlardan yuqoridagi ikki asar afzal sanaladi. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» kitobi 1917-yilgacha 10 marta nashr qilingan va keyingi bir qator mualliflarning (masalan, Abdulla Avloniy) «Alifbo» darsliklarini yaratishlariga asos bo'lib xizmat qilgan.

«Ustodi avval»ni shartli ravishda uch qismdan iborat deyish mumkin. Birinchi qismi alifbo davrini o'z ichiga oladi. Bu qism bolalarga arab grafikasi asosidagi o'zbek alifbosini o'rgatishga bag'ishlanadi. Mavjud 32 ta harfning har qaysisi alohida sarlavha asosida beriladi. Bu harflarning alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida yozilish shakllari ko'rsatiladi. Har qaysi shakl ostiga shu shakl qatnashgan so'z keltiriladi. Undan so'ng har qaysi harfni o'zlashtirish uchun so'z ichida ishlatilishiga qator misollar berildi. 32 ta harf bilan birga, sokin, pesh, tashdid singari harakatlarning qo'yilish o'rinlari, vazifalari o'rgatiladi. Kitobda harflardan tashqari raqamlarning yozuvdagi ifodasiga ham alohida o'rin beriladi. 32 ta harf tanishtirib bo'lingach, «Alifbo harflari» sarlavhasi ostida har bir harfning alifbodagi tartibi ko'rsatiladi. Ikkinchi qismi esa alifbodan keyingi davrga bag'ishlanadi. Bu qismda alifbo bilan tanishib bo'lgan o'quvchida o'qish va yozish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Ana shu maqsadda turli xil matnlar beriladi. Matnlar «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida tanlanadi. Dastlab ma'lum mavzuviy guruhga mansub bo'lgan so'zlar beriladi. So'ngra murakkabroq matntarga o'tiladi. «Ustodi avval»ning uchinchi qismi «Alifboi Qur'oniy»ga bag'ishlangan. Unda muallif o'quvchilarni Qur'on matnlarini qanday o'qishga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Arab tilidagi ayrim harflarni qanday talaffuz qilish kerakligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, «Ustodi avval» yangi usuldagi maktablarda bolalarning tez savod chiqarishlari uchun eng qulay darslik bo'lib keldi.

Yana bir o‘zbek ziyolisi Shokirjon Rahimiy ham ko‘plab savod chiqarish, imlo, ona tilini o‘qitishga oid ko‘plab o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratdi. O‘sha davr bolalarining tayyorgarligi va tasavvurlarini hisobga olgan holda u qishloq va shahar bolalariga alohida-alohida «Sovg‘a» (1919), «Alifbo darsligi» (1922) kabi alifbo darsliklarini nashr ettirdi. Shuningdek, kattalarning savodxonligini oshirishga qaratilgan «Kattalarga o‘qish» (1920), Savodsiz katta kishilar uchun 1924-yilda «Kattalar yo‘ldoshi» nomli alifbosini tuzadi. O‘zbek yozuvi lotin alifbosiga ko‘chirilgach, «Kattalar alifbosi» (1927), «Savod» (1930), «O‘zbek tili. Ish kitobi» (1932) «O‘zbek tili darsligi. Grammatika ham imlo» (1934) kabi maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ham yaratadi. Bu kitoblar o‘z davrida keng xalq ommasiga beminnat xizmat qildi.

#### **4. XX asr boshlarida alifbo-imlo masalalarining kun tartibiga qo‘yilishi**

O‘zbek yozuvining XX asr tarixi boy tarixiy jarayonlarga ega ekani bilan xarakterlanadi. Bu davrda o‘zbek yozuvi bir necha marta isloh qilingan va bir yozuv tizimidan boshqa yozuvga ko‘chirildi. Tilshunos olim H.A.Jamolxonovning qayd etishicha, o‘zbek yozuvining XX asr tarixi 4 davrni o‘z ichiga oladi:

**1-davr – arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929);**

**2-davr – lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940);**

**3-davr – rus grafikasiga asoslangan yillar (1940-1995).**

**4-davr - ikki yozuvlilikka (rus va lotin grafikalaridagi yozuvlarga) asoslangan yillar (1995-2005).<sup>3</sup>**

H.Jamolxonovning ma’lumot berishicha, **1-davrning (1900-1918)** 1917-yilgacha bo‘lgan bosqichida yozuvni isloh qilishga doir jiddiy harakatlar kuzatilmaydi. Bu bosqichda asosiy e’tibor savod chiqarish, o‘qitish ishlarini yo‘lga qo‘yish vazifasiga qaratilgan. Bu maqsadda bir qator alifbo kitoblari yaratildi. Jumladan, 1902-yilda Saidrasul

<sup>3</sup> Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007. 7-bet.

Saidazizovning "**Ustodi avval**", 1911- yilda A.Avloniyning "**Birinchi muallim**", 1912-yilda "**Ikkinchi muallim**" kitoblari, 1913-yilda M. Faxriddinovning "**Turkcha qoida**", 1916-yilda Abdullaxo'ja Saidmuhammadxo'jayevning "**Rahbari soni**" kitobi, shu yili Ashurali Zohiriyning "**Imlo**" kitoblari yaratildi.

Bu davrda yaratilgan o'quv kitoblarida yozuvni soddalashtirish, alifbo va imloni o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirish zarurati borligi seziladi.

Ma'lumki, XX asr boshlarida jadidchilik harakatining kuchayishi, ta'lim-tarbiyaning tezkor va ta'sirchan usullariga qiziqishning ortishi xalqimiz o'rtasida ming yillardan buyon qo'llanib kelayotgan, lekin ta'lim tizimida tez savod chiqarishga monelik qilib kelgan arab grafikasi asosidagi yozuvni o'zbek tili fonetik tizimiga moslashtirish, so'zlarni qanday qilib to'g'ri va bir xil yozishga erishish masalasini hal qilishni ko'ndalang qilib qo'ydi. Davrning ilg'or ziyolilari xalqning savodxonlik darajasini oshirish uchun, eng avvalo, yozuv masalasini hal etish lozimligini anglab yetdilar. Shuning uchun ham 20-yillardan boshlab alifbo va imlo masalasini hal etish umummillat manfaatiga aylandi.

Yozuv tariximizning **1919-yildan** keyingi davrlari alifbo va imloni milliyalashtirish, soddalashtirish, keyinroq ularni butunlay boshqa grafik tizimga ko'chirish harakatlarining yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, **1919-yilda** Toshkentda Fitrat rahbarligida til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi "**Chig'atoy gurungi**" jamiyati tashkil topdi. Shu yilning o'zida Turkiston Muxtor Jumhuriyati Maorif xalq komissarligida "Turk shu'basi" tashkil etiladi. Bu shu'ba o'zbek maktablariga ta'lim dasturlari va darsliklarini yaratish bo'yicha ish olib boradi.

**1919-1920- yillarda** "Chig'atoy gurungi" jamiyati alifbo va imloni isloh qilish bilan bog'liq qator ishlarni amalga oshiradi: ona tili o'qituvchilarini tayyorlash ikki oylik kurslarini tashkil qildi, "**Bitim yo'llari**" kitobchasi yaratildi, unda arab yozuvi o'zbek tili tovushlari

**1925-yilning 29-31-noyabrida** Samarqandda til mutaxassislari va o'zbekshunoslar kengashi o'tkaziladi. Unda arab harflarining asrlardan beri ishlatib kelinayotganligi hisobga olinib, uni qabul qilish ma'qullanadi.

**1926-yilning 26-fevral – 6-mart** kunlari Bokuda **Butunittifoq turkologiya qurultoyi** bo'lib o'tadi. Unga Rahim In'omov, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Elbek, B.Rahmoniy, Abdujabborovlar O'zbekistondan vakil bo'lib qatnashdilar. Fitrat bu anjumanga yirik sharqshunos olim sifatida «alohida chaqiruv bilan» taklif etildi<sup>6</sup>. Turkiyot qurultoyida arab va rus grafikolari asosida ish ko'rayotgan turkiy xalqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifboga ko'chirish masalasi ko'riladi. Qurultoyda bu taklif ma'qullanadi. Ana shu qurultoydan so'ng O'zbekistonda lotin grafikasiga o'tish harakati tezlashadi. O'sha vaqtda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tishning sababi sifatida arab alifbosining o'zbek nutq tovushlari shaklini bera olmasligi, texnik jihatdan yozuvda noqulaylik tug'dirishi, unda nuqtalar, alomatlarining mavjudligi, harflarning to'rt shaklda yozilishi, stenografiya, telegraf ishlarida to'sqinlik qilishi ko'rsatiladi.

**1926-yilning 19-21-may kunlari** Samarqandda o'zbek ziyolilarining alifbo muammolariga bag'ishlangan ilmiy kengashi bo'lib o'tadi. Kengash qarori asosida yangi alifbo loyihasi tuziladi.

**1926-yilning 10-iyunida** O'zbekiston Ijtimoiy Sho'rolar Jumhuriyati Kengashining 1-chaqiriq 4-sessiyasi bo'lib o'tadi. Unda yangi alifboga o'tishni rejali ravishda amalga oshirish maqsadida Ijroiya Qo'mita huzurida O'zbekiston yangi alifbo Markaziy qo'mitasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Shu qarorga ko'ra qo'mitaning 44 kishidan iborat tarkibi va uning raisi (Y.Oxunboboyev) belgilanadi.

**1926-yilning 16-oktabrida** O'zbekiston Ijroiya Sho'rolar Jumhuriyati Markaziy Qo'mitasi 88-sonli qarori bilan yangi alifbo

<sup>1</sup> Ашурали Зоҳирий. Туркология қурултойи атрофида. «Фарғона», 1926 й., 374-сон.

Markaziy va mahalliy qo'mitalari nizomini tasdiqlaydi. Bu Nizomda Markaziy va mahalliy qo'mitalar strukturasi huquq va vazifalari belgilanadi.

**1927-yilning iyun oyida** Bokuda yangi turk alifbosi Markaziy Qo'mitasi birinchi plenumini o'tkazadi. Unda lotin grafikasi asosida tuzilgan birlashgan turk alifbosi qabul qilinib, barcha turkiy respublikalarga tarqatiladi.

**1928-yilning yanvarida** Toshkentda Butunittifoq yangi alifbo Markaziy Qo'mitasining ikkinchi plenumi bo'lib o'tadi. Plenumda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga o'tish yo'lida uchrayotgan to'siqlarni engib, alifbo islohotini tezlashtirish kerakligi ta'kidlanadi. Butunittifoq yangi alifbo Markaziy qo'mitasining ikkinchi plenumidan so'ng yangi o'zbek (lotin) alifbosi Markaziy Qo'mitasi ham o'zining ikkinchi plenumini o'tkazadi, bu plenumda yangi o'zbek alifbosini amalga kiritishning besh yillik rejasi tasdiqlanadi.

**1928-yilning 7-martida** O'zbekiston Respublikasi 2-chaqiriq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Oliy Kengashining 3-sessiyasi yangi o'zbek alifbosi Markaziy Qo'mitasining hisobotini va 5 yillik rejasi haqidagi axborotini tinglaydi hamda bu ishni amalga oshirishning yangi tadbirlarini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

Sessiya majlisining bayonnomasi 6-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi yangi o'zbek alifbosini **Davlat alifbosi** deb tan oladi va uni matbuotda e'lon qilishni Markaziy Ijroiya Qo'mita Prezidiumiga topshiradi.

**1928-yilning 11-avgustida** O'zbekiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Qo'mitasi shu yilning 7-martida bo'lib o'tgan sessiya topshirig'ini amalga oshirish maqsadida 123-sonli maxsus qaror qabul qiladi. Qarorga binoan yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek alifbosi **Davlat alifbosi** deb e'lon qilinadi hamda bu alifboga bosqichma-bosqich o'tish tartibining yangi alifbo Markaziy qo'mitasi rejasiga muvofiq amalga oshiri-lishi lozimligi ko'rsatiladi (*1-ilovaga qarang*). Bu qarorda yangi alifboga to'la o'tishni 1932-yilning oxirigacha yakunlash nazarda tutiladi.

**1928-yilning 1-dekabrida** O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi 123-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritadi, bu qarorda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga o‘tish muddatini ikki yilga qisqartirish, uni 1930-yilning 1-yanvarigacha tugallash belgilab beriladi.

Xullas, qayd etilgan sanalardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek yozuvining **1-davri** til-imlo masalalari tafsilotlariga boy, o‘zbek ziyolilarining imloni takomillashtirish uchun kurashgan davri ekani bilan ko‘zga tashlanadi.

Tilshunos olim H.Jamolxonov o‘zbek yozuvining **2-davrini 1929-1940-yillar** bilan belgilaydi.<sup>7</sup> Bu davr lotincha-o‘zbekcha yozuvga to‘la o‘tish bilan boshlanadi va qariyb o‘n yil davom etdi.

**1929-yilning 15-23-mayida** Samarqandda **respublika til-imlo konferensiyasi** bo‘lib o‘tadi. Unda 3 ta masala - **adabiy til, istiloh va imlo masalalari** ko‘riladi. Bu konferensiyada adabiy til me‘yorlarini belgilashda singarmonizmli qishloq shevalarining xususiyatlarini hisobga olish lozimligi haqida takliflar bo‘ladi, shu asosda alifboda ham unilarni ifodalovchi 9 harfning bo‘lishi ma‘qullanadi; alifboga bosh harflar qo‘shiladi va harflar tartibi belgilanadi.

**1929-yilning 10-avgustida** O‘zbekiston Xalq maorifi komissarligi kollegiyasining yig‘ilishi bo‘lib, unda may oyida bo‘lib o‘tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi. Bu qoidalar 29 moddadan iborat bo‘lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko‘proq o‘rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e‘tiroz tug‘diradi, bu e‘tiroz 1933-yilda o‘zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.

**1934-yilning yanvarida** Toshkentda o‘zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika qurultoyi o‘tkaziladi, unda alifbodan 3 ta unli harf (**o, y, b**) chiqariladi (**2-lovaga** qarang), biroq bu bilan alifbo va imlodagi qiyinchiliklarga to‘la barham berilmaydi.

<sup>7</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. 207-bet.



Keyingi ikki yilda esa o'zbek yozuvini kirill-rus grafikasi asosiga ko'chirish maqsadidagi harakatlar ham boshlandi. Xususan:

**1938-yilning boshlarida** O'zbekiston Fanlar Komitetining A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot institutida AK.Borovkov, Olim Usmonov, Faxri Kamol, B.Avizovlardan iborat maxsus mualliflar guruhi tuzilib, unga lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi va orfografiyasini matbuotda bildirilgan fikrlar asosida qayta ko'rish va takomillashtirish vazifasi yuklatiladi.

**1938-yilning 9-dekabrida** lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi va imlosining yuqoridagi ishchi guruh tomonidan tayyorlangan yangi loyihasi muhokama uchun matbuotda e'lon qilinadi. Loyihada alifbo sirasiga quyidagi o'zgarishlar kiritilganligini ko'ramiz: a) "ə" harfi alifbodan chiqariladi, uning vazifasi "a" harfiga yuklanadi; b) kuchsiz lablangan « ɔ » unlisi uchun alifboga usti chiziqli "ā" harfi kiritiladi; v) alifbodagi harflar tartibi qisman o'zgartiriladi. Alifbo 30 harf tartibida beriladi:

a, b, v, g, d, e, z, z, i, j, k, l, m, n, ā, o, p, r, s, t, u, f, x, c, ş, ç, q, ɔ, h, ŋ, ' (apostrof).

**1938-yilning 12-dekabrida** yuqoridagi loyiha A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot va tarix instituti ilmiy kengashida muhokama qilinadi, ammo muhokama paytida yozuvni rus grafikasiga ko'chirish kerakligi haqida ham takliflar bo'ladi, bunga mamlakatda rus grafikasiga o'tish jarayoni ommaviy tus olganligi asos qilib ko'rsatiladi.

**1936–38-yillar** orasida 30 ga yaqin xalqning yozuvi rus grafikasi tizimiga ko'chirildi. Til-adabiyot va tarix instituti ilmiy kengashi shu omilni hisobga olib, rus grafikasiga o'tish bo'yicha takliflar tayyorlashni Olim Usmonovga topshiradi.

**1939-yil** rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvini shakllantirish yili bo'lgan. Shu yilning boshida bu alifboni tuzish vazifasi A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot va tarix institutining lingvistika sektori rejasiga kiritiladi, uni bajarish F.Kamol, O.Nosirova va Z.Ma'rufovlarga yuklatildi.



**1939-yilning 25–27-mart kunlari** shu institutda alifbo va orfografiya masalalariga bag‘ishlangan respublika ilmiy sessiyasi bo‘lib o‘tadi, bu sessiyada garchi lotin grafikasidagi o‘zbek orfografiyasining 1938-yil dekabr oyida e‘lon qilingan yangi loyihasi va uning muhokamasi yakunlari ko‘rilgan bo‘lsa-da, unda rus grafikasi asosidagi yangi alifboga o‘tish vaqti kelganligi ta‘kidlanadi.

**1939-yilning 13-oktabrida** Toshkentda poytaxt ziyolilarining shahar partiya komiteti tomonidan uyushtirilgan yig‘ilishi bo‘ladi. Unda rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alifbosiga ko‘chish masalasi ko‘riladi.

**1939-yilning 22-oktabrida** O‘zbekiston Xalq Komissarlari Kengashi Raisining o‘rinbosari Qori Niyozov huzurida rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alifbosining loyihasini muhokama qilishga bag‘ishlangan yana bir muhim kengash bo‘lib o‘tadi. Unda Fahri Kamol loyiha haqida ma‘ruza qiladi. Muzokaraga chiqqanlar uni ma‘qullab, muhokamaga qo‘yish va joriy qilish zarurligini aytishdi.

**1939-yilning 23-oktabrida** "O‘qituvchilar gazetasi"da "**O‘zbek adabiy tilining rus grafikasi asosidagi yangi alfaviti**" nomli maqola chop etiladi. Unda rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga o‘tish o‘zbek xalqi madaniyati va tilining taraqqiyotini tezlatadi deb ko‘rsatiladi.

**1939-yilning 18-noyabrida** matbuotda "Rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o‘zbek alifbosi"ning proyeksi muhokama uchun e‘lon qilindi.

**1940-yilning 26-28-martida** Toshkentda yangi o‘zbek alfaviti va orfografiyasi masalalariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy kengashi bo‘lib o‘tdi. Kengash alifbo loyihasi bo‘yicha bildirilgan fikrlarni hisobga olib, unga o‘zgartirishlar kiritadi.

Xullas, o‘zbek yozuvi murakkab tarixiy shakllanish bosqichlarini bosib o‘tgan. E‘tibor berilsa, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi o‘z yozuv tarixida arab va kirill-rus alifbolariga majburlab o‘tkazilgan edi. Lekin lotin alifbosiga tazyiq ostida emas, o‘z xohish-irodalariga ko‘ra, kelajakni o‘ylab o‘tilgan edi. Bu yozuvda ko‘chilganiga o‘n yilcha vaqt bo‘lar-bo‘lmas, o‘zbek xalqi endigina yangi yozuvni o‘zlashtirgan bir

zamonda mamlakatimizda sho‘rolarning rus-kirill alifbosini joriy etish siyosati boshlandi.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?
2. Qadimgi turkiy yozuvlar xususiyatlari yoritilgan adabiyotlarni o‘rganing.
3. Qadimgi turkiy til davrida qaysi yozuvlar qo‘llanilgan?
4. Turk runiy bitiglarida necha alifbo amal qilgan?
5. Uygu‘ur yozivi qaysi alifbo asosida shakllangan?
6. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuviga qaysi yillarda qanday o‘zgartirishlar kiritilgan?
7. Arab grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvidan nechanchi yilgacha foydalanildi?
8. Arab grafikasidan lotin grafikasiga ko‘chish jarayoni qanday kechdi?
9. «Chig‘atoy gurungi» tashkilotining alifbo-imlo sohasidagi ishlarini aytib bering.
10. O‘zbekistonda o‘tgan asrning 20-yillarida alifbo-imlo islohotiga doir qanday anjuman va qurultoylar bo‘lib o‘tgan?
11. Alifbo va imloni isloh etish yoki o‘zgartirish tadbirlarida faol ishtirok etgan ziyolilar haqiga ma‘lumot bering.
12. Lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosiga qanday o‘zgartirishlar kiritildi?

## 2-MA'RUZA: 1940–1995-YILLARDA ALIFBO VA IMLO O'ZGARISHLARI

<i>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: kishi</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)</i>
<i>Ma'ruza mashg'uloti</i>	<b>1940–1995-yillarda alifbo va imlo o'zgarishlari</b>
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. 1940-1995-yillar orasida o'zbek tilining alifbo va imlosi sohasidagi islohot va o'zgarishlar.</li> <li>2. Bu davrda aniqlangan muammoli holatlar bo'yicha suhbat.</li> <li>3. Matbuotdan ixtiyoriy tanlangan matnlarni grafika va imlo nuqtayi nazaridan tahlil qilish, shu asosda grafika va imlodagi qiyin holatlarga munosabat bildirish.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Yuqoridagi reja asosida mavzuni mustahkamlash, talabalarning bilimini oshirish.
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzularning mazmun-mundarijasini eslatish ;</li> <li>• tayanch tushunchalar ustida ishlash</li> <li>• ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.</li> </ul>	<p><i>O'quv faoliyati natijalari :</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• talaba mavzuning mazmun-mundarijasini eslaydi, bu mavzuga oid bilimini mustahkamlaydi;</li> <li>• talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari aniqlanadi, baholanadi.</li> </ul>

<i>Ta'lim berish usullari</i>	ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.
<i>Ta'lim berish shakllari va metodlari</i>	og'zaki, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	o'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proektor, doska, adivizual vositalar
<i>Ta'lim berish shartlari</i>	hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, mashq

### MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• 1940-1995-yillarda alifbo va imloni o'zgartirish, mukammallashtirish yuzasidan olib borilgan ishlarni tahlil qiladi;</li> <li>• bu davrda aniqlangan muammoli holatlar bo'yicha suhbat qiladi;</li> <li>• matbuotdan ixtiyoriy tanlangan matnlarni grafika va imlo nuqtayi nazaridan tahlil qiladi, shu asosda grafika va imlodagi qiyin holatlarga</li> </ul>	2.1. Yangi mavzuni tinglaydi, mavzuga oid ma'lumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi va ularni tizimlashtiradi. 2.2. Mavzu

boshqalar mazkur harflarining alifbodan chiqarilishi g'oyasiga e'tiroz bildirganlar. *N. Mamatovning* aytishicha, **я, ё, е, ю** kabi grafemalarning mavjudligi o'zbek tiliga o'zlashgan internatsional so'zlarning fonologik tarkibini yozuvda tog'ri ifodalash imkonini beradi, demak, o'zbek yozuvining baynalmilal jihatlarini mustahkamlaydi; Ikrom Ulug'boyevning fikriga ko'ra esa **ё, ю, я** harflari o'zbek alifbosidan chiqarilsa, u holda shu kungacha yaratilgan adabiyotlarni o'qishda, o'zbek alifbosida chalkashliklar yuz beradi.

Yuqoridagi kabi munozaralar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi qorishiq «**ж**» (**ДЖ**), sayoz til orqa «**ng**» («**нГ**») va ruscha o'zlashmalarda qo'llanadigan qorishiq «**и**» fonemalari, binobarin, ularning yozuvdagi ifoda vositalari bo'lgan **ж, ng, и** grafemalari xususida ham mavjud. Demak, o'zbek alifbosi va imlosining milliy jihatlarini mustahkamlash masalasidagi ayrim munozarali holatlar hanuz davom etib kelmoqda. Bunday vaziyat aslida, alifbo va imloga emas, balki ular uchun lingvistik asos bo'lgan o'zbek adabiy tilining fonologik tizimlari bilan bog'liq ravishda yuzaga kelmoqda.

**3. Alifbodagi harflarning shakliy va funksional xususiyatlari masalasi.** Bu masala o'zbek alifbosining dastlabki (1939- va 1940-yillardagi) loyihalarini tuzish jarayonida maxsus ko'rilgan edi. Unda o'zbek alifbosi rus alifbosini maksimal saqlash prinsipida tuzilganligini ko'ramiz, shuning uchun alifboning 1939-yilda muhokamaga qo'yilgan birinchi loyahasiga rus alifbosidagi 32 (33) harfning barchasi shaklan o'zgarishsiz kiritilgan. Shundan so'ng bu harflar qatoriga o'zbek tilining o'ziga xos tovushlari uchun qo'shimcha harflar kiritish masalasi ko'rilgan, ularni tanlash yoki shakllantirishning besh yo'li o'rganib chiqilgan, natijada o'ziga xos tovushlar uchun rus alfavitidagi **ч, к, г, х, и** harflarining har biriga diakritik belgilar qo'yilib, yangi harflar shakllantirilgan (**ч, к, ґ, х, и** kabi). Keyinchalik (1940-yilda) **ч** shakli **ж** bilan, **и** shakli **нГ** bilan almashtirilgan, **ы** va **ш** harflari loyihadan chiqarilgan. Alifbodagi harflarning aksariyati (**й, к, ґ, х, и** dan boshqalari) polifonemali grafema vazifasini bajarib kelmoqda: ularga

o‘zbek va rus tillari fonemalarini ifodalash funksiyasi yuklangan. Bu tamoyil (bir grafema vositasida ikki til fonemalarini ifodalash tamoyili) hozirgi lotin o‘zbek grafemalariga ham tatbiq etilgan.

**4. Alifbodagi harflarning miqdori masalasi.** Ma'lumki, hozirgi kirill o‘zbek alifbosi 35 harfdan tarkib topgan. Uning 1939-yilda tuzilgan dastlabki (birinchi) loyihasida esa harflar miqdori 39 ta bo‘lgan. Keyinchalik muhokamalarda bildirilgan bir qator fikrlar asosida alifbo loyihasidan **щ, ы, ч, љ** harflari chiqarilgan. Bu harflarning alifbo tarkibidan chiqarilishida «щ» va «ы» tovushli so‘zlarning o‘zbek tilida ko‘p emasligi, «щ», «ы», « љ », « ч » tovushlari talaffuzidagi ayrim xususiyatlar, shuningdek, diakritik belgili harflar miqdorini kamaytirish lozimligi haqidagi takliflar hisobga olingan, shu yo‘l bilan loyihadagi harflar miqdorining 39 tadan 35 taga tushirilishiga erishilgan. Alifbodagi harflar miqdorining 35 ta bo‘lishi, shulardan 31 tasining rus alifbosidagi harflar ekanligi, qolgan 4 ta harfning (**й, к, ґ, х**) ruscha harflar shakliga asoslanganligi, birinchidan, rus alifbosi va grafikasi xususiyatlarini o‘zbek alifbosida maksimal saqlash tamoyiliga mos bo‘lsa, ikkinchidan, bosmaxona texnikasi, yozuv mashinkalari va kompyuter texnikasi imkoniyati talablariga ham javob berardi.

Hozirgi o‘zbek-lotin alifbosining dastlabki (1993-yilda tasdiqlangan) variantida 31 harf va bitta tutuq belgisi bo‘lgan, uning so‘nggi (1995-yilda tasdiqlangan) variantida esa 26 harf va 3 ta harf birikmasi (jami - 29 grafema) bor.

O‘zbek-lotin alifbosidagi harflar miqdorining kamaytirilishida ham, asosan, kompyuter imkoniyatlari hisobga olingan.

**5. Harflarning alifbo tarkibidagi o‘rni (tartibi) masalasi.** O‘zbek-kirill alifbosining birinchi (1939-yilda tuzilgan) loyihasida, ma'lumki, 38 harf («**Ё ё**» mustaqil belgi deb qaralgan taqdirda esa 39 harf) bo‘lgan. Ular quyidagi tartibda joylashtirilgan:

1. А а	11. К к	21. Ф ф	31. Ю ю
2. Б б	12. Л л	22. Х х	32. Я я
3. В в	13. М м	23. Ц ц	33. Ө ө
4. Г г	14. Н н	24. Ч ч	34. Ч ч
5. Д д	15. О о	25. Ш ш	35. Қ қ
6. Е е, Ё ё	16. П п	26. Щ щ	36. F F
7. Ж ж	17. Р р	27. Ъ ъ	37. h h
8. З з	18. С с	28. Ы ы	38. Ҳ ҳ
9. И и	19. Т т	29. Ь ь	
10. Ў ў	20. У у	30. Э э	

Ко'rinib turibdiki, alifboda harflar ikki toifaga bo'lib joylashtirilgan: birinchi toifaga rus alifbosidagi harflar kiritilgan, ular rus alifbosidagi o'rni va tartibini o'zbek alifbosida ham aynan saqlagan; ikkinchi toifadagi harflar alifboga yangi qo'shilgan belgi-shakllar bo'lib, ular o'zbek tilining o'ziga xos (spetsifik) tovushlari uchun mo'ljallangan. Bu harflar (ө, ч, қ, ғ, һ, Ҳ) alifboda sof ruscha harflardan so'ng o'rin olgan.

Keyinchalik, 1940-ilning mart-aprel oylarida («Loyiha»ning O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasiga qo'yilishi arafasida) bu loyiha tarkibidan 4 ta harf (щ, ы, ч, ң) chiqariladi, «ё» harfi «е» dan ajratilib, o'zi alohida (mustaqil harf sifatida) beriladi, ө harfi ў bilan, һ harfi esa х bilan almashtiriladi, natijada alifboda kuyidagi 35 harf qoladi:

1. А а	13. Л л	25. Ч ч
2. Б б	14. М м	26. Ш ш
3. В в	15. Н н	27. Ъ ъ
4. Г г	16. О о	28. Ь ь
5. Д д	17. П п	29. Э э
6. Е е	18. Р р	30. Ю ю
7. Ё ё	19. С с	31. Я я
8. Ж ж	20. Т т	32. У у



9. Зз	21. Уу	33. Ққ
10. Ии	22. Фф	34. F F
11. Ўў	23. Хх	35. Ҳҳ
12. Кк		

**Alifboning shu tarkibi va tartibi 1940-yilning 8-mayida O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1-chaqiriq 3-sessiyasida tasdiqlanadi.**

Alifbodagi harflarning yuqorida keltirilgan tarkibi va tartibi o‘tgan yillar davomida mutlaqo o‘zgarmagan, ammo uni o‘zgartirish kerakligi haqida takliflar bo‘lgan, shular asosida loyihalar tuzilib muhokamaga qo‘yilgan. Bunday loyihalarda **ў, қ, ғ, ҳ** harflari alifbo oxiridan oldinroqqa olingan: «y»dan keyin «ў», «k»dan keyin «қ», «r»dan keyin «ғ», «x»dan keyin «ҳ» tartibida. Bu loyihalarning barchasida qorishiq «дж» va sayoz til orqa «нг» fonemalari uchun **ч (ж)** va **ң** harflari tavsiya etilgan va ular ham yuqoridagi prinsipga ko‘ra **ж** va **ң** harflaridan so‘ng joylashtirilgan.

Alifbodagi harflar tartibining bu tarzda o‘zgartirilishiga sof lingvistik pozitsiyadan baho beradigan bo‘lsak, unda ma‘lum mantiqiy asos borligini tan olish kerak, chunki bu tartib yonma-yon qo‘yilayotgan harflarning shakllaridagi umumiylikni hamda shu harflar orqali ifodalanayotgan fonemalarning akustik-artikulyasion jihatdan bir-biriga yaqinligini hisobga oladi. Ammo bunday loyihalardan birortasi tasdiqlangan taqdirda alifbo tartibi bilan bog‘liq amaliyotda ma‘lum qiyinchiliklarning yuz berishi ham muqarrar edi. Chunonchi:

a) harflarning joriy alifbodagi tartibiga nisbatan yillar davomida shakllangan ijtimoiy ko‘nikma o‘rnida yangi tartibga asoslangan ko‘nikmani shakllantirish zarurati yuzaga kelardi, bu ish, ma‘lumki, ko‘p yillik mehnat-mashaqqatni talab qiladi; b) yarim asr davomida nashr etilgan turli lug‘atlardan kelajak avlodning foydalanishi biroz bo‘lsa-da qiyinlashardi; v) kutubxonalaridagi million-million kitoblarni va ularning kataloglari yoki ko‘rsatkichlarini, shuningdek, turli darajadagi arxiv

materiallarini qaytadan sistemalashtirishga majbur bo'linardi, bu jarayonni esa og'ir mehnatsiz va qo'shimcha moliyaviy xarajatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bundan yuqoridagi masalani yoxud alifbo muammosi tarkibiga kiruvchi boshqa masalalarni faqat lingvistik pozitsiyadan hal qilishning o'zi yetarli emasligi, ularni ijobiy hal qilish uchun shu masalalarning ijtimoiy-psixologik, moliyaviy, tarixiy jihatlariga ham e'tibor qaratilishi lozimligi ma'lum bo'ladi, aks holda yaxshi niyatda qilingan ishning foydasidan ko'ra ziyoni ko'proq bo'lib qolishi ham mumkin.

**6. O'zbek yozuvini rus grafikasiga asoslangan alifbodan boshqa alifboga ko'chirish masalasi.** Bu masala, asosan, 1991-1992-yillarda ko'tarildi. Uning kun tartibiga qo'yilishini quyidagicha izohlash mumkin:

a) amaldagi alifboning milliy va umumturkiy jihatlarini mustahkamlash yuzasidan uzoq yillar davomida olib borilgan ishlar (bahslar, munozaralar, taklif-tavsiyalar) natija bermadi; b) sobiq SSSRdagi turkiy xalqlar orasida yozuvni rus grafikasidan boshqa tizimga ko'chirish harakati boshlanib ketdi; v) 1991-yilning 18-20-noyabrida Turkiyada (Istanbuldagi Marmara universitetida) «Qardosh turk alifbolari» muammosiga bag'ishlangan xalqaro simpozium o'tkazildi, unda ham lotin grafikasi asosida turkiy alifbolar tuzish hoyasi targ'ib qilindi; g) 1991-yilda sobiq SSSRning tugatilishi, undagi respublikalarning mustaqil davlatlarga aylanishi ham shu davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham alifbo islohoti masalasining faollashuviga zamin hozirladi. Natijada bu islohotga aloqador to'rt xil yo'nalish shakllandi.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitga ko'chirish masalasini o'rta qo'yidilar; ikkinchi yo'nalish tarafdorlari arab grafikasidagi eski o'zbek yozuviga qaytishni yoxud uni (eski yozuvni) ma'lum vaqt amaldagi yozuv bilan parallel qo'llashni, shu tarzda bu ikki yozuvdan birining tanlanishini vaqt ixtiyoriga berishni taklif qiladilar; uchinchi yo'nalish tarafdorlarining aniq shakllangan

xulosa va takliflari bo'lmasa-da, ularning fikrlarida qadimgi turkiy (urxon) alifbosini tiklashga moyillik bordek tuyuladi; to'rtinchi yo'nalish tarafdorlari esa amaldagi alifboni ma'lum o'zgarishlar bilan saqlash kerakligini yoqladilar.

Yuqoridagi yo'nalishlarning tarafdorlari o'rtasidagi bahslar, oxir-oqibatda, o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifboga ko'chirish g'oyasining ustun kelishi bilan yakunlanadi.

Демак, **3-davr 1940–1995-yillarni** qamrab oladi. **1940-yilning 5-8-mayida** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1-chaqiriq III sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya o'zining 8-maydagi yig'ilishida rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosining 35 harfdan iborat loyihasini tasdiqlaydi. Oliy Kengash O'zbekistonning barcha xalq komissarliklariga, respublika muassasalariga, mehnatkashlar deputatlari kengashlarining viloyat ijroiya komitetlariga respublikada lotinlashtirilgan yozuvdan yangi alifboga ko'chish ishlarining hammasini ikki yil ichida o'tkazish, bu ishni 1942-yilning 1-yanvarigacha tugallash majburiyatini yuklaydi.<sup>8</sup>

**1940-yilning 4-iyulida** yangi alifbo hukumat komissiyasi yig'ilishida "**O'zbek adabiy tilining orfografiyasi**" (loyiha) ham ba'zi o'zgarish va tuzatishlar bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, o'zbek yozuvi tarixining rus grafikasiga asoslangan davri boshlanadi.

1940/1941-o'quv yilida maktablarning quyi sinflarida, 1941/1942 - o'quv yilida maktablarning yuqori sinflarida o'quv jarayoni yangi (kirillcha o'zbek) yozuvga ko'chirildi.

**1943-1946-yillarda** alifbe va imlo asoslarini ommaga singdirish ishlari olib boriladi. Shu yillar ichida yozuv amaliyotida imlo qoidalaridan chetga chiqish, ularga g'ayriqonuniy o'zgartirishlar kiritish, adabiy tilning tayanch shevalariga yetarli amal qilmaslik kabi nuqsonlarga yo'l qo'yilayotganligi ham ma'lum bo'ladi. Bunday nuqsonlarga barham

<sup>8</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. 211-bet.

berish, kamchiliklarni tuzatish maqsadida **1946-yilda** orfografiya qoidalarining yangi to'plami yaratildi, imlo lug'atini tuzishga kirishildi.

**1947-1950-yillarda** A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida maxsus tuzilgan orfografiya komissiyasi ish olib boradi. Bu komissiya 1946-yilda tuzilgan va nashr etilgan qoidalar to'plamini matbuotda va turli kengashlarda bildirilgan fikrlar asosida qayta ishlaydi, shu asosda yangi loyiha yaratadi.

**1950-1952-yillarda** til va imlo masalalariga bag'ishlangan bir necha konferensiya va kengashlar bo'lib o'tadi. Ularda orfografiya loyihasi bo'yicha bir qator tanqidiy fikrlar bildiriladi, alifboni takomillashtirish kerakligi aytiladi.

**1953-1955-yillarda** matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida "**O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalari**"ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so'nggisi O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi.

**1956-yilning 4-aprelda** "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi.

**1956-1991-yillarni** rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi uchun jiddiy sinov yillari bo'ldi. Bu yillar ichida alifbo va imlo qoidalarining ijobiy baholanishi mumkin bo'lgan jihatlari bilan birga, kamchiliklari borligi ma'lum bo'lib qoldi. O'zbek tilining ayrim milliy tovushlari uchun maxsus harflarning yo'qligi, grafika va orfografiyaning rus tili fonologik xususiyatlariga moslashtirilganligi bir qator mutaxassislar tomonidan salbiy hodisa sifatida baholandi.

**1991-1992-yillar.** 1991-yilda mustaqillik siyosati yangi o'zbek alifbosini yaratish vazifasini qo'ydi. Uzoq davom etgan munozaralar natijasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish ma'qul deb topildi. Lotin yozuvini o'rganishning qulayligi va dunyo mamlakatlari bilan aloqaga kirishishda o'ng'ay ekanligi bu yozuvga o'tishning asosiy sabablaridan biri edi.

**1991-1992-yillarda** ruschalashtirilgan o'zbek alifbosini boshqa tizimdagi alifbo bilan almashtirish g'oyasi va bu masalada turli yo'nalishlar tarafdorlari o'rtasidagi bahslar, oxir-oqibatda, o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifboga ko'chirish g'oyasining ustun kelishi bilan yakunlandi.

**4-davr (1995-2005).** 1993-yilning 2-sentabrida 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasi "**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiini joriy etish to'g'risida**" qonun qabul qiladi. Qonunga muvofiq yangi o'zbek alifbosining tarkibi **31 harf va 1 ta tutuq belgisidan** iborat deb belgilandi. (**3-ilovaga** қараң)

**1995-yilning 6-mayida** O'zbekiston Oliy Majlisi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun"ga o'zgartirish kiritadi. Unga ko'ra alifbodagi 31 harf va 1 ta tutuq belgisi **26 ta harf va 3 ta harflar birikmasiga** o'zgartiriladi. (**4-ilovaga** қараң)

**1995-yilning 24-avgustida** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi. (**5-ilovaga** қараң)

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zbek yozuvi qachon kirill-rus alifbosiga o'tkazilgan?
2. O'zbek yozuvini kirill-rus alifbosi asosiga ko'chirilishiga nima sabab bo'ldi?
3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvidan yangi yozuvga o'tish g'oyasi qachon va nega yuzaga keldi?
4. Yozuvni o'zbek-kirill alifbosiga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan qanday ilmiy kengash yoki yig'ilishlarni bilasiz?
5. Rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosining loyihasi qachon muhokama qilindi?
6. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?

7. Rus-Kirill alifbosiga o'tish jarayonida faol ishtirok etgan qaysi olim va mutaxassislarni bilasiz? Ularning ishlarini keltiring.

8. O'zbek-kirill alifbosiga va imlosi isloh qilish qachon jiddiy tus oldi? Bu jarayonda kimlar ishtirok qildi?

9. Qachon lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy qilindi?

10. O'zbek yozuvini lotin alifbosiga ko'chirilishi sabablarini ayting.

11. Yangi o'zbek alifbosining dastlabki varianti haqida ma'lumot bering.

12. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari qachon qabul qilindi?

13. Yangi alifboni joriy etilishiga doir qanday hukumat tadbirlari amalga oshirildi?

14. Yangi alifboni isloh etish va imloni takomillashtirish harakatlari qachondan va nega boshlandi.

15. Siz o'qiyotgan ta'lim muassasasida bu jarayonlar bilan bog'liq qanday tadbirlar o'tkazildi?

16. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini keng joriy etish va yanada takomillashtirish bo'yicha davlat tomonidan qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda?

**3-MAVZU: ORFOGRAFIYA TAMOYILLARI. O‘ZBEK  
TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARI,  
ULARDAGI TAFOVUTLAR (2 soat)**

<i>Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: kishi</i>
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	<i>Ma‘ruza (ommaviy, jamoaviy, juflikda ishlash)</i>
<i>Ma‘ruza mashg‘uloti</i>	<b>Orfografiya tamoyillari. O‘zbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalari, ulardagi tafovutlar</b>
<i>Mashg‘ulot rejasi</i>	<p>1. Orfografiya tushunchasi. O‘zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari.</p> <p>2. O‘zbek yozuvining imlo qoidalari va uni o‘rganish bilan bog‘liq muammolar:</p> <p>a) kirillcha-o‘zbekcha yozuv asosidagi imlo qoidalari;</p> <p>b) lotincha-o‘zbekcha yozuv asosidagi imlo qoidalari.</p> <p>3. Kirillcha va lotincha o‘zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalari orasidagi tafovutlar.</p> <p>4. Yangi imloni o‘rganishda lug‘atlarning amaliy ahamiyati.</p> <p>Xulosa.</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	Yuqoridagi reja asosida mavzuni mustahkamlash, talabalarning bilimini oshirish.
<i>Pedagogik vazifalar: • mavzularning mazmun- mundarijasini eslatish ;</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari :</i> • talaba mavzuning mazmun- mundarijasini eslaydi, bu mavzuga



<ul style="list-style-type: none"> <li>• tayanch tushunchalar ustida ishlash;</li> <li>• ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.</li> </ul>	<p>oid bilimini mustahkamlaydi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari aniqlanadi, baholanadi.</li> </ul>
<i>Ta'lim berish usullari</i>	ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.
<i>Ta'lim berish shakllari va metodlari</i>	og'zaki, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	o'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proektor, doska, audivizual vositalar
<i>Ta'lim berish shartlari</i>	hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, mashq

### MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	1. Orfografiya, uning grafikadan farqlari xakida gapirib beradi. 2. Orfografiya tamoyillari, ularning	2.1. Yangi mavzuni tinglaydi,

	<p>imlo qoidalari tizimida tutgan o'zni haqida savol-javob qiladi, matn tahlilini o'rgatadi.</p> <p>3. O'zbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalaridagi tafovutlarni bilib oladi.</p> <p>4. Yangi imloni o'rganishda lug'atlarning amaliy ahamiyatini tushunadi.</p>	<p>mavzuga oid ma'lumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi va ularni tizimlashtiradi.</p> <p>2.2. Mavzu yuzasidan savollar beradi.</p> <p>2.3. Javoblarni to'ldiradi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.</p>	<p>3.1.O'z-o'zini baholaydi.</p>

### REJA:

1. Orfografiya tushunchasi. O'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari.

2. O'zbek yozuvining imlo qoidalari va uni o'rganish bilan bog'liq muammolar:

a) kirillcha-o'zbekcha yozuv asosidagi imlo qoidalari;

b) lotincha-o'zbekcha yozuv asosidagi imlo qoidalari.

3. Kirillcha va lotincha o'zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalari orasidagi tafovutlar.

4. Yangi imloni o'rganishda lug'atlarning amaliy ahamiyati.

5. Xulosa.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Orfografiya, til yozuv sistemasining to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan imlo qoidalari, orfografiya tamoyillari: fonetik tamoyil, fonematik tamoyil, morfologik yoki fonematik-morfologik tamoyil, grafik tamoyil, tarixiy-an'anaviy tamoyil, shakliy- ai'anaviy yozuv tamoyil, imlo qoidalari: kirillcha o'zbek yozuviga asoslangan*

*imlo qoidalari, lotincha o'zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalari.*

Har bir jamiyatda yashovchi yuksak madaniyatli kishi to'g'ri yoza bilishi va to'g'ri so'zlay olishi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar va filologlarga nisbatan ayniqsa qat'iy qo'yiladi. Chunki ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to'g'risida savod beradilar, ularni savodxonlikka va ravon so'zlashga o'rgatadilar.

Ma'lumki, nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Nutqning ana shunday ko'rinishlaridan biri – yozma nutq (yozuv yo'li bilan fikr ifodalash vositasi) orfografiyasi bilan bevosita va uzviy bog'liqdir. Nutqning bu ko'rinishi yagona tarzda yozishning ma'lum ilmiy va obyektiv qonun-qoidalari tizimi bo'lgan orfografiya va uning tamoyillariga asoslanadi.

**Orfografiya** to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidir. O'rfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planini kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa ma'lum prinsiplar asosida orfogrammalarni tanlashga asoslanadi. Chunonchi, *odam* so'zida "d"ning yozilishi "d" grafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu so'zning yozilishi grafika tomonidan boshqariladi. *Savod* so'zida esa "d" undosh jarangsiz "t"ga o'tadi, demak, uni ikki xil yozish mumkin: *savod* (fonematik prinsip asosida) - *savot* (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me'yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o'zbek orfografiyasida *savod* deb yozish qoidalashtirilgan.

Orfografiyada qo'shma so'z komponentlarining qo'shib yoki ajratilib yozilishi, so'z qismlarining satrdan satrga ko'chirilishi, bosh va kichik harflarning qo'llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo'lmagan jihatlarini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.

Orfografiya me'yorlariga amal qilish yozma nutq mazmunining to'g'ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda

boshboshdoqlikning avj olishiga yo'l qo'ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy rolini mustahkamlashda orfografiya me'yorlarining ahamiyati katta.

Hozirgi o'zbek adabiy tili orfografiyasi quyidagi tamoyillarga tayanadi: **fonetik tamoyil, morfologik tamoyil va tarixiy-an'anaviy tamoyil**. Bulardan tashqari, **farqlovchi va etimologik tamoyillar** ham mavjud.<sup>9</sup> Lekin bular oldingi ko'rsatib o'tilgan uchta tamoyil kabi asosiy rol o'ynamaydi.

Hozirgi o'zbek orfografiyasida bu tamoyillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning har birining o'z o'rni va ahamiyati bor.

**Fonetik tamoyil.** Shevalar ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og'zaki nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilishi natijasida so'z tarkibida turli xarakterdagi juda ko'p o'zgarish sodir bo'ladi. Bu xilma-xillik hammasi ham orfografiyada o'z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni ta'minlab bo'lmas edi, natijada yozuvda bir xillik o'rnini turli xarakterdagi xilma-xillik, hatto chalkashlik egallagan bo'lar edi.

Fonetik tamoyilda, asosan, so'zlar nutq jarayonida fonetik jihatdan qanday eshitilsa, xuddi shunday qilib yoziladi. Ma'lumki, fonemalar mustaqil ma'noni anglatuvchi so'zlarni vujudga keltirishda muhim vazifani bajaradi.

Shunday qilib, so'z tarkibidagi nutq tovushlarining yozuvda maxsus grafik shakl orqali eshutilishiga qarab, tizimga solib berilishi fonetik tamoyil deb yuritiladi. Masalan: *go'dakka*.

**Morfologik tamoyil.** So'z o'zagiga qo'shiluvchi morfemalarning yozuvda to'liq yoki qisman bir tizim asosida aks etirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish morfologik tamoyil deyiladi. Hozirgi orfografiya talabi bo'yicha affikslarning deyarli hammasi morfologik tamoyil asosida yoziladi. Masalan: egalik affikslari: *-m (-im)*, *-ng (-ing)*, *-miz (-imiz)* *-ngiz (-*

<sup>9</sup> Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'qituvchi, 1980. -B. 93-94.

*ingiz*), kelishik affikslari, kesimlik affikslari; shaxs va zamonni ko'rsatuvchi hamda so'z yasovchi affikslar og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'i nazar, imlodagi o'zining bir xil morfologik shaklini saqlagan holda yoziladi.

**Tarixiy-an'anaviy tamoyil.** O'zbek xalqining yozuvi tarixida ko'pgina so'z va iboralar borki, og'zaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat'i nazar, ularning yozilishida ma'lum an'anaga amal qilinadi. So'zlarning hozirgi talaffuz me'yorlariga mos kelmaydigan, qadimdan o'zlashib qolgan shaklda yozilishi orfografiyaning tarixiy-an'anaviy tamoyilga asosan so'zlar hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra yoziladi.

**Farqlovchi tamoyili.** Bu tamoyilga asosan og'zaki nutqda yoki talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli sezilmaydigan darajada kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratib yoziladi.

Masalan: *-lik* affiksi, asosan, shahar aholisi nutqida; *-li* affiksi esa qipchoq shevalari vakillari nutqida qo'llanadi. Masalan: *shaharlik, andijonlik, to'nli, joyli*.

**Etimologik yoki shakliy tamoyil.** So'zlarni etimologik yoki shakliy tamoyil asosida yozish deyilganda ularning qaysi xalq tilidan olingan bo'lsa, o'sha tildagi grafik holatini saqlab qolish tushuniladi.<sup>10</sup>

**Orfografiya qoidalari.** O'zbek tili imlo qoidalari uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib va shakllanib boradi. Kirillcha o'zbek yozuvining imlo qoidalari dastlab 1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi" nomli to'plamda e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952, 1953, 1955-yillarda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956-yilning 4-

---

<sup>10</sup> Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: O'qituvchi, 1980. -B. 88-97.

aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi (kirillcha) o'zbek yozuvining imlosi ana shu qoidalarga asoslangan. U quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Ayrim harflar imlosi. (1-30-§ qoidalar).
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalar).
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalar).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§ qoidalar).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalar).

**Ayrim harflar imlosida** unli va undosh tovushlarni aks ettiruvchi har bir harf sharhlanadi. Masalan: **i** harfi quyidagicha tavsiflanadi: **I** *bir, biz, bil* kabi so'zlarda qisqa aytiladigan «i» unlisi o'rnida, *muhit, lirika* kabi so'zlarda cho'ziqroq aytiladigan «i» unlisi o'rnida yoziladi. *Bilan, biroq, sira* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida «i» tovushi juda qisqa aytilsa ham shu tarzda yoziladi. *Fikr, zikr, qism, jism* kabi o'zlashma so'zlardagi oxirigi undoshdan oldin «i» aytilsa ham, arab yozuvi an'anasiga ko'ra yozilmaydi.

So'z o'zagining oldingi ochiq bo'g'inida lablanmagan old qator unililari **i, e, a** dan biri bo'lsa, keyingi yopiq bo'g'inda «i» yoziladi: *keyin, ivit*; va hokazo.

**I** unlisidan tashqari, u, o, a, e, o' unililarning imlosi ham so'zlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, undoshlarning yozuvdagi grafik tasviri ham o'ziga xos. Masalan: *jurnal, ekipaj, bogaj, garaj* kabi o'zlashma so'zlardagi sirg'aluvchi undosh ham **j** tarzida yoziladi. *Ajrab, mujda, sajda* kabi so'zlarda qo'llangan sirg'aluvchi undosh ham **j** harfi orqali yoziladi. Bu o'rinda biz faqat **i** unlisining yozilishi xususida to'xtaldik.

**O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosida** so'z va unga qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalari sharhlanadi. Masalan: *ulug'* so'ziga *-ay* qo'shimchasi qo'shilganda, talaffuzda o'zak tarkibidan keyingi *u* tushib qoladi va bu so'z shu tartibda yoziladi. Ya'ni: *ulg'ay* va hokazo.

**Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi.** Bu bo'limda rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvida qo'shma so'z va so'z birikmalarining yozilish qoidalari sharhlanadi. Masalan: bir urg'u bilan aytiluvchi va bir tushunchani anglatuvchi *ko'zoynak, oshqozon* tipidagii qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi va hokazo.

**Bo'g'in ko'chirish qoidalari.** Bu bo'limda bir satrga sig'may qolgan so'zlarni bo'g'inga ajratib yozish qoidalari jamlangan. Masalan:

1. So'zning birinchi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, o'sha harfning yolg'iz o'zi birinchi satrda qoldirilmaydi, bu hol so'zning ohirgi bo'g'iniga nisbatan ham qo'llanadi. Bunday bo'g'inlar oldingiyoki keyingi bo'g'inga qo'shib ko'chiriladi: *o-tamiz* emas, *ota-miz* kabi.

2. Ajratilmay aytiladigan bir tovushi bildiruvchi «ng» harfi birinchi satrga sig'may qolgan bo'g'inning oxirida kelsa, shu bo'g'indagi boshqa harflar bilan birga ikkinchi satrga ko'chiriladi: *taran-groq* emas, *tarangroq* yoki *tarang-roq* kabi.

3. So'zlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar va ko'p sonli raqamlar ikkinchi satrga bo'lib ko'chirilmaydi.

**Bosh harflar imlosi.** Bosh harflarning ajratilishi, farqlanishi va imlosining ishlatilish yozuv taraqqiyoti, yozuv madaniyati rivoji bilan bog'liq.

Bosh harflarning ajratilishi hayotiy ehtiyoj, yozuvdagi ma'noli qismlarni ajratish, chegaralash, tushunchalarni bir-biridan farqlash kabi sabablar bilan bog'liq. Bosh harf bilan yozish qoidalari asosiy hollarda atoqli otlarga (**Karim**), muhim tarixiy voqea (Oktabr to'ntarishi), muhim sana nomlarini yozishga (**8-Mart**), hurmatni ifodalashda (**Siz**), yuqori darajadagi unvon (**O'zbekiston Qahramoni**), mansab (**Bosh Prokuror**) kabilarni yozishga nisbatan qo'llaniladi.

**O'zbek-lotin yozuvining imlo qoidalari** 1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yili "**O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari**" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:



### 1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1-7-qoidalar);

b) undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).

2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo‘shib yozish (38-50-qoidalar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).

6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7. Ko‘chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Lotin alifbosiga o‘tish tufayli imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag‘ishlangan qismi qayta yozildi, unda qaysi harf qaysi tovushni ko‘rsatishi to‘liq aks ettirildi. Lekin tovush-harf munosabatiga doir ayrim masalalar yangi qoidalarda berilmadi. Masalan: lotin alifbosiga o‘tish munosabati bilan kirill alifbosidagi «ё», «ю», «я» harflaridan va «ѣ», «ѝ» belgilaridan voz kechildi.

Lotin yozuvida unlilar ham kirill yozuvi singari imlo qoidalariga asoslanib so‘zda o‘z ifodasini topadi. Masalan, **A** **a** harfi *aka, alanga, aloqa, og‘a, sentabr, noyabr* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi. *Bahor, zamon, savol* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, *vaqt, baxt* kabi so‘zlarda «a» tarzida aytiladi va shu tartibda yoziladi.

**Undoshlar imlosi.** Undoshlar ham imlo qoidasiga ko‘ra kirill undoshlari singari imlo qoidalariga asoslanib so‘zda o‘z ifodasini topadi. Masalan: **Tt** harfi *tong, tun, butun, o‘tin, o‘t, kut* kabi so‘zlarda **til oldi, jarangsiz, portlovchi** undoshi uchun yoziladi.

**Asos va qo‘shimchalar imlosi.** Bu bo‘limda so‘z o‘zagi va unga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan so‘z shakllari, yasalmalarning imlo qoidalari sharhlanadi. Masalan, **a** unlisi bilan tugagan fe‘llarda **-v, -g, -gi** qo‘shimchasi qo‘shilganda «a» unlisi «o» aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov*.

Xulosa qilib aytganda, orfografiya savodxonlikni oshiradi. Orfografiyaning asosiy imlo qoidalari, ulardagi farqlar amaldagi yozuvlarning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

**Yangi imlo qoidalari amaldagi imlo qoidalaridan ayrim jihatlari ko'ra farqlanadi.** Amaldagi imlo qoidalarining ayrim paragraflari yangi imlo qoidalariga kiritilmagan. Bular quyidagilar:

1. 1956-yilgi imlo qoidalarining 2-paragrafida y (u) harfining yozilishiga oid 3 ta qoida berilgan bo'lib, shulardan bittasi (2-qoida) *қовун, совун, тарвуз, тасаввур, қувур* kabi so'zlar imlosiga taalluqli. Bu qoidaga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inlarida *o, a, u* unlilaridan biri bo'lsa va shu unlidan keyingi yopiq bo'g'in boshida "v" undoshi kelsa, "v" dan so'ng "y" yoziladi. Yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoida faqat "o" unlisidan keyingi yopiq bo'g'inga nisbatan (*қовун, совун*) saqlangan, oldingi bo'g'inda "a" yoki "u" bo'lgan holatlar yangi qoidadan tushirib qoldirilgan.

1956-yilgi imlo qoidalarida *ош-оша, соз-созай, ёш-ёшла* kabi so'zlarda talaffuziga ko'ra *o* yoki *ë* yozilishi, ammo *онг, ёш, от* kabi bir bo'g'inli ba'zi so'zlarda yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda, "o" tovushi "a"ga, "ë" tovushi "я"ga aylanishi aytilgan: *онг>англа, ёш>яша, от>ата* kabi. 1995-yil imlo qoidalari to'plamida bu qoida berilmagan.

1956-yilgi imlo qoidalarining 40-§da *исимоқ, ачимоқ, қотмоқ* kabi fe'llardan sifat yasalganda, ba'zan o'zakdagi *с, ч* va *т* undoshining takrorlanishi va shunga muvofiq yozilishi qayd etiladi: *иссиқ, аччиқ, қаттиқ* kabi. Shuningdek, *фан* so'ziga *-ий* qo'shib yasalgan sifat ham ikki *н* bilan yozilishi aytilgan: *фанний* kabi. 1995- yilgi imlo qoidasida bu haqda fikr yo'q.

1956-yilgi imlo qoidasida bor bo'lgan quyidagi qoidalar ham 1995-yil to'plamida yo'q: *ёз, кел, тер, қузат, келтир* kabi undosh bilan tugagan fe'l o'zak-negizlariga *-ув + -чи, -ув + -чилик, -ув + -чан* qo'shimchalari qo'shib, yangi so'z yasalganda, bu qo'shimchalar -

увчи, -увчилик, -увчан shaklida *в* bilan yoziladi: *ёзувчи, келувчи, терувчи* kabi. (41-§)

Familiyani bildiruvchi qo'shimchalar undosh bilan tugagan kishi otlarga *-ov, -ova* shaklida: *Азизов*. Unli bilan tutagan otlarga esa *-ев, -ева* shaklida: *Солиев* kabi qo'shilib yoziladi. (49-§)

Yangi imlo qoidasida jiddiy o'zgarishlar bilan berilgan qoidalar ham mavjud. Masalan:

Kirillcha o'zbek orfografiyasida "-ук" (-ик) qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi imloda esa esa bu qo'shimchani yozuvi haqida shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga *-uq* qo'shimchasi qo'shiladi: *uzuq, yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchiriq* kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida "*i*" aytiladi va shunday yoziladi.

Yangi imloda egalik qo'shimchalari bilan bog'liq qoidalar ham mavjud. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosida egalik qo'shimchalarini me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q. Bu hol ayrim grammatik formalarning yozuv amaliyotida turlicha ifodalanishiga (*орзум, орзуйим, иншонг, иншойинг* kabi) sabab bo'lmoqda. Yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa bu holatlar hisobga olingan. Unda shunday qoida berilgan: "o, o', i, e" unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari o'z holida tovush ortirmay qo'shiladi: *onam, onang, onasi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir "u" tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga *-yi* shaklida, *xido, mavzu* so'zlarida *-si* shaklida qo'shiladi: *parvoyi, xudosi, mavzusi* kabi; "y" undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda *-si* qo'shiladi: *dohiyisi* kabi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *овул, қувур* so'zlarida "в"dan so'ng "у", *шовилламоқ, ловилламоқ, гувилламоқ* kabi so'zlarda esa "в"dan so'ng "и" yoziladi.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan, bu qoidaga ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham "v"dan so'ng "u" yoziladi: *lovullamoq, gurullamoq* kabi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosida fe'llarning orttirma daraja yasovchi "-дир" qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga *-тир* shaklida qo'shilishi qayd etilgan, aslida esa jarangli "з"dan so'ng "-тир" emas, "-дир" qo'shiladi. Masalan: *чўмилтирмақ, севинтирмақ*, ammo *томиздирмоқ, оқиздирмоқ* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berilgan. Unda shunday qoida bor: "nisbat shaklini yasovchi *-dir* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zi bundan mustasno), *g* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi: *quvdir, edir, kuldир, yondir* kabi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosida "Ғ" yoki "г" bilan tugagan so'zlarga "г" bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: *боққа, баркка*. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa bunday so'zlar talaffuziga ko'ra emas, morfemalarning asl holiga mos ravishda yoziladi: *bog'ga, tog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

1956-yilgi imlo qoidalarining 43-paragrafiga ko'ra "-гин", "-гир", "-гиз", "-газ" qo'shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda aytilishiga muvofiq yoziladi: *топкин, тушкин, тортқиз, 'тказ, 'ткир, чонқир* kabi. Yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra "-гин" qo'shimchasi "-k" yoki "-q" bilan tugagan so'zlardan boshqa so'zlarga qo'shilganda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **g**

aytilishidan qat'i nazar, "g" bilan yozilishi aytilgan. Qiyos qiling: *морткун* (1956-yil qoidasiga ko'ra), *tortgin* (1995-yil qoidasiga ko'ra). Biroq, "-gir", "-gaz", "-giz" qo'shimchalari bu qoida ichida berilmagan.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlo qoidalarida ikki otdan tuzilgan qo'shma sifatning ajratib yozilishi aytilgan: *ҳаво ранг, қўй кўз* каби. Qo'shma sifatlar imlosiga oid bu qoida amalda o'zini oqlagani yo'q: *оромбаху, илҳомбаху* so'zlari qo'shma sifat bo'lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug'atlarida qo'shib yozilgan, *девсифат, одамсифат* so'zlari esa lug'atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlo qoidalarida bu tipdagi qo'shma sifatning imlosi tartibga solingan. Bu qoidaga ko'ra *xona, poma, baxsh, rang, sifat* qo'shma so'zlari qushib yoziladi. Bu qoidaga ko'ra *havo rang, jigar rang, bodom qovoq, qo'y ko'z* qo'shma sifatlar qismlari ham lotincha o'zbek yozuvida qo'shib yoziladi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra *минг боши, сўз боши* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so'zlar" sifatida ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa "qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar sifatida qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi*.

1956-yilgi imlo qoidalariga ko'ra ikkinchi komponenti "yo" lashgan tovush bilan boshlangan *шер юрак, муз ёрап, қўл ёзма* tipidagi so'zlar ajratib yoziladi. Lotin grafikasidagi yangi yozuvda bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *sheryurak, muzyorar, qo'lyozma*.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *еру осмон, ору номус, туну кун, кечаю кундуз, ёшу қару* kabi juft so'zlarda defis (chiziqcha) qo'yilmaydi. Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra ham bunday so'zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida -u(-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi: *yer-u osmon, or-u nomus, tun-u kun, kecha-yu kunduz, yosh-u qari*.

Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra yil va oylarni ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha (defis) yozilmaydi:

1945 йил 9 май kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra bunday o'rinlarda chiziqcha qo'yiladi: 1945-yil 9- may.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *alla*, *qay* elementlari so'zga qo'shib yoziladi: *аллаким*, *алланима*, *қайвақт* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *qay* so'zi o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *qay kuni*.

Yangi imloda *alla* komponentli so'zlarga qoida berilmagan.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *бир оз* ravishi komponentlari ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra bu so'z qismlari qo'shib yoziladi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosida *кўндан-кўн* tipidagi juft so'zlar doirasida chiziqcha bilan yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p*, *tekindan tekin* kabilar ajratib chiziqchasiz yoziladi.

Kirillcha o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlar (*нуқтаи назар*, *ойнаи жаҳон*, *дарди бедаво*) ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida izofa undosh bilan tugagan so'zlarga "i" shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga esa "yi" shaklida qo'shiladi. Masalan: *nuqtayi nazar*.

Kirillcha o'zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalarining 69-va 71-paragraflari bir xil hodisaning birikmali nomlarini ikki xil yozishga yo'l qo'yadi: birikma **muhim yig'ilish nomi bo'lganda**, undagi har bir so'z bosh harf bilan, birikma **muhim tarixiy voqea nomi bo'lganda** esa undagi birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan boshlanadi: *Қрим Конференцияси* (muhim yig'ilish nomi) - *Қрим конференцияси* (muhim tarixiy voqea nomi).

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan, unga ko'ra "**Muhim tarixiy**

sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi”: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni*. Koʻrinadiki, lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaga oʻzgartirish kiritilgan.

Yangi imloning "**Boʻgʻin koʻchirish qoidalari**"da rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

1. Oʻzlashma soʻzlarning boʻgʻinlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha koʻchiriladi:

a) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;

b) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga koʻchiriladi: *silin-drik*.

2. Boʻgʻinga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga boʻlib koʻchirilmaydi: *ToshDU* kabi.

3. Harflardan iborat shartli belgi oʻzi tegishli raqamdan ajratib koʻchirilmaydi: *10-"A" guruh* kabi.

4. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga koʻchirilmaydi: *"Navroʻz-95"* kabi.

5. Bosh harfdan tashkil togan qisqartma ismlar familiyadan ajratib koʻchirilmaydi. Masalan: *I.Karimov*. Shuningdek, *v.b.* (va boshqalar), *sh.k.* (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi soʻzdan ajratib koʻchirilmaydi.

Xullas, avvalgi va yangi imlo qoidalari oʻziga xos farqlovchi belgilarga ega. Imlodagi barcha oʻzgarishtirishlar uni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijasidir.

1993-yilda yangi oʻzbek yozuvining tatbiq etilishi u bilan bogʻliq imlo qoidalarini oʻrganishni hayotiy ehtiyojga aylantirdi. Bu ehtiyojni qondirishda imlo lugʻatlarining oʻrni beqiyos.

Sir emaski, keyingi yillarda yangi imlo qoidalariga asoslangan soʻzlik lugʻatlar koʻplab nashr etilmoqda. Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyevlar tomonidan tuzilgan «**Oʻzbek tilining imlo lugʻati**» (Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.), M.Yoʻldoshevning «**Dolzarb lugʻati**»



(Toshkent, «Yozuvchi», 1998.), T.Togʻayev va boshqalarning «Oʻzbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lugʻati» (Toshkent, «Sharq», 1999) hamda Oʻzbek tilining imlo lugʻati» (tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Mirvaliyev. –Toshkent: Akademnashr, 2013) shular jumlasidandir.

Ushbu lugʻatlardagi baʼzi soʻzlarning yozilishidagi nomutanosibliklar oʻquvchining yangi imloni mukammal oʻzlashtirishiga toʻsqinlik qilishi tayin. Buni lugʻatlardan olingan quyidagi daliliy misollar tahlilida ham kuzatishimiz mumkin.

Maʼlumki, kirillcha-oʻzbekcha alifbo asosidagi imlo qoidasiga muvofiq ikkinchi qismi *e, ě, ю, я* harflari bilan boshlangan qoʻshma soʻzlar ajratib yoziladi. Mana shu qoida asosida S.I.Ibrohimov, E.A.Begmatov va A.A.Ahmedovlar tomonidan tuzilgan «**Oʻzbek tilining imlo lugʻatida**» (1976) *yer yongʻoq, bir yoqlama, bir yuzlama, ikki yuzlama* soʻzlari ajratilib yoziladi, ammo *ikkiyoqlama* soʻzi negadir qoʻshib yoziladi.<sup>11</sup>

Lotincha-oʻzbekcha alifbodan *я, ě, ю, e* grafemalari oʻrin olmagan uchun yangi imlo qoidasida ular qatnashgan soʻzlarning imlosi haqida fikr yuritilmagan. Bu esa ikkinchi qismi bu harflar bilan boshlanadigan soʻzlarni yangi alifboda qoʻshib yoki ajratib yozishda turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat yangi imlo lugʻatlarida ham oʻz aksini topmoqda. Masalan, Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyev tomonidan tuzilgan lotin alifbosiga asoslangan «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»da *ikkiyoqlama, ikkiyuzlama* soʻzlari qoʻshib yozilsa, yozilish mohiyati bu soʻzlarga oʻxshash boʻlgan *bir yoqlama, bir yoqli* qoʻshma soʻzlari esa ajratilib yozildi.<sup>12</sup> Agar bu oʻrinda *bir yoqlama, bir yoqli* soʻzlarining imlosida 60-qoidaga rioya qilingan deb hisoblansa, (bu qoidaga muvofiq *bir* soʻzi oʻzidan keyingi yoki oldingi soʻzdan ajratib yoziladi) unda nima uchun bu qoidani *ikki* soʻzining birikuvidan yasalgan qoʻshma soʻzlarga ham tatbiq etish mumkin boʻlmaydi? Shuningdek, bu oʻrinda imlo

<sup>11</sup> S.I.Ibrohimov, E.A.Begmatov, A.A.Ahmedov. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. –T., 1976. –B. 74, 76, 152, 185.

<sup>12</sup> Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –B. 54, 96.

qoidasida qayd etilgan *birpas, biroz, birato'la, birbarakayiga* soʻzlarining qoʻshib yozilish sababi sharhlanishi maqsadga muvofiq.

Yangi imlo qoidalarida *-ga, -gacha, -gach, guncha -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qoʻshimchalarining imlosi aniq koʻrsatib berilgan (37-qoida), ammo *-gi* qoʻshimchasining yozilishi qoidasi alohida bandda berilmaganligi sababli bu qoʻshimchaning yozilishida har xillik koʻzga tashlanmoqda. Xususan, «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»da maʼlum bir soʻz *ertalabgi* tarzida<sup>13</sup> yozilgan boʻlsa, M.Yoʻldoshevning «Dolzarb lugʻat»ida bu soʻz *ertalabki* tarzida beriladi<sup>14</sup>.

**И** harfi yangi alifbodan oʻrin olmagan, biroq u qatnashgan soʻzlarning lotincha-oʻzbekcha imlosida ham ayrim xatoliklar uchrab turmoqda. Xususan, «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»da *publitsistika* soʻzi bir oʻrinda *publitsistika* tarzida (172-bet) yozilsa, *adabiy-publitsistika* soʻzi tarkibida *publitsistik* tarzida beriladi. «Dolzarb lugʻat»da esa **ts** tovushli soʻzlarning yangicha imlosiga hatto rioya qilinmaydi. Lugʻatda *kontsert-kontsert* (30-bet), *aviatsiya-aviatciya* (4-bet) soʻzlarida undoshdan soʻng kelgan **и** harfining lotincha-oʻzbekcha alifboda berilishida xatolikka yoʻl qoʻyilganligining guvohi boʻlamiz. Ayni lugʻatda *militsiya* soʻzi *melisa* tarzida berilgan boʻlib, uning qanday imlo qoidasiga koʻra yozilganligi oʻquvchiga qorongʻu. Biroq bu soʻz yuqorida qayd etilgan «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»da *militsiya* tarzida berilgan. (138-bet).

Shuningdek, yangi imlo qoidasining 63-bandida «yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan birikmalarning ajratib yozilishi» qayd etilgan. «Dolzarb lugʻat»da bu qoidaga ham rioya etilmaydi. Buni *guldan-gulga* (15-bet), *kundan-kunga* (31-bet), *ogʻizdan-ogʻizga* (43-bet) soʻzlarining yozilishida ham kuzatish mumkin.

Ushbu lugʻatda **ъ** belgisi qoʻllangan soʻzlarning yangicha imlosi yuzasidan ham ayrim nomutanosibliklar koʻzga tashlanadi. Masalan,

<sup>13</sup> Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. –T.: Oʻqituvchi, 1995. –B. 75.

<sup>14</sup> Yoʻldoshev M. Dolzarb lugʻat. Toshkent: Yozuvchi, 1998. –B.73.

**pod'yezd** (45-bet), **s'yezd** (52-bet) so'zlarida **ъ** belgisi o'rnida tutuq belgisi qo'llanadi, «O'zbek tilining imlo lug'ati»da esa bu so'zlarda tutuq belgisi qo'llanmaydi: **syezd** (210-bet)

Ajablanarlisi, «Dolzarb lug'at»da **iyul**, **iyun** so'zlari so'nggida tutuq belgisi qo'llanganki (*iyul'*, *iyun'* (26-bet), bunday holatda ham muallifning o'zbek tilining qaysi imlo qoidasiga asoslanganligi kishini o'ylantiradi. Mazkur lug'atda hatto kirillcha-o'zbekcha alifboga asoslangan imlo qoidalariga ham rioya qilinmaganligi o'quvchini yanada chalg'itib qo'yadi. Bu holat *yeryong'oq* (19-bet), *oynaijahon* (41-bet), *toshyo'l* (58-bet) so'zlarining yozilishida ko'zga tashlanadi.

So'zlar imlosidagi bunday noqisliklar o'quvchining yangi imloni o'zlashtirishiga salbiy ko'rsatishi, ularni chalg'itishi, ikkilantirishi turgan gap. Bu esa lug'at tuzish ishiga jiddiy yondashuvni, mavjud lug'atlarni yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi. Zero, har bir imlo lug'atlarimiz millat savodxonligini ta'minlashga, uning ravnaqiga xizmat qilmog'i lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Orfografiya nimani o'rganadi?
2. Orfografiya qoidalari qanday tamoyillarga asoslanib tuziladi?
3. Avvalgi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari qanday bo'limlardan tashkil topgan?
4. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qanday bo'limlardan tashkil topgan?
6. Avvalgi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlosidagi qaysi qoidalar yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari sirasiga kiritilmagan?
7. Avvalgi (kirillcha) o'zbek yozuvi qoidalari yangi (lotincha) imlo qoidalaridan qanday xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?
8. Kirillcha o'zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalari va yangi (lotincha) imlo qoidalarida bosh harflar imlosiga oid qanday farq kuzatiladi?

9. Kirillcha yozuvga asoslangan imlo hamda yangi (lotincha) imlo qoidalarida asos va qo‘shimchalar imlosiga oid qanday farq kuzatiladi?

10. Kirillcha yozuvga asoslangan imlo hamda yangi (lotincha) imlo qoidalarida chiziqcha bilan yozish qoidasida qanday farq bor?

11. Kirillcha yozuvga asoslangan imlo hamda yangi (lotincha) imlo qoidalarida qo‘shma so‘zlar imlosiga oid qanday tafovutlar ko‘zga tashlanadi?

**4-MAVZU: YANGI ALIFBO VA JORIY IMLO  
QOIDALARIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR  
(2 soat)**

<i>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: kishi</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)</i>
<i>Ma'ruza mashg'uloti</i>	<b>Yangi alifbosi va joriy imlo qoidalaridagi mavjud muammolar</b>
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yangi alifbo bilan bog'liq muammolar.</li> <li>2. Joriy imlo qoidalaridagi muammolar.</li> <li>3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga ba'zi tuzatish va qo'shimchalar kiritish zarurati.</li> </ol> <p>Xulosa.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Yuqoridagi reja asosida mavzuni mustahkamlash, talabalarning bilimini oshirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzularning mazmun-mundarijasini eslatish ;</li> <li>• tayanch tushunchalar ustida ishlash</li> <li>• ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.</li> </ul>	<i>O'quv faoliyati natijalari :</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• talaba mavzuning mazmun-mundarijasini eslaydi, bu mavzuga oid bilimini mustahkamlaydi;</li> <li>• talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari aniqlanadi, baholanadi.</li> </ul>
<i>Ta'lim berish usullari</i>	ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.

<i>Ta'lim berish shakllari va metodlari</i>	og'zaki, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	o'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proektor, doska, audevizual vositalar
<i>Ta'lim berish shartlari</i>	hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, mashq

### MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	1. Yangi alifboni isloh etishga doir qarashlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 2. Joriy imlo qoidalaridagi muammolar to'g'risida bilib oladi. 3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga ba'zi tuzatish va qo'shimchalar kiritish zarurati bo'yicha tushuncha hosil qiladi.	2.1. Yangi mavzuni eshitadi, mavzuga oid ma'lumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi va ularga munosabat bildiradi. 2.2. Mavzu yuzasidan savollar beradi. 2.3. Javoblarni

		to'ldiradi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	3.1.O'z-o'zini baholaydi.

### 1. Yangi alifbo bilan bog'liq muammolar

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (ToshDO'TAU) ishchi guruhining lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish borasidagi takliflari loyihasi internet tarmog'ida taqdim qilindi. Unda dastlabki loyiha sifatida alifbo sirasi quyidagicha bo'lishi ilgari surilgan:

A a («a») B b («b») C c («dj») D d («d») E e («e») F f («f») G g («g») H h («h») I i («i») J j («j» sirg'aluvchi) K k («k») L l («l») M m («m») N n («n») O o («o») P p («p») Q q («q») R r («r») S s («s») T t («t») U u («u») V v («v») X x («x») Y y («y») Z z («z») Ő ő (o') Ğ ğ («g'») Š š («sh») Č č («ch») Ń ń («ng» burun tovushi).

Ushbu taklifda joriy alifboga quyidagi o'zgartirishlar kiritish ko'zda tutilmoqda:

1) *jo'ja, jo'ra, jon, jahon, tijorat, rivoj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun **C c («dj»)** harfini olish;

2) *jurnal, ajdar, garaj, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirag'luvchi undoshni ifodalash uchun **J j («j»)** harfini belgilash;

3) harflar birikmasi bilan ifodalangan **sh, ch, ng** belgilarini birgina harf bilan yozish. Ya'ni: **Sh sh** o'rniga **Š š**; **Ch ch** o'rniga **Č č**; **NG ng** o'rniga **Ń ń** harflarini olish;

4) harf belgisiga ega bo'lgan **O'o'** o'rniga **Ő ő**; **G'g'** o'rniga **Ğ ğ** harflarini olish.

Taklif qilinayotgan alifbodagi jami harflar soni 30 ta, ularning 5 tasi qo'shimcha belgili harflarni tashkil etadi. Dunyo alifbolarining ba'zilarida qo'shimcha belgili harflar soni 10 tadan, hatto 20 tadan ortiq



uchrashi qayd etilib, 5 ta qo'shimcha belgili harf alifbo uchun ko'p emasligiga ishora qilingan.

Demak, alifboga 1 ta harf (**C c**) kiritish va 5 ta harfni o'zgartirish taklif qilinmoqda. Lekin ushbu fikr qabul qilinib, alifbo sirasida o'zgarish amalga oshguday bo'lsa, buning ortida qanchadan-qancha xarajat, mehnat, mashaqqat, ovoragarchilik kelishini taklif qiluvchilar ko'z oldiga keltira olarmikin. Birgina ta'lim bo'g'inlarida shu paytgacha joriy alifbo va imloda chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarini tasavvur qilaylik. 23-24 yil davomida nashr etilgan turli sohalardagi kitoblar-chi? Bularning hisobini kim oladi?

Fuqarolik holatlarini qayd etish hujjatlari, turli diplom yoki huquqiy merosxo'rlik, mulkchilikka daxldor hujjatlardagi yozuvlarda birgina harf mos kelmaslik tufayli paydo bo'ladigan g'alvalarni, insonlarning sarsongarchiligini e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Ta'lim nuqtai nazardan qaraganda, *jo'ja, jo'ra, jon, jahon, tijorat, rivoj* kabi so'zlardagi undoshni («**dj**»ni) ifodalash uchun **C c** («**dj**») harfini kiritish o'zini oqlamaydi. Chunki joriy alifboda ushbu so'zlardagi qorishish undoshni **J j** («**j**») harfi bilan yozib kelishga o'rganib, bunga ko'nikma qat'iy lashib ulgurganda, dabdurusdan boshqa harfga o'tib ketish, aksincha, chalkashlik keltirib chiqaradi.

Masalaning ta'limiy, iqtisodiy tomonidan tashqari ma'naviy jihati ham bor. Jahonda o'zbek xalqi kabi yozuvini eng ko'p o'zgartirgan, isloh qilgan boshqa xalqni topish qiyin bo'lsa kerak. Dunyoda ahli nazarida bu masalada betayinroq, beburdroq ko'rinib qolmayapmizmi? Chunki:

alifboni almashtirish 1928-, 1940-, 1993-yillarda bo'lib o'tdi, 65 yil ichida o'zbek alifbosi 3 marta boshqasiga o'zgartirildi;

alifbo va imlo islohoti 1921-, 1922-, 1923-, 1934-, 1995-yillarda amalga oshirildi, 74 yil ichida o'zbek alifbo-imlosi 5 marta tuzatildi. Yana isloh qilinsa, bu 6 nchisi bo'ladi.

Inglizlarning yozuviga qarasa, bir so'zdagi nutq tovushlari va ularni ifodalaydigan harflar ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi, ya'ni necha zamondan buyon bir narsani yozib, boshqa narsani talaffuz

qiladilar, lekin bu ularning yozuvlarini to'g'ri yuritish va savodxonligiga hyech to'siq bo'layotgani yo'q.

Sirasini aytganda, bizda joriy alifboni o'zgartirishga hyech qanday ehtiyoj, hojat yo'q. Dunyodagi biror xalq uchun qabul qilingan alifbolarning hyech qaysi shu til egasining nutq tovushlarini o'zida yuz foiz aks ettirmaydi, ya'ni mukammal bo'lmaydi. Bizning alifbo ham bundan xoli emas. To'g'ri, ayrim nutq tovushlarimizga (**ng'**) harf belgilanmagan, jo'ja va jurnal so'zlari boshidagi talaffuzi sal turlicha undoshlar uchun bitta harfdan foydalanamiz. Harf birikmalari (**sh, ch, ng**) o'rniga bitta harf, qo'shimcha belgili harflar (**O', G'**) o'rniga yaxlit belgili harflar bo'lgani afzal. Ammo joriy alifbomiz shularsiz ham xalqimizning ta'lim-tarbiya, savodxon chiqarish va oshirish, umuman, yozuv bilan bog'liq barcha yumushlariga zarur darajada bemalol yarab turibdi Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o'zgartirish kiritish bilan kelib chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## 2. Joriy imlo qoidalaridagi muammolar

Ishchi guruh loyihasida joriy imlo qoidalarini o'zgartirish, tuzatish va yangilarini qo'shish taklifi ham berilgan. «Masalan, sentyabrni sentabr tarzida, aktyorni aktyor shaklida yozish fonetik-orfografik qonuniyatlarning buzilishidir. Hozirga qadar rejissor, dirijor, budjet, sujet, oktabr tarzida yozib kelinayotgan ruscha-baynalmilal so'zlarni shaklan ma'lum bir qonuniyatga solish maqsadida *rejissyor, drijyor, byudjet, syujet, oktyabr* kabi yozishni qoidalashtirish joiz, bunday imlo o'qitish va o'rgatishni osonlashtirishi tabiiy» deb ko'rsatilgan.

Darhaqiqat, «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»da ayrim so'z va qo'shimchalar yozilishining qoidadan chetda qolgan holatlarini qoidalashtirish, ya'ni unga qo'shimcha kiritish g'oyat zarur. Rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida **yo, ya, yu, s** harflari bo'lgan ruscha va baynalminal ba'zi so'zlarning yozilishi qoidalashtirilmaganligi sababli bugungi kunda ayrim so'zlar nashr etilayotgan imlo lug'atlarida ikki xil berilmoqda: *rejissor – rejissyor, komputer – kompyuter, valuta – valyuta,*

*kostum – kostyum, sentabr – sentyabr, flaga – flyaga* kabi. Bu kabi soʻzlarning bir xil yozilishini taʼminlovchi qoida kiritish zarur. Sohaga aloqador jamoatchilikning koʻpchiligi imloda qulaylikni eʼtiborda tutib, tilimizga oʻzlashgan ruscha va u orqali yevropacha soʻzlari tarkibidagi **ë, ю, я** harflarini lotin alifbosi asosidagi oʻzbek imlosida hamma oʻrinda ikki harf: **yo, yu, ya** harflari bilan (yaʼni: kostyum, flyaga, oktyabr, rejissyor va sh.k.) yozish tarafdori ekan, buni qabul qilish toʻgʻri boʻladi.

Ammo shuni aytish kerakki, ishchi guruh takliflarida koʻrsatilgan baʼzi fikrlarga qoʻshilib boʻlmaydi. Masalan, joriy imlo qoidalaridagi 37-qoidaning 3-bandiga qarshi chiqilgan. Koʻrsatilishicha, «bogʻga tarzida yozish qoidalashtirilgan, boshqa oʻrinlarda esa qanday talaffuz qilinsa, shunday yozish tavsiya qilingan, yagona tamoyil buzilgan». Aslida, ushbu imlo qoidasi juda tushunarli, toʻgʻri va mukammal.

Shuningdek, 63-qoidaga ham eʼtiroz bildirilgan. Bu shunday bayon qilinadi: «Ajratiy yozish qoidalarida ham ayrim bahsli oʻrinlar bor. Masalan, yildan-yilga, koʻpdan-koʻp, yangidan-yangi kabi bir soʻzga aylanib ulgurgan birliklarning chiziqchasiz ajratib yozilishi qoidalashtirilgan. Bu kabi qoidalar maqsadga muvofiq emas, albatta».

Bu oʻrinda shunday savol tugʻiladi: yuqoridagi kabi birliklarni chiziqchasiz ajratib yozilishi qoidalashtirilgan va bunga 24 yildan beri amal qilinib kelayotgan ekan, kishilarda bu borada yozuv koʻnikmalari shakllanib boʻlganda, ularni endi boshqa qoidaga koʻra yozishga oʻtish oʻzini oqlamaydi. Ortiqcha xarajat, ovoragarchilik keltiradi, xolos.

Oʻzbek lotin alifbosidagi imloda kirill alifbosidagi **я** harfini berish maʼlum bir muammolar va yozuvda har xilliklarni keltirib chiqarmoqda.

Prof. Sh.Rahmatullayevning «Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi» (-Toshkent, 1999) qoʻllanmasida oʻzbek alifbosidagi **я** harfi oʻrnida oʻzbek lotin alifbosida qaysi harf(lar) yozilishi shunday tavsiya qilingan:

a) soʻz oxirida, soʻz boshida, old qoʻshimchadan keyin, undoshdan keyin **s** harfi yoziladi: *kvars – kvars, shprints – shpris, sellofan – sellofan,*

*silindr – silindr, antitsiklon – antisiklon, konstitutsiya – konstitutsiya* kabi;

b) boshqa hollarda unidan keyin **ts** yoziladi: *glitsirin – glitsirin* (to'g'risi: *glitserin*), *gerbitsit – gerbitsit* (to'g'risi: *gerbitsid*), *konstitutsiya – konstitutsiya* kabi.”

O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlanib, chop etilgan «O'zbek tilining imlo lug'ati»da (tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Mirvaliyev. –Toshkent: Akademnashr, 2013) bu masala biroz boshqacha hal qilingan. E.Begmatov va A.Madvaliyev yuqoridagi tavsiyaning a) qismidagi «...old qo'shimchadan keyin... s harfi yoziladi: antisiklon» deb ko'rsatilgan qoidaga va imlo lug'atida so'zlarning shu asosda yozilishiga qo'shilmaydi. Ularning fikricha, «chunki hozirgi kunda «xalqaro terminelementlar» deb ataluvchi va ko'pincha old qo'shimcha (prefiks) maqomida keluvchi *anti-, bi-, bio-, geo-, de-, mono-, poli-* kabi birliklar, asosan, unli tovush bilan tugaydi, ulardan keyin keladigan va s harfi bilan boshlanadigan birliklar, ular xoh mustaqil so'z bo'lsin, xoh affiks, o'zbek lotin alifbosida ts harflari bilan yozilishi kerak bo'ladi. Sababi, yuqoridagi kabi yasama so'zlarning ikkinchi komponenti boshida keladigan s harfi (tovushi) endi ikki unli o'rtasida kelmoqda va bu holat (Sh.Rahmatullaev ko'rsatgan) «boshqa hollarda unidan keyin ts yoziladi» degan tavsiyaga muvofiq keladi» degan fikrni bildiradilar. Shundan kelib chiqqan holda lug'atda bunday so'zlarni ts bilan yozishni taklif qiladilar va yozadilar: *antitsiklon, biotsikl, bitsikl, bitsilindr, geotsentrik* kabi.

Bizningcha, bu fikrga va so'zlarning bunday yozilishiga qo'shilib bo'lmaydi. Hyech qaysi o'zbek bu so'zlardagi ts birikmasini o'zga til talaffuzi bilan s tarzida – yagona tovush sifatida aytmaydi, balki yozuvda ko'rganiga muvofiq (asosan) **t** ni alohida, **s** ni alohida o'qishga majbur bo'ladi: *antit-sik-lon, biot-sikl, bit-sikl, bit-silindr, geot-sentrik* kabi. Oqibatda bu kabi so'zlarning g'ayritabiiy talaffuzi hosil bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchini chalkashtiradigan, so'zlarning o'zbekcha talaffuz

me'yorlarini buzadigan, tilimiz tabiatiga yot bo'lgan tavsiyalarni yoqlab bo'lmaydi. Bu tavsiyalar mahsuli imlo lug'atlaridan joy olgach, majburiylik maqomini da'vo qiladiki, ular tufayli lug'at tuzuvchilari tuzatmoqchi bo'lgan imlomizdagi «har xillik», aksincha, yana ko'payganini ko'ramiz. Shuning uchun Sh.Rahmatullaevning s uchun tavsiyalarini, xususan, «...old qo'shimchadan keyin... s harfi yoziladi: antitsiklon...» tavsiyasini butunicha qoida uchun qabul qilish va tegishli so'zlarni ularga amal qilgan holda yozish to'g'ri deb hisoblaymiz: biosikl, bisikl, bisilindr, geosentrik kabi.

### 3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga ba'zi tuzatish va qo'shimchalar kiritish zarurati

Imlodagi turlilikka barham berish uchun joriy imlo qoidalariga ba'zi tuzatish va qo'shimcha qoidalar kiritish lozim. Masalan:

1. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ning «Asos va qo'shimchalar imlosi» qismidagi 37-qoidaning 1) bandi uchun berilgan imlo qoidasi nomukammal chiqqan. Shunday qoida yozilgan:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa** (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;

Ammo tilimizda shov, lov, gur kabi so'zlar bilan bir qatorda **viz, vish, vaq, var, vang, vag', vosh** singari tarkibida v undoshi bo'lgan ko'plab taqlid so'zlar ham uchraydi. Ushbu so'zlarni yuqoridagi qoidaga muvofiq vizullamoq, vishullamoq, vaqullamoq shaklida yozib bo'lmaydi. Albatta, **viz, vish, vaq** singari taqlid so'zlarga fe'l yasovchi -illa qo'shilganda, asliga muvofiq yoziladi: vizillamoq, vishillamoq kabi. Shu sababli ushbu holat uchun berilgan imlo qoidasini quyidagicha tuzatish lozim:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-illa** (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida u tovushi bo'lganda yoki so'z v tovushi bilan tugaganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: *gurulla, shovulla, lovulla* kabi.

2. Imlo qoidalarining 58-moddasida ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yozilishi, lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yozilishi ko'rsatilgan: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi. Ammo, aytish kerakki, tovush o'zgarishi yuz berganda, *ekan* to'liqsiz fe'lining o'zidan oldingi so'zga (mustaqil fe'lga) hamisha *-kan* shaklida qo'shib yozilishi qat'iy qoida bo'lolmaydi. Chunonchi, mustaqil fe'l so'roq mazmunida kelib, **-di** (o'tgan zamon fe'li) qo'shimchasi bilan tugagan bo'lsa, unga *-kan* shaklini qo'shib bo'lmaydi: Masalan, *qachon ko'rdikan* deb aytish ham, yozish ham mumkin emas. Uning (*-kanning*) oldidan bir **u** orttirib, *qachon ko'rdiykan* yoki *qachon ko'rdiykin* shaklida aytish va yozishga majbur bo'lamiz va bu to'g'ridir. Umuman, *edi, ekan, emish* to'liqsiz fe'llarining mustaqil fe'lga qo'shib yozilishiga oid qoidani tuzatish va mukammallashtirish zarur. Undan oldin **-mi** so'roq yuklamasi kelganda (mas., *borormi ekan, bilarmi ekan*) bu so'zning talaffuzi o'zgarishi, ya'ni uning tarkibidagi **a** unlisi **i** aytilishi uchraydi (mumkin): *borarmikin, bilarmikin* kabi. Fikrimizcha, mana shunday aytilganicha yozishni ham qoidalashtirish zarurati bor (yozish qoidalashtirilsa, to'g'ri bo'ladi). Sababi uni *borarmikin, bilarmikin* tarzida aytish va yozish bilan *borarmikan, bilarmikan* tarzida qo'llash orasida muallifning ob'ektga munosabatini farqlaydigan holat mavjud.

3. So'zga ikki yuklama qator qo'shilishiga to'g'ri kelsa va har ikki yuklama ham yangi imlo qoidasiga ko'ra chiziqcha bilan ajratib yozilsa (55-qoida), qanday yo'l tutish lozim? Masalan: *Men boraman-ku-ya, siz kelmaysiz-da-a?* singari qoida bo'yicha, **-ku va -ya, -da va -a** yuklamalarining har ikkovini chiziqcha bilan ajratib yozgan ma'qulmi yoki birinchi yuklamani so'zga qo'shib: *boramanku-ya, kelmaysizda-a?* tarzida yozgan durustmi? Bu masalalarda ham aniqlikka erishish zarur.

4. Imlo qoidasidan chetda qolgan yana bir holat bor va buning to'g'risi qanday yozilishini imlo lug'atlarida ham ko'rsatib bo'lmaydi. Ya'ni ayrim yuklamalarning so'zlarga qo'shilganda, o'zak tarkibining o'zgarishidir. Masalan, so'roq, ta'kid, taajjubni bildiruvchi **-a, -ye, -ey**



yuklamalari q undoshi bilan tugaydigan soʻzlarga qoʻshilganda, bu undosh talaffuzda **gʻ ga, k** undoshi bilan tugaydigan soʻzlarga qoʻshilganda esa, **k** undoshi **g** ga oʻzgaradi va shunday yoziladi: *yoʻq+a=yogʻ-a, yoq+e=yogʻ-e, tasadduq+ey=tasaddugʻ-ey; kordik+a=kordig-a, ketdik+ey = ketdig-ey* kabi.

«Voy, suzuk koʻzlaringga Otika opang tasaddugʻ-ey. (M. Ismoiliy. Qizlar daftari. 71-bet)

5. Yozuv amaliyotida ham (ham) yuklamasining qisqargan shakli oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshib yoziladi: *biram, yosham, qariyam, bittayam, shunaqayam, koʻrsayam, oldiyam.*

Koʻrinadiki, agar soʻz undosh bilan tugagan boʻlsa, ham koʻmakchisining birinchi tovushi (harfi) tushirib, oldingi soʻzga qoʻshiladi: hecham-da (hech ham-da). Biram koʻrgim keldi. Yosham oʻtib boryapti. Agar soʻz unli bilan tugagan boʻlsa, ham koʻmakchisining birinchi tovushi oʻrniga u harfi yoziladi: koʻrsayam koʻrmaslikka oldi, Shunaqayam boʻladimi kishi. Bu holat ham imlo qoidalari ichida oʻz ifodasini topsa, yaxshi boʻlardi.

Yuqorida bayon qilinganlardan umumiy **xulosa** quyidagicha:

- 1) joriy alifboni oʻz holicha qoldirish, uni oʻzgartirmaslik lozim;
- 2) joriy imlo qoidalaridagi baʼzi kamchiliklarni tuzatish kerak;
- 3) imlo qoidasidan chetda qolgan holatlar uchun imlo qoidalari ishlab chiqish va 82 ta qoida ortidan qoʻshish zarur.

Umuman, imlo qoidalaridagi bunday hodisalar talqiniga chuqurroq yondashish, imloning ayrim masalalarini tadqiq qilish va oʻrinli taklif va tavsiyalarni inobatga olish va imloda aks ettirish yozuv madaniyatimizni takomillashtiradi.



## **5-MA'RUZA: O'ZBEK PUNKTUATSIYASI TARIXI. O'ZBEK YOZMA NUTQIDA TINISH BELGILARINING QO'LLANILISHI**

**(2 soat)**

### **Reja:**

1. Jadid ma'rifatparvarlari darslik va qo'llanmalarida tinish belgilarining izohlanishi.
2. Punktatsiya (tinish belgilari) tushunchasi, ularning turlari (shakllari).
3. Hozirgi o'zbek yozma nutqida tinish belgilarining qo'llanilishi.

### **Adabiyotlar:**

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. –T.: O'qituvchi, 1976. 36-b.
2. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi, –T.: Universitet, 1996, 39- b.
3. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. –T.: Fan, 1974, 31-b.
4. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985-y., -B.81-97

### **1. Jadid ma'rifatparvarlari darslik va qo'llanmalarida tinish belgilarining izohlanishi**

Ma'lumki, o'zbek punktuatsiyasi tarixi uzoq o'tmishga va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Arab alifbosi asosidagi o'zbekcha qo'lyozmalarning eski namunalarida ham, Turkistonda litografik bosmaxonalar paydo bo'lmasdan oldin turli zamonlarda, turli joylarda nashr qilingan o'zbekcha bosma matnlarda ham tanish belgilari qo'llanib kelingan. Ular ko'p hollarda shakli va vazifasi jihatdan hozirgi tinish belgilaridan farq qilgan. Bu masalalar o'zbek punktuatsiyasiga tarixiga bag'ishlangan asarlarda o'z aksini topgan<sup>15</sup>.

O'zbekcha bosma matnlarda tinish belgilarining mukammallasha borishida XIX asr oxiri XX asr boshlarida ziyolilarimizning qardosh va

---

<sup>15</sup> Ғозиев Ғ. Ўзбек пунктуацияси тарихи. // Тўплам: Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари, ЎзССР ФА нашриёти, Тошкент-Наманган, 1959 йил, 71-192 бетлар; К.Назаров. Ўзбек тили пунктуацияси. «Ўқитувчи» нашриёти, Тошкент, 1976 йил. С.123.

qo'shni xalqlar bilan madaniy-adabiy aloqalarining orta borishi katta ta'sir ko'rsatgan. Rossiya ichkarisida bo'lgan bir muncha mutaraqqiy turkiy xalqlar: Qrim, Qozon, boshqird tatarlari nashrlarining, ozarbayjoncha, turkcha gazetalarning Turkistonda tarqalishi, o'zbek ma'rifatparvarlarining bulardan barhamand bo'lishi, rus adabiyoti namoyandalari asarlaridan, ruscha manbalardan tarjimalar qilib, adabiyot, tabiiy fanlarga oid maktab darsliklari yaratishda foydalanganliklari o'zbek punktuatsiyasi taraqqiyotida katta o'rin tutdi.

Yozuvimiz tarixida tinish belgilarini ishlatishni qoidalashtirish dastlab tilshunoslikka oid bo'lmagan asarlarda o'zining juda sodda ifodasini topdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning maktab o'quvchilari uchun Toshkentda 1906-yilda nashr etilgan «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Umumiy jo'g'rofiyadan saylanma kitob) darsligida ayrim tinish belgilariga berilgan dastlabki izohlarni uchratamiz.

Behbudiyning 1908-yilda Samarqandda nashr etilgan «Kitobatul-atfol» («Bolalar maktubi») darsligida ham alomati savol (?), alomati nido (!), alomati taajjub ( ! ), alomati mu'tariza ( < > ) kabi tinish belgilari ko'rsatilgan.

«Kitobatul-atfol»ning 1914-yilda chiqqan ikkinchi nashrida tinish belgilari («Rumuz»)ning o'ntasini uchratamiz.

Muhammadamin ibn Muhammadkarim hoji (Faxriddinov)ning 1913-yilda chop etilgan «Turkcha qoida» asarini O'.G'oziyev o'zbek madaniyati tarixida grammatikaga oid kitoblar ichida birinchi bo'lib tinish belgilari qoidalari berilgan asar, muallifni esa shu harakatning boshlovchisi sifatida baholaydi<sup>16</sup>. Tadqiqodchi bu davrda nashr etilgan darslik va qo'llanmalarda tinish belgilarining qoidalashtirilishi to'g'risida fikr yuritir ekan, Behbudiy «Kitobatul-atfol»ining 2-nashrini hamda Ashurali Zohiriyning «Imlo»<sup>17</sup> risolasini tilga olmaydi. Zero, keyingi asar unda punktuatsiya qoidalari zamondoshlariga qaraganda bir qadar mukammalroq berilgani bilan ajralib turadi. Professor K.Nazarov

<sup>16</sup> O'sha manba.

<sup>17</sup> Ашурали Зоҳирий. Имло. Қозон, 1916 й.

«Imlo qo‘llanmasi» maqolasida A.Zohiriyning «Imlo» kitobi tinish belgilarining qo‘llanish qoidalariga bag‘ishlangan zamonidagi ishlar orasida o‘z mundarijasi va izchilligi jihatidan ancha ustun ekanligini ko‘rsatib bergan edi<sup>18</sup>.

Darhaqiqat, A.Zohiriyning boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan «Imlo» risolasi o‘zbek orfografiyasi bo‘yicha birinchi darslik kitobi bo‘lishi bilan birga, o‘zbek punktuatsiyasi bo‘yicha ham dastlabki qo‘llanmalardan biri hisoblanadi. Kitobning uchinchi qismi bevosita tinish belgilarining qo‘llanish qoidalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga shunday sarlavha qo‘yilgan: «Xatlar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari». A.Zohiriy o‘quvchilarni tinish belgilari mohiyati bilan tanishtirar ekan, unga shunday ta‘rif beradi:

«Xatlarni durust o‘qumoq va yozmoq, ham, so‘zni ba’zi yerda to‘xtatmoq; dovushni ba’zi yerda balandlatub va ba’zi yerda pastlatubroq chiqarmoqning some‘larg‘a ta’sir va tavhim to‘g‘risida ko‘b munosabati bordur. Shuning uchun xatlar orasida onlarg‘a doir bir xil ishoratlar qo‘yiladur. Onlarni: «ishorat va vaqf alomatlari» deyilur»<sup>19</sup>.

«Turkcha qoida» va «Imlo» kitoblari punktatsion tizimning berilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi. «Turkcha qoida»da tiredan boshqa 9 tinish belgisining nomi aytilib, ulardan 7 tasi mustaqil tinish belgilari sifatida alohida sarlavhalar bilan berilgan. Kitobda nuqta va nuqtali vergullar «Nuqta» sarlavhasi ostida izohlangan.

«Imlo» darsligida tinish belgilarining qo‘llanish qoidalari quyidagi tartibda izohlangan:

1. O‘n uchta ishorat va alomat muayyan tartibda berilgan: bu tartib nuqta ishorati bilan boshlanib, majhul (?) ishorati bilan tugallangan. Har bir tinish belgisi sanalganda: a) avval uning nechanchi ishorat ekanligi; b) so‘ng burchak xilidagi qo‘shirnoq ichida uning grafik shakli; d) keyin qavs ichida uning nomi ko‘rsatilgan.

<sup>18</sup> К.Назаров. «Имло қўлланмаси». Совет мактаби, 1977, 6-сон, 74-76-бетлар.

<sup>19</sup> А.Зоҳирий. «Имло», Қозон, 1916 й., «Умид» типо-литографияси, 28-бет.

1. Ishoratning qo'yilish qoidalari, nazariy tezislar va izohlar bayon etilgan.

2. Qoidalar uchun misollar, namunalar berilgan.

3. Tinish belgilarining ma'lum bir qismi ko'rsatilgach, qoidalarni mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar berib borilgan.

Ma'lumki, o'zbek yozuvi tizimida tinish belgilarining o'z taraqqiyoti va takomillashuvi bilan bog'liq ravishda qo'llanish doirasi, ishlatilish usuli, vazifasi kengayib borgan. Hozirgi o'zbek tilida punktatsion qoidalar me'yorlashib, tinish belgilari logik-grammatik, stilistik, differentsatsiya, qorishiq va an'anaviy-traditsion tamoyillar asosida ishlatiladi<sup>20</sup>. Tabiiyki, yozuvimizda tinish belgilari rivojining ilk bosqichlarida mavjud punktatsion qoidalar bunday talablarga to'liq javob bermaydi. Binobarin, «Imlo»da ham tinish belgilarining sodda qoidalashtiriluvi, izohlanishi, o'ziga xosligi darslikning boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallanganligi va o'z davri yozuv rivoji bilan bog'liq.

(A.Zohiriy «Imlo»da bayon qilgan o'n uch ishora va alomatlardan haqida **8-IIovada** qarang).

Fitrat «Nahv» asarida o'zbek tilida o'nta tinish belgisi borligini qayd etgan. Olim ularni turish belgilari deb ataydi. Ular quyidagilar:

. – to'xtash belgisi;

; – bir tinish belgisi;

, – yarim tinish belgisi;

? – so'rash belgisi;

! – undash belgisi;

: – qo'sh nuqta;

« ” – tirnoqlar;

() – yo'ylar;

– chiziq;

... – nuqtalar.

<sup>20</sup> К.Назаров. Ўзбек тили пунктуацияси, Тошкент, «Университет», 1996 й., 7-11 бетлар.

## 2. Punktuatsiya (tinish belgilari) tushunchasi, ularning turlari (shakllari)

PUNKTUATSIYA (*lot. punctum – nuqta; kichkina dog'*):  
1) alifbodan tashqari bo'lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo'lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi.

Punktuatsiyaning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me'yorlar; 3) Punktuatsiya tizimi konuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo'llanish me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.

Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktuatsiya) tizimidan iborat. Punktuatsiya tarixi, punktuatsion tizimniig paydo bo'lishi, tinish belgilarining soni turli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, punktuatsion tizim hozirgi ma'no va ko'rinishda G'arbiy Yevropa tillari yozuvlarida 15–16-asrlarda, rus yozuvida 18-asrda, o'zbek yozuvida esa 19 asrning 2-yarmida paydo bo'lgan. Punktuatsiyaning qo'llanishida ham tillararo tafovut bo'lishi mumkin.

Tinish belgilari gap va nutqning mazmun-mundarijasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan fonetik-fonologik vositalarni (ko'tariluvchi ohang, pasayuvchi ohang, to'liqlik ohang, to'liqlik ohang, sanash ohangi, pauza-to'xtam kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

a) ijtimoiy aloqani (fikrlashuv jarayonini) yozuvda to'g'ri ifodalash uchun;

b) maqsad, mazmun, ma'noni, uning o'zigan xos «rang» va «tus»larini yozuvda aniq aks ettirish uchun;

g) gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari) o'rtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;

d) yozma nutqning ixcham va ravonligini ta'minlash uchun;  
ye) yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun<sup>21</sup>.

O'zbek tilshunosligida tinish belgilarining quyidagi o'nta turi grafikaning markaziy tizimiga kiradi:

Nuqta.....	( . )
So'roq.....	( ? )
Undov belgisi.....	( ! )
Nuqtali vergul .....	( ; )
Ko'p nuqta (uch nuqta).....	( ... )
Vergul.....	( , )
Ikki nuqta (bayon belgisi) .....	( : )
Tire .....	( - )
Qavs .....	( )
Qo'shtirnoq.....	( « » )

Ushbu tinish belgilarining misra balandligiga nisbatan joylashishi har xil: nuqta, vergul, ko'p nuqta misraning pastki chizig'i bo'yicha qo'yib boriladi; qolgan belgilar, masalan, nuqtali vergul, undov belgisi, so'roq belgisi, ikki nuqta, qo'shtirnoq misraning ustki chizig'idan ostki chizig'igacha bo'lgan masofa hajmida yoziladi. Qo'shtirnoqning asosan qo'lyozmada qo'llanadigan turi so'z yoki gap boshida misraning ostki chizig'i bo'ylab, shu so'z yoki gap oxirida esa misraning ustki chizig'i bo'ylab joylashtiriladi.

### 3. Hozirgi o'zbek yozma nutqida tinish belgilarining qo'llanilishi

Nutqimiz ikki shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma.

Har ikki nutq shakli oldiga bir xil talablar qo'yiladi: fikrning aniq va tushunarli bo'lishi, jumlaning to'g'ri, ravon hamda ta'sirli qurilishi har qanday nutqning bosh fazilatidir.

<sup>21</sup> Бу ҳақда қаранг: К.Назаров. Ўзбек тили пунктуацияси. —Т.:Ўқитувчи, 1976. —Б. 7-8.

Og'zaki va yozma nutq ayrim holatlari bilan bir-biridan farq qilishini o'tgan darslarimizda ko'rib o'tdik. Shuningdek, atoqli otlarda qo'shtirnoq ishlatilishiga doir misollar bilan ham tanishdik.

Og'zaki nutq tovushlar orqali amalga oshiriladi. Og'zaki nutqda ohang, to'xtam (pauza) muhim mezonidir. Yozma nutqda esa mana shu ohang va to'xtamlar tinish belgilar yordamida ifoda etiladi. Solishtirib ko'raylik:

Ha. Ha? Ha!

Qaysar, boshliqqa ham gap qaytarasanmi?!

Qaysar boshliqqa ham gap qaytarasanmi?!

Ahmad, siz yomon odam emassiz!

Ahmad, siz yomon, odam emassiz!

Yaxshi, tashabbusni qo'llash kerak.

Yaxshi tashabbusni qo'llash kerak.

## I. NUQTA

### Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov gaplarning oxirida:

*Havo toza va salqin.*

*BMT Xavfsizlik Kengashi shu vaqtga qadar Suriya xususida bir kelishuvga erisholmay kelmoqda.*

2. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin:

*A.Q. (Abdulla Qahhor); A.Qod. (Abdulla Qodiriy); T. A. Ergashev.*

Ism va familiyalar qisqartmalari, odatda, qavs ichida beriladi. Bu holda qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o'z o'rnida saqlanadi. Qavsdan keyin biror tinish belgisi qo'yilmaydi:

*«Yaxshi kitob – aqlli odam bilan suhbat qurishning ayni o'zginasi. (A. T.)*

3. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalash uchun qo'llangan raqamlardan keyin: 1. 2. 3.



*Mana, bir misol. Fransiya va Shvetsiyaning qo'shma korxonasi paxtani qayta ishlashning yangi usulini topibdi. U besh bosqichdan iboratdir:*

1. *Chigitdan moy va kunjara olish.*
2. *Tolani qayta ishlab, sifatiga qarab ajratish.*
3. *Ip ishlab chiqarish.*
4. *To'qimachilik sanoati.*
5. *Tikuvchilik sanoati.*

4. Turli (ilmiy, adabiy, badiiy) asarlarning bob va paragraflarini ko'rsatishda:

- 1.2. Yuksak ma'naviyat – fuqarolik jamiyati barpo etish omili
- 1.3. Iqtisodiy islohotlar va ma'naviy o'zgarishlar uyg'unligi

## **II. So'roq belgisi**

1. So'roq belgisi so'roq mazmunidagi gaplardan so'ng qo'yiladi: Sinovlardan qanday o'tdingiz? Bu muammo qachon hal qilinadi?

2. Ko'pincha so'roq gaplar birdan ortiq bo'lib keladi. Bunday holda so'roq belgisining qo'yilishi quyidagicha:

a) so'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmunan o'ziga mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi:

*Komila so'zida davm etdi: «Ha, Jamol akam qanday? Toshkentdami?»*  
(O.)

b) Agar so'roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi:

- *Tag'in Toshkentdan mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi?*  
(G'.G'.)

3. So'z yoki ibora noaniq, o'rinsiz bo'lsa yoki undan gumon ifodalansa: *ovqatga tajovvuz (?) qilgandan so'ng, mehmonlar qo'llarini dasturxonga (!) artdilar.*

### III. Undov belgisi

#### Undov belgisi quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplarda so‘ng:

*Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin! Aziz do‘stlar! Hurmatli mehmonlar!*

2. Buyurish, tilak, orzu-istak ma'nolarini ifodalagan gaplardan so‘ng:

*Bu gapga boshqa qaytmaylik! Qani edi, bunday joylar bizda ham bo‘lsa!*

#### IV. Ko‘p nuqta fikrning tugallanmaganligini, so‘zlovchining yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko‘rsatish uchun qo‘yiladi:

*Rahmat do‘stim, ko‘nglim yangi yopilgan non hidini istayotgan edi, topib kelibsiz...*

### V. Nuqtali vergul

#### Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. O‘z ichida verguli bo‘lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarda:

*Ko‘cha iflos, lekin suv qalin sepilgan; har yoqqa tarvaqaylab o‘sgan beso‘naqay qari tollarning ko‘lankasi quyuuq.*

2. Xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oxiriga nuqtali vergul qo‘yiladi:

*Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:*

– mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi.

*Etikaviy muloqotning turlari:*

– boshqaruv etiketi;

- diplomatik etiket;
- harbiy etiket;
- umumfuqaroviy etiket;
- ishchi etiket;
- kasbiy etiket;
- rahbar etiketi kabilardan iborat.

## **VI. Vergul**

Vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

a) bog‘lovchisiz birikkan uyushiq bo‘laklar orasida:

*Qishloq, uning uning so‘lim bog‘lari, suhbat qurgan sodda odamlar, sharqiragan soy, sokin tunlar sira yodidan chiqmaydi.*

b) takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan bog‘langan uyushiq bo‘laklar orasida:

*Saodat goh men bilan, goh atlas bilan mashg‘ul, boyagi uyalib turishini bir yoqqa yig‘ishtirib qo‘ygan edi. (A. Qod)*

d) zidlovchi bog‘lovchilar birikkan uyushiq bo‘laklar va gaplar orasida:

*Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P.Q.)*

*Bu yerga rahbar bo‘lganiga uch yildan oshdi, lekin o‘zini ko‘rsata olmadi.*

2. Undalmalarni ajratish uchun:

*Do‘stlarim, mustaqillik haqidagi qo‘shiq qalbimizdan yangrasin!*

*Shu narsa yodingizda bo‘lsin, aziz farzandlarim, kelajagimizni o‘zimiz quramiz.*

*Ertaga yana ko‘rishamiz, og‘ayni.*

3. Kirish so‘zlarni va tuzilish jihatdan murakkab bo‘lmagan kirish gaplarni ajratish uchun:

*Albatta, bu masala bo‘yicha mas‘ul bo‘lgan tegishli idoralar bor, kuch-qudratimiz ham yetarli.*

*Taassufki, ba‘zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik ko‘zga tashlanmoqda.*

*Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi.*

*Ko'rinib turibdiki, moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi.*

*Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak.*

*Ta'kidlash joizki, o'shanda SSSR hududidagi respublikalar orasida birinchi bo'lib biz yurtimizni mustaqillik yo'liga boshlagan dastlabki qadamni qo'ygan edik.*

4. Gaplarning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun:

*Xonaga kirgan kishi, biz uni ilgari ko'rmagandik, bobom bilan quyug so'rashdi.*

5. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda:

*Siz otam o'rniga otalik qildingiz, sizdan hych yomonlik ko'rmadim. (M. Ibr.)*

6. Ergash gaplarni ajratish uchun:

*Agar ertaga kelajagimizni o'ylasak, yoshlarimizni kamolga yetkazishimiz shart.*

7. Muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish uchun:

*- Yonimizdan asov daryo oqib o'tadi, - dedi yigit, - suvi judayam sovuq.*

## **VII. Ikki nuqta**

Ikki nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng:

*Respublikaning barcha tabiiy boyliklari: paxta, metall, pilla, gaz, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni qayta ishlashni ko'paytirish lozim.*

*O'zbekistonning futbol bo'yicha ikkita terma jamoasi: o'n olti yoshgacha bo'lgan o'smirlar terma jamoamiz hamda yoshlar terma*

jamoamiz Osiyo qit'asining eng kuchli mamlakatlarining terma jamoalari bilan keskin kurashlarda g'alaba qozonishdi.

Yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq **ishlar**: o'quv jarayoni bo'lsin, madaniyat va san'at bo'lsin, jismoniy tarbiya bo'lsin – hammasiga qolgan-qutgan mablag'lar sarflandi.

2. Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa:

*Bu yil deqonchilikdan yaxshi xosil olinmadi: g'o'za ikkiquloq bo'lganda, ancha qismini do'l urib ketdi.*

3. Bir gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatsa:

*Akbarali g'oyat ustalik bilan yig'inni yakunladi: so'z kutib o'tirganlar hech nima deya olmay qoldilar.*

4. Agar bir gap boshqa gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa:

*Buning hozircha faqat bitta chorasi bor: ish o'rinlari yaratish lozim.*

Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng:

*Otasi qog'ozlarni uzatib dedi: - Yaxshilab tekshirib chiq.*

*Otasi qog'ozlarni uzatib dedi: «Yaxshilab tekshirib chiq».*

**Eslatma:** ba'zan umumlashtiruvchi so'z yashiringan bo'lishi mumkin, ammo ohang va mazmunga ko'ra uyushiq bo'laklardan oldin ikki nuqta qo'yilaveradi. Bu hol ish qog'ozlarida ko'p uchraydi.

#### **Masalan:**

Majlisga qatnashdilar: Sobir Jo'rayev, Farhod Aliyev, Komil Nabiyev, Dilorom Yusupova, Tolib Shokirov.

So'zga chiqdilar: Farhod Aliyev, Dilorom Yusupova.

### **VIII. Tire.**

Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalangan ega bilan kesim orasida. Bunda ular orasida -dir bog'lamasini bo'lmaydi:

*Yoshlar tarbiyasi, bu – o'ta qiyin va mas'uliyatli ish.*

*Toshkentning haqiqatan ham ajoyib o'tmishi bor. U – yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri. Uning tarixi – jahon tarixining bir qismi.*

*Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.*

*Ikki o'n besh – bir o'ttiz.*

*Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.*

*Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid.*

*Chunki bu hol har bir xalq uchun eng qimmatli narsaga – kelajakka bolta uradi.*

*O'zbekiston – ko'p millatli respublika.*

*Ona tili – millatning ruhi.*

2. So'zlar yoki sodda gaplar bir-biriga tenglashtirilganda, o'xshatilganda, izohlash yo'li bilan qiyoslanganda:

*Mazkur qonun Prezident – Davlat boshlig'i bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib konstitutsiyaviy vakolatlar taqsimotini ta'minlashga qaratilgandır.*

*Ayrim vakolatlar Prezidentdan Senatga – Parlamentimizning yuqori palatasiga va mamlakatimiz Vazirlar Mahkamasiga berilgan.*

*Respublikada oliy malakali mutaxassislar – fan doktorlari juda-juda yetishmayotganligi sezilmoqda.*

*Suv keldi – nur keldi.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin:

*Paxta, g'alla, pilla – bular mehnatkash xalqimizning peshana teri bilan bunyod bo'ladi.*

4. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda:

– *Qushlar qayoqqa ketishyapti?*

– *Qish bo'lmaydigan tarafdarga.*

## **IX. Qo'shtirnoq.**

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport

vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan qo'shtirnoq ichida yoziladi:

«Tong» (mehmonxona), «Saodat» (firma), «Navro'z» (xayriya jamg'armasi), «Kamalak» (matbaa birlashmasi), «G'uncha» (bog'cha), «Botanika» (sanatoriy), «Paxtakor» (stadion), «Qutlug'qon» (roman), «Dilorom» (opera), «Tanovar» (kuy), «Ozodlik» (haykal), «Jasorat» (yodgorlik), «Sino» (sovitkich) kabi.

2. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun:

«O'rtoq Ahmedov, – dedi O'rmonjon, – ertaga bayramoldi majlisimiz bo'ladi». (A.Q.)

Ayrim so'z va birikmalar ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin. Qo'shtirnoqqa olinga bu xil so'zlar ko'chma ma'noda yoki kinoya tarzida qo'llanishi, shartli nom yoki taxallus bo'lishi mumkin:

Biz o'shanda chetdagi «**maslahatchi**»larning «**dono kengashlari**»dan emas, balki xalqimizning xohish-irodasi, yurtimizdagi haqiqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda og'ir-vazminlik bilan, har tomonlama chuqur o'ylab siyosat olib bordik.

Ko'pchiligimiz Amir Temur qiyofasini sho'rolar davrida antropolog – haykaltarosh M. Gerasimov «**yaratgan**» qo'rqinchli byust orqali bilardik, xolos.

Afsuski, hukmron mafkuraning sobiq SSSR hududidagi barcha xalqlar madaniyatini «**yagona sovet madaniyati**» degan sun'iy g'oya ostida birlashtirishga qaratilgan siyosati tufayli bu ijobiy tajriba nihoyasiga yetmasdan qolib ketdi. (I.Karimov)

## X. Qavs

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z va iboralar qavsga olinadi.

Liberalizm (lot. *Liberalis* – erkin) yaqin paytlargacha ko'proq salbiy mazmunga ega edi va ortiqcha toqatlilik, haddan tashqari muruvvatlilik, zararli beparvolik, murosachilik sifatida talqin qilinar edi.

«Siyosiy madaniyat» atamasining nemis faylasuf-ma'rifatparvari I. G. Gerder (1744-1803) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.



*Yaponiyada esa xodimning xizmat doirasida ko'tarilishi yonlama (gorizontal) xususiyatga ega.*

2. Ifodalanayotgan fikr yoki uning biror bo'lagiga aniqlik kirituvchi so'z va iboralar, raqamlar qavsga olinadi.

*Shular qatorida 2011-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96, 98-moddalar) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi.*

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Jadid ma'rifatparvarlaridan kimlar o'z asarlarida tinish belgilari haqida ma'lumot bergan?
2. Punktuaitsiya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan hozirgi o'zbek tilshunoslaridan kimlarni bilasiz?  
«Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qaysi bo'limida tinish belgilarining qo'llanish qoidalari o'rganiladi?
2. Vergul va nuqtali vergul qaysi holatlarda qo'yiladi?
3. Gapda tire qaysi holatlarda qo'yiladi?
4. Qaysi holatlarda tinish belgilari qo'sha qo'llanadi?
5. Qaysi tilshunos olimlar o'zbek punktuaitsiyasining shakllanishiga hissa qo'shdilar?
6. Gapda qanday holatlarda qavs ichida so'roq belgisi (?) qo'yiladi?
7. Qo'shtirnoq belgisi qaysi holatlarda qo'yiladi?
8. Gapda qanday holatlarda ko'p nuqta qo'yiladi?
9. Qavs qaysi o'rinlarda qo'yiladi?
10. Gapda qanday holatlarda qavs ichida undov belgisi (!) qo'yiladi?

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATNI

### 1-MAVZU:

### ARAB GRAFIKASIDAGI O‘ZBEK YOZUVINI ISLOH QILISH MUNOSABATI BILAN BO‘LIB O‘TGAN ALIFBO-IMLO BAHSLARIGA OID MATERIALLAR USTIDA ISHLASH

**Amaliy mashg‘ulot mazmuni:** O‘rganilayotgan davr alifbo-imlo bahslariga oid materiallar mazmunini o‘rganish, buning yuzasidan topshiriqlarni bajarish. «Chig‘atoy gurungi»ning unli tovushlar uchun belgilagan harflarni ajratish, ularning imlo qoidalaridagi yangiliklarni aniqlash.

#### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini bajarish.
3. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini tekshirish va baholash.

### 1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Chig‘atoy gurungi» tashkiloti haqida ma’lumot bering.
2. «Chig‘atoy gurungi»ning alifbo va imlo islohotlari nimalardan iborat?
3. Yangi imlochilar taklif etgan o‘zbek alifbosida nechta unli va undosh harf bor?
4. Eski va o‘rta imlochilar nega yangi imloga qarshi bo‘ldilar?
5. O‘tgan asrning 20-yillari boshida alifbo va imloga doir o‘tkazilgan qurultoy va konferensiyalar haqida ma’lumot bering.
6. Jadid ziyolilari nega arab yozuvi asosidagi alifbo va imloning islohi uchun kurashdilar? Bu sohada qanday natijalarga erishildi?
7. Milliy ziyolilar arab yozuvining islohi masalasida nega birlikka erisha olmadilar?

qo'yulsun, ya'ni olarnida shul turkcha uchun tuzilgan qoida ostig'a kirgizilsun deyman. Zero, bir tilning jilolanuvi va oning ochunda borlig'in ko'rsatuvi boshqalarni o'zig'a bo'ysundurub, olarnida o'z yo'lig'a yurguzmak bilan boshlanur. Mundan bir necha yuz yil burun yozilib qoldirilg'on odat qoidalari bu kungacha bizning oramizda ro'l o'ynab kelgan ekan, mundan so'ng bizning qoida ham boshqalarning orasida ro'l o'ynasun. Nega kim: bu zamon ezilganlarning zamonidur.

## 2 -TOPSHIRIQ

**Birinchi o'lka o'zbek til va imlo qurultoyi tomonidan qabul qilingan harf va imlo to'g'risidagi ushbu qarorning har bir bandiga izoh yozing.**

1 - Imloning islohi uchun harp ila cho'zgilar oyri oyri yurutulsun.

2 - Harplarimizning soni 23, cho'zg'ilar 6 bo'lsun.

3- Yozuvlarimizning barchasi bir gina shaklda (bosh harp bilan) yozulsunlar.

4 - Tilimiz orasig'a kirib qolg'on yot so'zlar o'z harp va cho'zgilarimiz bilan yozilsunlar.

## 3- TOPSHIRIQ

**Berilgan matnni o'qing. Unli va undosh harflarga oid fikrlarni izohlang.**

«Hozirg'acha ishlatilib kelgan yozuvimizda yetarlik cho'zg'i yo'q. Arabchaga taqlid 3-4 cho'zg'i olsoq ham bu kipoya qilmaydir. Yana harp bilan cho'zg'i orasida ayirma bo'lmasdan ko'b yerda, aynuqsa bolalarg'a yangi harp tanitg'on chog'da bolalani yanglishdirib bitiramiz. Shuni tuzatish kerak. Harp bilan cho'zg'i (mad)ni ayirib, tilimizda bo'lg'on cho'zg'ilarni yetarlik miqdorda topib qo'yish kerak.»

Shokirjon Rahim.

O'zbek imlosi to'g'risida asoslar.

«Qizil bayroq», 1922-yil, 22-mart.

#### 4- TOPSHIRIQ

**Matnni o'qing. So'zlarni, morfologik shakllarni ularning hozirgi zamon shakllari bilan qiyoslang.**

"Mana sizga, bir hodisaning yetti turi uchun yetti odkim, oralarinda ingichka oyirmalari bordir, Turkchada bu hol oz emas. Arabcha nufuz, murur, ubur; u to'g'rusinda turkchamizda o'tmoq, kechmak, oshmoq, irtonmoq bor. Arabcha qaid, talab, azm, amal qarshusunda turkcha tilak, istov, org'on bor. Arabcha zarf yerinda turkcha idish bor, sovut bor. Arabcha foyda, manfaat o'rninda turkcha asig' bor, unum bor. Arabcha qalb o'trusinda turkcha yurak bilan ko'ngil, arabcha sadr uchun turkcha ko'ks va ko'krak bor". (Fitrat. Tilimiz).

## 2-MAVZU

### LOTIN GRAFIKASIDAGI O‘ZBEK YOZUVINI JORIY QILISH MUNOSABATI BILAN UYUSHTIRILGAN MUNOZARA MATERIALLAR USTIDA ISHLASH

**Amaliy mashg‘ulot mazmuni:** XX asrning 25-30-yillari orasida bo‘lgan davrda o‘zbek yozuvining arab grafikasidan lotin grafikasiga o‘tkazilishi munosabati bilan matbuotda uyushtirilgan alifbo-imlo bahslari, turli anjuman va qurultoy materiallari mazmunini o‘rganish, buning yuzasidan topshiriqlarni bajarish.

#### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH.
2. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini bajarish.
3. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini tekshirish va baholash.

#### **1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:**

1. O‘zbek ziyolilaridan kim va qachon birinchi bo‘lib o‘zbek tilini lotin yozuviga ko‘chirish taklifi bilan chiqqan?

2. O‘zbek tilshunoslari orasida lotin yozuviga ko‘chish tarafdorlaridan kimlarni bilasiz? Ularning qaysi maqolalari bilan tanishsiz?

3. Qaysi ma‘rifatparvar turkiy xalqlarni lotin yozuviga ko‘chirish g‘oyasini birinchi bo‘lib ilgari surgan?

4. Turkiy respublikalardan qaysi biri birinchi bo‘lib lotin yozuviga ko‘chdi?

5. Butunittifoq Turkologiya qurultoyi qachon va qayerda bo‘lib o‘tdi? Unga O‘zbekistondan kimlar vakil bo‘lib borgan?

6. O‘zbekiston qachondan boshlab birinchi marta o‘z yozuvini lotin alifbosiga ko‘chirgan?

7. O‘zbekistonda lotin yozuviga o‘tish bilan bog‘liq respublika konferensiyalari haqida ma‘lumot bering.

8. Qachon yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb e'lon qilinadi?

9. Lotin yozuvi asosidagi ilk o'zbek alifbosi nechta harfdan iborat qilib qabul qilingan? Undagi unli va undosh harflarni ko'rsating.

10. Respublikada arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish jarayoni qanday kechdi?

11. Lotin yozuvidagi o'zbek tilining imlo qoidalari qachon qabul qilindi?

12. Ruscha Я, Ю, Е, Ё harflar ishtirok etgan so'zlar bu davrdagi imlo qoidalari ko'ra qanday yozilgan?

## 2. AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI:

### 1-TOPSHIRIQ

#### 6-Ilovadagi matn bilan tanishib chiqing.

1. Muallifning imlo tamoyillari haqidagi fikrlariga munosabat bildiring.

2. Maqolada ilgari surilgan sarfiy (shakliy) birlik qoidasi nimadan iborat?

3. Imlo qoidasida savtiy asos deganda nimani tushunasiz?

4. Lab ohangi nima? Imlo qoidasida lab ohangi masalasi qanday hal qilingan?

5. Singormanizm nima. Uning imlo bilan aloqasi qanday izohlangan?

6. Ashurali Zohiriyning bosh harflar imlosini haqidagi fikrlarini sharhlang.

### 2-TOPSHIRIQ

#### 7-Ilovadagi matn bilan tanishib chiqing va quyidagilarni bajaring.

1. Tovush ohangi (qalinliq, ingichkalik) atamaları nimani anglatadi?

2. Fitratning imloda lab ohangi masalasi haqidagi qarashlarini izohlang.

3. Muallifning rus-yevropa tillaridan o‘zlashgan ayrim istilohlar imlosi to‘g‘risidagi fikrlariga munosabat bildiring.
4. Matnda tovush ohangiga (qalinliq, ingichkalikka) asosan yozilgan so‘zlarni aniqlang, qo‘shichalarning mos ravishda qo‘shilishini tushuntiring.

### 3-TOPSHIRIQ

**Hasanboy Jomolxonov, Abdusalom Umarov tomonidan nashrga tayyorlangan «O‘zbek yozuvining XX asr tarixi (birinchi kitob)dagi Elbek (206-211; 226-231-betlar) va Shokirjon Rahimiy (390-399-betlar) kabi tilshunoslarning imloga doir fikrlarini izohlang.**

1. Singarmonizm masalasi.
2. Cho‘zg‘ilar (unlilar) masalasi: ust cho‘zg‘i, o‘tru cho‘zg‘i, ost cho‘zg‘i.
3. Lab ohangi masalasi.

### 4-TOPSHIRIQ

**1929-yilda qabul qilingan imlo qoidalari bilan tanishib chiqing. Quyida joriy imloda berilgan so‘zlarni mazkur imlo qoidalari asosida yozing.**

*Lab ohangi bo‘yicha:* o‘qi, o‘qidik, o‘tin, yutuq, buzuq, to‘qima, ko‘rdim, qo‘ydi, o‘zim, g‘ijjak, g‘ildirak, yozdi-ku.

*Qo‘shimchalar imlosi:* tashuv, tashuvchi, qishki, surishtir, yondir, keltir, qo‘shganda, oxiriga, o‘zbeklarning, tog‘ga, sog‘gan, bilag‘on.

*Yuklamalar:* oldi-ku, turdi-da, o‘zigina, Nasim-chi.

*Juft va takror so‘zlar:* kam-kam, tovoq-qoshiq, katta-katta, uch-to‘rt.

*Qo‘shma fe‘l va ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari:* tasdiq etdi, qila boshladi, yiqila yozdi, kela oldi.

*Ekan, edi, emish kabilarning qisqaargan shakli:* borardim,



ketardi, olarmish, ucharkan, qocharmish, ko'rarkan.

Ruscha va bu til orqali o'zlashmalar: sotsial, yashik, uyotka, yubiley, manikyur, shkaf, stul, proletar, krujok, Galya, Genre.

-iy nisbat qo'shimchali so'zlar: iqtisodiy, adabiy, siyosiy.

### 5-TOPSHIRIQ

**1929-yilda qabul qilingan imlo qoidalari bilan joriy imlo qoidalaridagi bir xillikka ega qoidalarni aniqlang va ularni qiyoslab ko'rsating.**

### 3-MAVZU

## 1929-YILLARDA BITILGAN O‘ZBEK-LOTIN ALIFBOLARDAGI MATNLARNI GRAFIK VA ORFOGRAFIK JIHADAN TAHLIL QILISH

**Amaliy mashg‘ulot mazmuni:** O‘rganilayotgan davr alifbo-imlo bahslariga oid materiallar mazmunini o‘rganish, buning yuzasidan topshiriqlarni bajarish. «Chig‘atoy gurungi»ning unli tovushlar uchun belgilagan harflarni ajratish, ularning imlo qoidalaridagi yangiliklarni aniqlash.

#### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini bajarish.
3. Amaliy mashg‘ulot topshirig‘ini tekshirish va baholash.

#### **1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Lotin yozuviga ko‘chirilgan o‘zbek alifbosida nechta harf bor?
2. Unli tovushlar uchun qanday harflar olingan?
3. Imlo qoidalariga qanday imlo tamoyillari asos bo‘lgan?
4. Ingichkalik va qalinlik deganda nimani tushunasiz? Ingichka va qalin unililar uchun olingan harflarni ko‘rsating. Ular qaysi unilarni ifodalaydi?
4. Lab ohangi nima? U bilan bog‘liq holat imloda qanday belgilangan.
5. Singarmonizm imloda aks etganmi?
6. Rus tilidan kirgan so‘zlarning yozilishi qanday qoidalashtirilgan?

### 3. AMALIY MASHG‘ULOT TOPSHIRIQLARI:

#### 1-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Matnni ko‘chirib oling. Uni joriy alifboda qayta yozing. Avvalgi va hozirgi harflar va qo‘shimchalar imlosidagi farqlarni toping, sababini izohlang.**

*Kiʃilər kəp zamandan vujan javajə hajvanlarnə avlajdə. Arslan, qarlan kəbi jərtqəc, qan təkyci hajvanlar kiʃilər ycyn xavflədə. Mənə şundaj hajvanlarnə av qəliv şydə qəybə. Arslan jaki qarlanəqə oxşaqan javajə hajvanlarnə öldirgən kişi vahadər sanaladə.*

Shokirjon Rahimiy. «O‘zbek tili II (ish kitobi)” darsligidan. 1930.

#### 2-TOPSHIRIQ

**Təbəndəgi soraglarəqə çavab yazəñəz:**

Атəñəz nimə?

Атаñəznəñ атə nimə?

Несə jəşda siz?

Несə jəşda məktəbgə kirdiñəz?

Тақəñ несə jəñ oqujsəz?

#### 3-TOPSHIRIQ

**Quyidagi dialogda unlilar qaysi harflar bilan ifodalangan? Bu unlilarni tavsiflang va joriy imlodagi ekvivalentini ko‘rsating.**

- Jazda kyndyz uzun voladətmə?
- Jazda kyndyz uzun voladə.
- Jazda kecələr uzun voladətmə?
- Joq! kecələr qəsqə voladi.
- Kyzdəci?
- Kyzdə kyndyz va kecə varavar voladə.

#### 4 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

Quyidagi topshiriq va qoidada qanday soʻzlar imlosi bayon qilingan? Ilgari qoʻllangan atamalarning hozirgi muqobilini aniqlang.

##### Vazifa 64:

Tebandegi maqalaning oqib, daftrinizga kociringiz. Qosh sozlarni izlab tarynz. Uning ystiga syzyq syzyq.

*Jatim balalar ata-anasiz, qarbandash-uruqsiz, akaykasiz, egacisiz, yst-bassiz bolad. Ular kijim-kecasiz, ash-nanqa ham muxtaq boladlar. Ularqa rahm-shafqat qbluv zaryr.*

Bir-biriga tendash bolqan jaky bir qatarda ikitadan kelgan bir tyrli sozlarni qosh sez dejiladi. Qosh sozlarni bir-biridan ajyrtmaq ycyn araqa bir syzyq qojylady. *Mbsal: saf-saf, ala-qara, akayka.*

«Iki sez bir bolib bashqa bir narsaning aty bolsa, u caqda har ikala sezni birikdirib, bir sez qlib yazylady. Bunday sozlarni «**qoshalaq sez**» deb ataladi.

*Misal: vajcecak, ajalta, xumkalla, kimozar, velbaq, teksinc, cynavad, onqorqan...* .

Shokirjon Rahimiy. «Oʻzbek tili II (ish kitobi)» darsligidan.

1930, 36-37-betlar.

*Maʼlumot:* Shokirjon Rahimiy birikib kelgan ikki va undan ortiq maʼno bildirgan soʻzni «**qoʻshma soʻz**» deb ataydi. «*Masalan: tort blan kel sozi birlashib, Tortkel shahariga ism bolqan.*

«Ozbek tili darsligi (grammatika ham imla)» darsligida. 1934, 49-bet.

## 5-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan matnni lotinlashtirilgan alifbo bo'yicha qabul qilingan imlo qoidalariga muvofiq yozib chiqing.**

### IMLO TO'G'RISIDA

Profesur Afanasevning aytishicha, rus imlosi besh asosqa qurilg'on:

- 1) Savtiy (foneticheskiy),
- 2) Shakliy (morfologicheskiy),
- 3) Tarixiy-an'anaviy,
- 4) Chet so'zlarini yozmoq asosi,
- 5) Ayrilma asosi.

Bizda esa inqilobg'acha tarixiy-an'anaviy ham chet so'zlarni yozmoq asosi qo'llang'on. Ya'ni: o'zbekcha so'zlarda eski Navoiy va undan ilgari kitoblardag'i imlo nusxasi mahkam ushlanib, chet (arabcha, forsiycha) so'zlar va ularda qandoq yozilg'on bo'lsa, bizda ham o'zgartmasdan yozish asos tutilg'on.

Inqilobdan keyin (bundan 5, 6 g'ina yil ilgari) bu ikki asosni tashlab savtiy ham shakliy (sarfiy) asosqa o'tkan bo'lsaqda, arab alifbosi savtiy asosqa javob bera olmag'onlig'idan, imlo chatoqliqlaridan haligacha ham qutila olg'onimiz yo'q.

Ashurali Zohiriy

Til, atama va imlo bahslari. 1929-yil

#### 4-MAVZU

### UNLI VA UNDOSH HARFLAR, ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

**Amaliy mashg'ulot mazmuni:** unli va undosh tovushlar imlosi yuzasidan grammatik topshiriq bajarish. Talaffuz va yozuvda farqlanadigan nutq tovushlarini ajratish, ularning imlo qoidalarini aniqlash.

Asos va qo'shimchalar imlosi yuzasidan diktant yozish.

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini bajarish.
3. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tekshirish va baholash.

#### 1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qaysi bo'limida **unli va undosh tovushlar, asos va qo'shimchalar imlosi** o'rganiladi?
2. Qaysi holatlarda so'z tarkibidagi unli yoki undosh harfning tushirib yozilishi adabiy tilning orfografik me'yoriga muvofiq hisoblanadi?
3. Qaysi holatlarda so'z oxirida qo'sh undoshning biri tushirib yoziladi?
4. *Ushta (uchta), besso'm (besh so'm), issiz (izsiz), yuzzi (yuzni), maxtov (maqtov)* kabi so'zlarning talaffuzi va yozilishi qanday farqlanadi?
5. Qanday so'zlar ofografiyaning fonetik tamoyili asosida yoziladi?
6. Qanday so'zlar ofografiyaning morfologik tamoyili asosida yoziladi?
7. **Rafshan, tafsiya** so'zlarining yozilish qoidasi qanday tamoyilga asoslanadi?
8. Rus tilidan o'zlashgan *автомобиль, колхоз, эшелон, телевидение* so'zlarining yozilishi qanday qoidaga muvofiq amalga oshiriladi?
9. Qanday so'zlar grafik yozuv qoidasi asosida yoziladi?
11. Qanday so'zlar yozuvda maxsus belgi bilan ajratib yoziladi?
12. O'zbek-lotin va o'zbek-kirill yozuvidagi imlo qoidalarida asos va qo'shimchalar imlosi qaysi jihatdan farqlanadi?

## 2. AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI:

### 1 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan misollardan talaffuzi va yozilishi farqli bo'lgan tovushlarni ajratib, yozuv qoidasini aniqlang.**

*odob, kitob qibla, tobla avtobus, avtomat, obod, ozod, izsiz, yuzko'rmas, manba, tanbur, shanba, fayz, , to'qson, maqsad, maqto'v, saqlamoq, g'isht, Fotima, Mahmud*

### 2-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga i yoki u unllarini mosini qo'yib ko'chiring.**

arg'...mchoq, atirsov...n, ajabto'v...r, bahuz...r, bemavr...d bo'l...m, bo'y...n, juld...r, juj...n, zul...k, kuch...k, kulg..., ko'zg..., kum...sh, mur...d, muxb...r, muh...m, mud...r, muh...t, muh...m, nuf...z, nuh...l, put...r, puch...q, suz...k, suk...t, sunb...la, sup...rgi, surg...n, sur...shgirmoq, sur...nkali, surg'...ch, suqs...r, sug'...rta, tug...n, tuzl...q, to'z...k, tuz...m, tuz...sh, to'yn...k, tumsh...q, tun...ka, turk...m, turm...sh, tur...sh, turg...n, tut...n, tut...q, tutq...n, tux...m, tush...ng, tush...ncha, ust...vor, xur...j, chumch...q, chuch...k, qo'y...n, ho'k...z.

### 3-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan so'zlarga qavs ichidagi qaysi qo'shimcha qo'shilishini aniqlang.**

tog' (-ga, -ka, -qa); qishloq (-ga, -ka, -qa); dala (-ga, -ka, -qa); terak (-ga, -ka, -qa) chiq (-gach, -kach, -qach); oq (-gani, -kani, -qani); bo'g' (-guncha, -kuncha, quncha) ek (-gach, -kach, -qach); to'k (-gani, -kani, -qani), yog' (-gan, -kan, -qan); yoq (-gan, -kan, -qan) tog' (-ga, -ka, -qa); yog' (-gan, -kan, -qan); yoq (-gan, -kan, -qan); ek (-gach -kach, -qach)



### 3-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

#### Qaysi to'g'ri?

1) ek(-tir, -dir), uq(-tir, -dir), yop(-tir, -dir), ter(-tir, -dir), kel(-tir, -dir), eshit(-tir, -dir), ko'kar(-tir, -dir), yon(-tir, -dir), sevin(-tir, -dir), sin(-tir, -dir)

2) ma'sul / mas'ul; taalluqli / ta'luqli; mutolaa / mutoala; matba / matbaa; muomala / muomila, kulgi / kulgu, ko'zgu / ko'zgi, tatbiq / tadbiq, mudofaa / mudofa, umumdavlat / umum davlat, taajjub / ta'jub, tonggi shabada / tongi shabada, bahor tongi / bahor tonggi, do'stimni uyi / do'stimning uyi, maktab bog'i / maktabning bog'i

3) tug'(u,i)ldi, yug(u,i)rmoq, tush(u,i)nmoq, ur(u,i)shib qoldi, ur(u,i)sh boshlandi, ma(x,q)tov, mulo(x,h)aza, mu(x,h)lat, mu(x,h)im, (x,h)olis, (x,h)ushvaqt, a(x,h)loq, (x,h)olos, (x,h)o(x,h)ish, (x,h)olis, (x,h)ayfsan, (x,h)alokat, mo(x,h)ir, tu(x,h)fa, zo(x,h)ir. lo(x,h)as

4) Yer (yer) Quyosh (quyosh) atrofida, Quyosh (quyosh) Yer (yer) atrofida aylanadi.

### 5-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

#### Yasama so'zlarni aniqlang, asos va qo'shimchalarning imlosini sharhlang.

*bilimsiz, noto'g'ri, nokas, shunday, bittalab, bugun, qishlog'i, birdan, mening, unga, bulog'im, qulog'ing, erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi, ikkalasi, bilak, tilak, oltovi, qayril, ayrildi, sayla, qaynoq, bilagim, tilaging, bunda, shundan, parvoyi, obro'yim, mavqeying, xudosi, mavzusi shovulla, lovulla, chirilla, taqilla, xudoyi*

### 7-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

#### Berilgan so'zlarni o'zbekcha-lotincha imlo qoidalari asosida yozing.

*тутолаа, ер ёнгоқ, олижаноб, учала, ёшу қари, боролади, конституция, туккан, цирк, съезд, қишлоққа, тоғлик, сентябрь, кастрюлька. режиссёр, бюджет цирк, лицей, милиция,*

шовилламоқ, сўз боши, бугдой ранг, кўндан-кўн нуқтаи назар, таржимаи ҳол, мўътабар, мўъжиза, медальон, батальон, 1995 йил 24 август, дўсту душман, кечаю кундуз, боққа, тоққа, коляска, бетгачопар, киносценарий, публицистик, оҳанрабо, жумлаи жаҳон, бош яланг, ёзолади, монелик, костюм, компьютер, сценарий

## 8 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan nutq ko‘rinishlarini kirillcha-o‘zbekcha yozuvga o‘giring.**

1. *Qiz turgan joyida uzoq turib qoladi.* 2. *Qizg‘in va jo‘shqin suhbat dilga orom bag‘ishlaydi.* 3. *Ishchilarning ilg‘or va avangard otryadlaridan tuzilgan brigada cho‘lni o‘zlashtirishga yuborildi.* 4. *Ahloqli va adobli farzandlarimiz bizning faxrimizdir.* 6. *Adabiyot – hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi. (A.Qahhor)* 7. *Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod. (Maqol)* 6. *Qor tingan-u, ammo quyosh bulular orasidan chiqa olmay garang.* 7. *Har kim hayot haqida o‘z fikrini aytishga oshiqardi, lekin hamma pichirlashga yaqin ovoz bilan gapirardi.* 8. *Men xalqqa kam o‘rgatganman, lekin undan ko‘p o‘rganganman.*

## 9- TEKSHIRUV DIKTANTI

...So‘nggi bir oy ichida bu ko‘rimsizgina bino men uchun dunyoda eng ko‘rkam, eng ziynatli, eng orombaxsh bir joyga aylangan edi. Men uning oldidan yuragimni hovuchlab, Muqaddasim, sevgilim yashagan ikkinchi qavatdagi balkonli xonadan, xonaning derazalariga tutilgan harir to‘r pardasidan ko‘zlarimni uzolmasdan, uni ko‘rmasam ham har safar qalbim nafis va totli tuyg‘ularga to‘lib o‘tardim...

Hamisha odam ko‘p bo‘ladigan yotoqxonaning oldida baxtga qarshi bu safar hech kim yo‘q edi. Bir-ikki minut sadaning tagida bitta-yarimta tanish-bilish chiqib qolishini kutib turdim, so‘ngra sekin eshikka bordim. (O.Yoqubov. «Muqaddas»)

## 5-MAVZU

### QO'SHIB YOZISH, CHIZIQCHA BILAN YOZISH VA AJRATIB YOZISH QISMIDAGI IMLO QOIDALARI BO'YICHA TRENING

**Mashg'ulot mazmuni:** So'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozishga doir nazariy bilimlarni mustahkamlash. Bosh va kichik harflar bilan yozish qoidalariga oid grammatik topshiriq bajarish.

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini bajarish.
3. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tekshirish va baholash.

#### **1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Qanday so'zlar qo'shib yoziladi? Misollar keltirib izohlang.
2. Qaysi so'zlar avvalgi imlo qoidalariga ko'ra qo'shib, joriy imlo qoidalariga ko'ra ajratib yoziladi?
3. Qanday so'zlar ajratib yoziladi? Ularning ajratib yozilish sabablarini tushuntiring.
4. Qanday so'zlar chiziqcha bilan yoziladi? Misollar keltirib izohlang.
5. Qaysi so'zlar avvalgi imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha bilan, joriy imlo qoidalariga ko'ra chiziqchasiz yoziladi?
6. Qaysi yuklamalar so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi?
7. Qaysi yuklamalar so'zga qo'shib yoziladi?
8. Yuklamalarning yozilishida avvalgi va joriy imlodagi tafovutlarni ko'rsating.
9. Chiziqcha tartib sonini ko'rsatuvchi belgi sifida qanday sonlarga qo'shilishi mumkin?

## AMALIY MASHG‘ULOT TOPSHIRIQLARI:

### 1-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan so‘zlarning hosil bo‘lishini va imlo qoidalarini sharhlang.**

kaltafahm, mehnatsevar, o‘zboshimcha, ko‘rimsiz, kungaboqar, qo‘ziqorin, qabulxona, iskabtopar, oyoq yalang, oyoqyalang, cho‘qqisoqol, bajarib, bitta, butunlay, oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, kamhosil, umumdavlat, betgachopar, zararkunanda,

### 2 –GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Yuklamalar to‘g‘ri qo‘shilib yoki ajratilib yozilgan so‘zlarni belgilang**

dadang ishdami? / dadang ishda-mi? uyga kelib-oq / uyga keliboq; o‘ziyoq / o‘zi-yoq kechagina keldi / kecha-gina keldi; sen-chi? / senchi? ; bordimku / bordim-ku chiqasan-a? / chiqasana?; ketdiya / ketdi-ya; ishlaydi-da / ishlaydida onayu bola / ona-yu bola; yer-u osmon / yeru osmon; kattayu kichik / katta-yu kichik / kecha-yu kunduz / kechayu kunduz; do‘stu dushman / do‘st-u dushman

### 3-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan misollardan to‘g‘risini belgilang.**

2013-yil 27-aprel / 2013 yil 27 aprel; 15-asr voqealari / 15 asr o‘tgandan so‘ng, XXI asr / XX- asr; 6-sinf / 6 sinf; IV-kurs talabasi / IV kurs talabasi;

ayta olmoq / aytolmoq, o‘qiy oldi / o‘qiyoldi, yoza beramiz / yozaveramiz, keta ber / ketaver; kul rang / kulrang, bir pas / birpas, so‘z boshi / so‘zboshi, oppoq / op-poq, ko‘mko‘k / ko‘m-ko‘k, tomdan-tomga / tomdan tomga, naridan-beri / naridan beri

#### 4-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Quyida berilgan juft soʻzlarning qismlarini -u (-yu) bogʻlovchisi yordamida bogʻlab daftaringizga koʻchiring.**

arz-dod, aft-angor, aql-zakovat, katta-kichik, maza-bemaza, baxt-saodat, bahs-munozara, bosh-oyoq, bogʻ-roq, davr-davron, koʻchakoʻy, yor-birodar, yosh-qari, ona-bola, orzu-istak, jon-jahd, ilm-fan, kasb-hunar, xalta-xulta, chora-tadbir, kibr-havo, mehr-oqibat, mol-dunyo, yakka-yolgʻiz, tun-kun, ust-bosh, yaxshi-yomon, qadr-qiyamat, husn-jamol.

#### 5-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan gaplarda xato yozilgan soʻzlar boʻlsa, toʻgʻrilang.**

1. Koʻzlariga jiqqa yosh quyilib keldi.(M. M. Doʻst) 2. Kun tigʻ tortib, daryoning u tomonidagi adirlarning sirti toʻq yashil, jilgʻalari qora tusga kirdi. (A. Qahhor) 3. Kamon qoshlari ortiq mavj urib, oʻzini koʻrsatgan, bir oz bota tushgan shahlo koʻzlar tagʻin ham timqoralik, tagʻin ham nurlilik kasb etgan edilar. (A. Qodiriy) 4. Zarofatning kelishgan qomati, pirpir oʻynab turadigan shahlo koʻzlari Haydarni maftun qilgan edi. (M.Muhamedov) 5. Osmonda yulduzlar ming-ming, liqtoʻla. Bir xili baʼzida uchadi birdan, Chaqmoqlar singari yalt yult oʻynoqlab. (Q. Muhammadiy). 6. Hamma derazalar langochiq. Gʻirgʻir esgan shabadadan darpardalar hilpiraydi. 7. Nokning ser shira, suvli, ochsariq, qizil yoki sargʻish koʻk yirik navi. (Sh. Xolmirzayev) 8. Bizdan Toʻraxojayevga koʻpdan-koʻp duo deng, taqsir! (P. Tursun) 9. Respublikada qovunning bu navi yildan-yilga kamayib bormoqda. (Gazetadan) 10. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, yaʼni.. himm. (A. Qahhor) 11. Tansiq havo rang roʻmolchasining uchini himarib, uning ishidan koʻz uzmaganini payqadi. (Oybek)

## 6-MAVZU

### BOSH VA KICHIK HARFLAR IMLOSI.

#### BO'G'IN KO'CHIRISH QOIDALARI

**Mashg'ulot mazmuni:** Bosh harflarning ajratilishi hayotiy ehtiyoj, mantiq talabi, yozuvdagi ma'noli qismlarni ajratish, chegaralash, tushunchalarni bir-biridan farqlash kabi sabablar bilan bog'liqligini anglash.

Bosh va kichik harflar bilan yozish qoidalariga oid grammatik topshiriq bajarish. Bo'g'in ko'chirishni amalga oshirish sabablarini aniqlash. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rganishga oid grammatik topshiriq bajarish.

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini bajarish.
3. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tekshirish va baholash.

### 1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qaysi bo'limida bosh va kichik harflar imlosi o'rganiladi?
2. Qaysi holatlarda so'zlar bosh harf bilan yoziladi?
3. Qaysi so'zlarni bosh harf bilan ham, kichik harf bilan ham yozsa xato hisoblanmaydi?
4. *Ko'ngil, dengiz, singil, yorug', ona, yangi, meshchan* so'zlari qaysi qoida asosida bo'g'inga ko'chiriladi?
5. Qanday so'zlar bo'g'inga ko'chirilmaydi?
6. Qanday so'zlar ham bosh harf bilan ham qo'shtirnoq ichida yoziladi?
7. *Ona-Vatan, Siz, O'zbekiston Qahramoni, Janubiy Koreya* so'zlarining yozilish qoidasi qanday tamoyilga asoslanadi?
8. Kishilarning ism-familiyalari qanday qoidaga muvofiq yoziladi?
9. Qanday atoqli otlar grafik yozuv qoidasi asosida yoziladi?
10. Qanday holatda so'zlar kichik harflar bilan yoziladi?

Oliy Majlis senati / Oliy Majlis Senati  
 Mudofaa Vaziri / Mudofaa vaziri  
 Yozuvchilar uyushmasi / Yozuvchilar Uyushmasi  
 O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi / O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi  
 Sog‘liqni saqlash vazirligi / Sog‘liqni saqlash Vazirligi  
 Fan va Texnika davlat qo‘mitasi / Fan va texnika davlat qo‘mitasi  
 Fanlar akademiyasi / Fanlar Akademiyasi  
 «O‘zbekiston Qahramoni» (unvon), «O‘zbekiston qahramoni» (unvon),  
 O‘zbekiston Qahramoni (unvon), O‘zbekiston qahramoni (unvon),  
 «Oltin yulduz» (medal) / «Oltin Yulduz» (medal) / Oltin Yulduz (medal)  
 «Sog‘lom Avlod uchun» (orden), Sog‘lom avlod uchun (orden),  
 «Sog‘lom avlod uchun» (orden)  
 «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi» (faxriy unvon) /  
 O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (faxriy unvon) /  
 «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan Fan arbobi» (faxriy unvon)  
 Matbaa a‘lochisi (nishon) / «Matbaa a‘lochisi» (nishon)  
 O‘zbekiston Konstitutsiyasi / O‘zbekiston konstitutsiyasi

## 6-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

### Berilgan so‘zlarni bo‘g‘inga ajrating.

*Ko‘ngil, ini, yanga, 4-guruh, 5-»A” sinf, BMT, dengiz, meshchan, mutolaa, mehnatsevar, yashil, yozoladi, tanga, mudofaa, I.Bo‘ronov.*

## 7-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

### Quyidagi matnni bosh harflar imlosiga ko‘ra tuzatib daftaringizga ko‘chirib yozing.

*1. Abdulla Avloniy 1874-yilda »mergancha” mahallasida to‘quvchi miravlon aka oilasida tavallud topgan. u – shoir, dramaturg, murabbiy, ilk darsliklar muallifi, o‘zbek teatrining*



asoschilaridan biri, «turon» teatr truppasi tuzuvchisi, turkistonning afg'onistondagi birinchi muxtor elchisi va mamlakat rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan siyosat arbobi hisoblanadi.

2. Rabindranat Tagor she'ri bir emas, ikki mamlakat tomonidan Davlat madhiyasi etib qabul qilingan. Uning «Xalq Qalbi» nomli qo'shig'i Hindiston respublikasining, «oltin bengaliyam» qo'shig'i (1913) esa Bangladesh xalq respublikasining milliy gimniga aylangan.

### 8 –GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Bo'g'in ko'chirish qoidasiga amal qilinmay yozilgan so'zlarni ajrating.**

*kon-gress, te-ngi, so'ng-gi, den-giz, onan-giz, te-nqlama, ke-ngru, man-gu, yan-gi, mudofa-amiz, badi-iylik, oldi-yu, o-shiq, yu-mor, boks-yor, sen-a.*

### 9-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan matnni bo'g'inlarga ko'chirib yozing.**

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 13-noyabr kuni Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturining vazirlar darajasidagi konferensiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun O'zbekistonga kelgan Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Takexiko Nakao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

## 7-MAVZU

### QO'SHMA, JUFT, TAKRORIY VA QISQARTMA SO'ZLAR IMLOSI

**Mashg'ulot mazmuni:** So'zlarni qo'shib, ajratib yozish qoidalari. Juft, takroriy va qisqartma so'zlar imlosi yuzasidan grammatik topshiriq bajarish.

Qo'shma, juft, takroriy va qisqartma so'zlar imlosi yuzasidan diktant yozish.

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini bajarish.
3. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tekshirish va baholash.

#### **1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:**

1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qaysi bo'limida qo'shma, juft, takroriy va qisqartma so'zlar imlosi haqida ma'lumot beriladi?
2. Qaysi holatlarda qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi?
3. Qaysi holatlarda juft so'zlar o'rtasida chiziqcha qo'yilmaydi?
4. Qo'shma so'zlar qaysi yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi?
5. Takroriy so'zlar ofografiyaning qaysi tamoyili asosida yoziladi?
6. Qisqartma so'zlar ofografiyaning qaysi qoidasiga muvofiq asosida yoziladi?
7. Juft so'zlarning yozilish qoidasi qanday tamoyilga asoslanadi?
8. Rus tilidan o'zlashgan qo'shma so'zlar qanday imlo qoidasiga muvofiq yoziladi?
9. O'zbek-lotin va o'zbek-kirill yozuvidagi imlo qoidalarida juft so'zlar imlosi qaysi jihatdan farqlanadi?
10. Har ikki yozuvda imlo qoidalarida qo'shma so'zlar imlosi qaysi jihatdan farqlanadi?

## 2. AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI:

### 1-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Avval ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarni, keyin esa qo'shib yoziladigan so'zlarni to'g'rilab ko'chiring**

*tezpishar, o'qarava, g'ayrioddiy, muzyorar kema, umumxalq, butunittifoq, oyoqyalang, oqqush, tilorqa, hayotbaxsh, hechqaysi, toshyo'l, Yetti soy, umumittifoq, betga chopar, ko'k qarg'a, osh qozon, temir yo'l, sinf xona, aks sado, bosh yalang, oynayi jahon, o'qiy oladi, ko'z munchoq, jar qaldirg'och, so'z boshi, kul rang, oyoq yalang, ko'k somsa, tilla qo'ng'iz*

### 2-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Qo'shma otlar, qo'shma sifatlar, qo'shma ravishlar, qo'shma fe'llar hamda qisqartma otlarning yozilish qoidalarini sharhlang.**

### 3-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan qo'shma so'zlarning imlo qoidalarini sharhlang.**

*Birvarakay, bir yoqlama, birpas, bir vaqt, birato'la, biroz, birmuncha, bitta-bitta, bironta.*

### 4-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**«Ota rozi - xudo rozi» mavzuida kichik ma'rifiy matn tuzing.**

**Qo'shma, juft, takroriy va qisqartma so'zlarni ajratib, imlosini tushuntiring.**

### 5-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Berilgan gaplarda noto'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlang va yozuv qoidasini belgilang.**

*1. Kampirning hayajonlik dovushi dovoidan osha ketdi va bu xush xabar bir zumda hammaga eshitildi. 2. Meymonlar tarqab ketti va hovlida qarindoshlardan boshqa kishi qomagan edi. 3. Moshin kotta jar yoqasiga kelib qoldiyu, shopur xushyorlik qilib to'xtatdi.*

## TEKSHIRUV DIKTANTI

*Shoshmang, yana bir narsani aytib beray, buni cho'pchak deysiz, lekin chin so'z. Boy yaxshi ovqatlarni: palov, norin, qazi-qartani yemas ekan. Palov me'damga mixdek qadaladi, qazi-qarta mijozimga to'g'ri kelmaydi, der ekan. Albatta, hammasi bahona. Har kuni yovg'on xo'rdi, so'k oshi qildirar ekan. O'g'li - xo'jayinim uylangandan keyin, ro'zg'orni yaxshilab, ovqatlarni mo'l-jo'l qila boshladi. Lekin juda yashirin. Otasining pulidan o'g'irlab, xarajat qilaveribdi-da. O'zlari shiringina taom pishirib yeb, kechqurun boyga g'ozi yo'q, suyuq osh tayyorlab qo'yishar ekanlar. (Oybek.»Qutlug' qon»)*

## 8-MAVZU:

### TINISH BELGILARINING IMLOSI

**Amaliy mashg'ulot mazmuni:** Sodda gaplarda tinish belgilarining qo'llanish qoidalari. Qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarini sharhlash.

Tinish belgilarining imlosi yuzasidan grammatik topshiriq bajarish.

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Mavzuga doir nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini bajarish.
3. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tekshirish va baholash.

### 1. MAVZUGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining qaysi bo'limida tinish belgilarining qo'llanish qoidalari o'rganiladi?
2. Vergul va nuqtali vergul qaysi holatlarda qo'yiladi?
3. Gapda tire qaysi holatlarda qo'yiladi?
4. Qaysi holatlarda tinish belgilari qo'sh qo'llanadi?
5. Qaysi tilshunos olimlar o'zbek punktuatsiyasining shakllanishiga hissa qo'shdilar?
6. Gapda qanday holatlarda qavs ichida so'roq belgisi (?) qo'yiladi?
7. Qo'shtirnoq belgisi qaysi holatlarda qo'yiladi?
8. Gapda qanday holatlarda ko'p nuqta qo'yiladi?
9. Qavs qaysi o'rinlarda qo'yiladi?
10. Gapda qanday holatlarda qavs ichida undov belgisi (!) qo'yiladi?

## 2. AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI:

### 1-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

Gapda tinish belgilarining qo'llanishi haqida ma'lumot bering.

### 2-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

Berilgan nutq parchasini punktuatsion me'yorlar asosida tahlil qiling.

*Boy ariqdan tetik hatlab, oldinda yurdi. Uning yangi amirkon kavushi yumshoq g'ichirlar, shohi yaktagi quyoshda jivir-jivir tovlanib, uchqunlanib yaltirar edi. U bog'ning tashqariga qaratilgan kichkina eshigiga kirdi. Yo'lchining ko'ziga «jannatday» katta bog' manzarasi ochildi, tomosha qilib, keksa tog'aning orqasidan yuraverdi. Orasidan Qo'qon arava bemalol yuradigan keng, uzun ishkamlar ikki tanobdan mo'lroq erni ishg'ol etgan. Ko'm-ko'k tok bargini ertalabki quyoshda jilvalanadi...*

*Mirzakarimboy bog'ni aylanib, bir erda to'xtadi va kulib: – Ishga tobing bormi, jiyan? – dedi. – Ishga chanqovmiz-da, – deb javob berdi Yo'lchi. (Oybek. «Qutlug' qon»)*

### 3-GRAMMATIK TOPSHIRIQ

Berilgan gaplarda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarini sharhlang.

1. – Boshliq o'zlaridami? – so'radi u shoshib. («Yoshlik».) 2. Darchaning yorug'idan (?) tushgan nur ko'zni qamashtirar edi. («Yoshlik») 3. Haligiday, ha men, bir og'aynimmikiga o'tib ketayotuvdim, jin chalganday bo'ldimi, yo'li qurg'urdan adashib, postavoy oldidan chiqib qolibman. (K.Yashin.) 4. Kelib ko'rishinglar aqalli... (O.Yoqubov.) 5. – Ja soz-da, – Sodiqvoy Akramga qarab ko'zini qisdi. (O.Yoqubov.)

#### 4 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Tinish belgilarini qo'yib, maqollarni ko'chiring. Mazmunini izohlang.**

1. *Sichqon sig'mas iniga g'alvir bog'lar dumiga.* 2. *To'g'ri bo'ling bexavotir bo'lasiz.* 3. *It huradi karvon o'tadi.* 4. *Yaxshi topib so'zlar yomon qopib.* 5. *To'g'ri til tosh yorar egri til bosh.* 6. *Tig' yarasi tuzaladi til yarasi tuzalmaydi.* 7. *Ilmsiz bir yashar ilmi ming yashar.* 8 *Do'st achitib gapirar dushman achitib.* 9. *Qor yog'di don yog'di.* 10. *Ota rozi xudo rozi.*

#### 5 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

**Qavs ichidagi tinish belgilaridan zarurini tanlang, noto'g'risini o'chiring**

Aziz yurtdoshlar (!) (,) A(a)vvalambor (,) (: ) ulug' bobomiz (,) (–) milliy g'ururimiz (,) (: ) buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy kunlarida qatnashib () (,) shodligimizni baham ko'rayotganingiz uchun samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Bu ko'shk (,) (–) bu haykal, bu so'lim bog' hammamizga muborak bo'lsin () (,) aziz do'stlar (!) (.)

O'zbek nomi qachon paydo bo'lgan (?) (!)

Bu (–) (,) tabiiy hol. Ungacha ham (,) bu yerda o'troq xalq yashagan-ku (!) (.) (:)

Zotan (,) (: ) tarix (–) (,) xalq ma'naviyatining asosidir.

Ma'lumki (,) (: ) demokratik islohotlar (,) (–) bu (–) uzliksiz jarayon.

Darhaqiqat (,) (: ) Sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganidek (,) (: ) «Bilagi zo'r birni yiqar (,) (: ) bilimi zo'r () (,) ongi baland (–) (: ) mingni”.

Xullas (: ) (,) o'rtoqlar (!) (,) (–) hammamiz milliy-madaniy masalalarni hal etishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim.



## 6 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

### I. Qo'shma gaplar orasiga zarur tinish belgilarini qo'ying

1. Bobolardan so'zladim ammo bir zot borkim, baridan suyuk. (A.Oripov) 2. U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hyech o'ylamayapti yoki o'zini «bu gapning menga sira daxli yo'q» deb ko'rsatmoqchi. (A.Muxtor) 3. Dam orqadagi qizlarning shivir-shiviri eshitaladi dam eshikning g'irchillashi asabga tegadi. 4. Na o'zi o'qidi na birovga berdi. 5. Hayot quyosh bilan go'zal inson esa xulqi bilan. (Shukrullo) 6. Oy tunda kerak aql esa kunda kerak. (Maqol)

## 7 -GRAMMATIK TOPSHIRIQ

### Rasmiy hujjatdan keltirilgan gapda tushirilib qoldirilgan tinish belgilarini qo'ying

(xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqaring)

Odam savdosiga qarshi kurashish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi qonuniylik odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi odam savdosidan jabrlanganlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik ijtimoiy hamkorlik.

## SEMINAR MASHG'ULOTLARI

### 1-MAVZU

#### HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTINING ILK BOSQICHIDA ALIFBO-IMLO MUAMMOLARI (XX АСРНИНГ 20-YILLAR)

##### Mashg'ulot rejası:

1. Jadid ziyolilarining birinchi o'zbek alifbolari va imlo darsliklari.
2. «Chig'atoy gurungi»ning alifbo va imlo sohasidagi ishlari.
3. «Til va imlo qurultoyi»da (1921-yil, yanvar) alifbo va imlo muammolarining hal qilinishi.
4. XX asrning 20-yillari boshlarida Turkiston ma'rifatrapvarlarining alifbo va imlo bahslari.

##### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: J. IV. / Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. –T.: Ma'naviyat, 2006. -336 b.
2. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
3. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. I kitob. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. -469.
4. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. II kitob. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. -432.
5. Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik me'rosi. Filol.fan. nomz... diss. Avtoref. -T., 1993.
6. Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –T.: 2002.
7. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol.fan. nomz... diss. avtoref. -T., 2005.
8. Sayidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filol..fan.dokt... diss. avtoref. – T.: 2018.

9. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi. –T.: Universitet, 1997.
10. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos.-T., 1996.-29 b.
11. Jomonov R. «Chigatoy gurungi» va imlo masalalari // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali.- 1998.- 5-son. - B. 18-20.

#### **Internet saytlari:**

12. <http://www.imlo.uz>
13. <http://www.ziyouz.com>

#### **2-MAVZU:**

### **O'ZBEK YOZUVINI LOTIN YOZUVIGA KO'CHIRISH DAVRIDA ALIFBO-IMLO MUAMMOLARI (XX ASRNING 20- 30-YILLARI)**

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. XX asrning 20 yillarida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazilishi sabablari va harakatlari.
2. Baku «Turkologiya qurultoyi» va unda o'zbek ziyolilarining ishtiroki.
3. O'zbekistonda lotin alifbosiga ko'chish tadbirlari.
4. 1928-1930-yillardagi respublika konferensiyalarida alifbo-imlo muammolarining hal qilinishi.
5. Bu davr o'zbek tilshunoslarining yangi alifbo va imlo muammolariga doir ishlari

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O'zbekiston, 2002.
2. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
3. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. I kitob. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. -469.

4. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. II kitob. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. -432.
5. Первый Всесоюзный Тюркологический съезд. Баку: Нагыл Эви, 2011. – 552.
6. Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –T.: 2002.
7. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. -T., 2005.
8. Abdullayev Y. Hamrohim ( Hamrohim).-T.: O'qituvchi,1996.
9. Jamolxonov H. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek alifbosidan lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tishning asosiy sanalari // Turkiy tillarning taraqqiyoti muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.: Fan, 1995.-B. 44-49.
10. Jomonov R. Fitrat imlo qoidalarining zarurati haqida // «Til va adabiyot ta'limi», 1998. 6-son. - B. 58-60.

#### **Internet saytlari:**

1. <http://www.imlo.uz>
2. <http://www.ziyouz.com>

### **3-MAVZU**

#### **1940–1995-YILLARDA ALIFBO VA IMLO MUAMMOLARI**

##### **Mashg'ulot rejasi:**

1. O'zbek yozuvining kirill-rus alifbosi asosiga ko'chirilishi sabablari.
2. O'zbek-kirill alifbosining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi
3. O'zbek tili orfografiya qoidalarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi
4. Mustaqillik yillarida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishining sabablari.
5. 1993-1995-yillarda qabul qilingan o'zbek-lotin alifbosi va imlo qoidalari.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Янги алфавит ва орфография юзасидан тажрибалар // Қизил Ўзбекистон, 1940-йил 18-март.
2. Фахри Камол. Янги ўзбек алфавити ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек орфографияси ва терминологиясига доир масалалар. - Т.: Фанлар академиясининг нашриёти - 1952. - Б 25-50.
3. 1956-йил, 4-апрел. Ўзбекистон Олий Кенгашининг Фармони: «Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари тўғрисида» // Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Т.: ФАН, 1956.
4. Фахри Камол. Ўзбек орфографияси ҳақида (Ўқитувчиларга ёрдам) - Т.: Ўқувпедавнашр, 1957 - Б. 20.
5. Jamolxonov N., Sapayev Q. Imlo muammolari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2008.
6. Жамолхонов Х. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. 3-мақола (1938-1940- йиллар) // «Педагогик таълим» журнаלי,- 2002,- 12-сон. - Б.36 -39.
7. Жамолхонов Х. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. 4-мақола (1940-1956-йиллар) // «Педагогик таълим» журнаלי,- 2002.- 3-сон. - Б.54 -57.
8. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. 211-bet.
9. Раҳматуллаев Ш. Орфография қоидалари – саводхонлигимиз асоси. -Т.: ФАН, 1980.
10. Абдуллаев Й. Мозий ва янги алифбо // «Ўзбекистон овози», 1995-йил 24- январ.
11. Дониёров Х.,Тўйчибоев Б., Йўлдошев Қ. Мукамал алифбо – саводхонлик гарови. // «Ўқитувчилар газетаси».- 1991-йил 11-апрел.
12. Маҳмудов Н. Мустақиллик: ўзбек тили ва ёзуви // «Халқ сўзи», 1992-йил 19- май.

13. Қўчқортоев И. Ўзбек ёзуви муаммолари // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1991-йил 22-март.
14. Қўчқортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати) //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993-йил, 13-август, 2-бет.
15. Ҳожиёв А. Катта меҳнат маҳсули // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябр, 43-сон.
16. 1993-йил, 2-сентябр. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида. Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн учинчи сессиясида қабул қилинган қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси.-1993, №9, 332 - модда.
17. 1995-йил, 6-май. «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга киритиш тартиби ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши қарорига ўзгартишлар киритиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қарори. // Халқ сўзи.- 1995, 6- июн; «Маърифат». – 1995, 7-июн.
18. 1995-йил, 24-август. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мақкамасининг 339-сонли қарори: Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида. // Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси.-Т.: Университет, 2002.
20. Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари / Нашрга тайёрловчи: Раҳматуллаев Ш. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
21. Ўзбек тилининг имло луғати./ Тузувчилар: Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
22. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. /Тузувчилар: Т.Тоғаев ва б. – Тошкент: Шарқ, 2015.

#### 4-MAVZU

### JORIY ALIFBO VA IMLONI ISLOH ETISH HARAKATLARI

#### Mashg‘ulot rejasi:

1. Joriy alifbo va imloni isloh etish ehtiyojining yuzaga kelishi.
2. Joriy alifboni tuzatish, imloni takomillashtirish borasidagi munozaralar, takliflar va tadbirlar.
3. Munozarada ishtirok etgan o‘zbek tilshunoslari va mutaxassislarning masalaga qarashlari.
4. Davlat oliy tashkilotlarining o‘zbek-lotin alifbosini hayotga tatbiq etish sohasidagi tadbirlari.

#### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Бош вазири ва Президент давлат маслаҳатчиси томонидан имзоланган «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини кенг жорий этиш ва янада такомиллаштириш бўйича Ҳаракатлар режаси». 1918 йил 15 май.
2. Ўзбекистон 2021 йилга қадар лотин ёзувидаги алифбога ўтишни режалаштирмада / Халқ сўзи, 2018 йил 19 май.
3. Сирожидинов Ш. Тил меъёрлари бузилганда жавобгарликка тортиш вақти етди./ «Оила даврасида» газ. 2016 йил 21 октябрь.
4. Тоғаев Т. Ўзбек алифбоси ва имлосини такомиллаштиришга муносабат. // Хорижий тилларни ўқитишда она тилининг аҳамияти: муаммолар, ечимлар ва истикбол режалар. Республика илмий-амалий конференцияси. – Тошкент, 2017, 18-28 апрель.
4. Тўрахўжаева Ш. Лотинми, кирилл – қай бири маъқул? «Хуқуқ ва бурч» журнали, 2017-йил, январ.

#### Internet saytlari:

1. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбоси ҳақида ишчи гуруҳнинг сўнгги хулосаси.  
<http://www.uza.uz/oz/society/lotin-yezuviga-asoslangan-zbek-alifbosi-ida-ishchi-guru-ni-06-11-2018>



2. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини ислоҳ қилиш бўйича ишчи гуруҳнинг хулосалари эълон қилинди.  
<https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/22/alifbo/>
3. Халқ таълими вазири: Лотин алифбосини ислоҳ қилишнинг кераги йўқ.  
<https://kun.uz/news/2019/07/17/xalq-talimi-vaziri-lotin-alifbosini-isloh-qilishning-keragi-yoq>
4. Foziljonov Hamza. O' va G' харфлари, тутук белгиси: муаммолар ва ечимлар.  
<https://www.terabayt.uz/post/o-va-g-harflari-tutuq-belgisi-muammolar-va-yechimlar>
5. «O'» ва «G'»дан қутуламиз шекилли. Лотин ёзуви бўйича конференцияда нималар айтилди?  
<https://zamin.uz/uzbekiston/43734-o-va-gdan-qutulamiz-shekilli-lotin-ezuvi-buyicha-konferenciyada-nimalar-aytildi.html>

## 5-MAVZU

### O'ZBEK PUNKTUATSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. O'zbek matbuoti ilk davrlarida (19-asr oxiri – 20-asr boshlari) tinish belgilarining qo'llanishi tarixi.
2. O'zbek jadid ziyolilarining maktablar uchun darslik va qo'llanmalarida tinish belgilarning izohlanish.
3. O'tgan asrning 50-90-yillarida o'zbek tili punktuatsiyasi rivoji.
4. Karim Nazarovning o'zbek punktutsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
5. Mustaqillik yillarida o'zbek punktuatsiyasi taraqqiyoti.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Ғозиев Ғ. Ўзбек пунктуацияси тарихи. / Тўплам: Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. Тошкент-Наманган: ЎзССР ФА нашриёти, 1959.-Б.71-192.

2. Ғозиев Ғ. Октябрь революциясидан олдинги ва кейинги ўзбек пунктуациясининг баъзи масалалари. -Т.: Ған, 1969 й. -Б.13.
3. Назаров К. «Туркистон вилоятининг газети»нинг пунктуацион хусусиятлари масаласига доир//Ўзбек тилшунослиги масалалари. -Т.: 1979. ТошДУ илмий асарлари 443 чиқиш. -Б.3-11.
4. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. -Т.: Ўқитувчи, 1976. -124 б.
5. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси, -Т.: Университет, 1996 й.
6. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол.Ған. номз... дисс. автореф. -Т., 2005.

## **6-MAVZU:**

### **MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK PUNKTUATSIYASI TARAQQIYOTI**

#### **Mashg‘ulot rejasi:**

1. «O‘zbek tilining ishora-imlo qoidalari» (K.Nazarov, B.Egamberdiyev) qo‘llanmasi o‘zbek punktuatsiyasining sharhlanishi.
2. Matbuotda kechgan o‘zbek punktuatsiyasiga doir bahs-munozaralar mazmuni
3. «O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari» (N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov) qo‘llanmasida tinish belgilarining berilishi
4. «O‘zbek tilining punktuatsiya qoidalari» (B. Baxriddinova) qo‘llanmasida tinish belgilar izohlanishi

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Nazarov K., Egamberdiyev. O‘zbek tili imo-ishoralari qoidalari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. -Т.: 2015.
3. Baxriddinova B. O‘zbek tilining punktuatsiya qoidalari.

## ТАВСИYA ETILGAN ADABIYOTLAR

### Qonun, qaror va farmonlar

1. 1940-йил, 8-май. Закон о переводе узбекской письменности с латинизированного на новый узбекский алфавит на основе русской графики // Ведомости Верховного Совета Узбекской Республики, №4, июль. - С.4 -5.
2. 1956-йил, 4-апрель. Ўзбекистон Олий Кенгашининг Фармони: «Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари тўғрисида» // Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Т.: ФАН, 1956.
3. 1993-йил, 2-сентябр. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида. Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн учинчи сессиясида қабул қилинган қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси.-1993, № 9, 332 - модда.
4. 1995 йил, 6 май. «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга киритиш тартиби ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши қарорига ўзгартишлар киритиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қарори. // Халқ сўзи.- 1995, 6- июн; «Маърифат». – 1995, 7-июнь.
5. 1995 йил, 24 август. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мақкамасининг 339-сонли қарори: Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида. // Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш тўғрисида»ги Фармони. 2019 йил 21 октябр.

### Kitob, darslik va o'quv qo'llanmalar

7. Abdullayev Y. Yangi alifbo va imloni o'rgatish dasturi. –Т.: О'қитувчи, 1996. -16 б.

8. Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari. – T.: 2016.
9. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. 207-bet.
11. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: O'zbekiston, 2002. – B. 122-125.
12. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1995. –288 b.
13. Абдуллаев И., Олимхонова М. Имло луғати. –Т.: 1976.
14. Боровков А К. Ўзбек орфографияси масалаларига доир // Ўзбек орфографияси ва терминологиясига доир масалалар. –Т.: Ўзбекистон Фанлар академиясининг нашриёти. 1952 - Б 5-24.
15. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. –Т.: Ўқитувчи, 1976.
16. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Т.: Фан, 1974. -65 б.
17. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имо-ишоралари қоидалари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
18. Рафиев А. Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбоси ва имлоси. –Т.:, 2003.
19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. –Т.: Университет, 2002.
20. Раҳматуллаев Ш. Қўшма сўзларнинг имло қоидалари ва луғати. –Т.: 1960.
21. Раҳматуллаев Ш. Орфография қоидалари – саводхонлигимиз асоси. –Т.: Фан, 1980.
22. Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари. – Т.: 1988.
23. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. I китоб. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2019.
24. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. II китоб. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2019.

25. Ўзбек тилининг имло луғати./ Тузувчилар: Раҳматуллаев Ш., Ҳожиев А. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
26. Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари / Нашрга тайёрловчи: Раҳматуллаев Ш. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
27. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. / Тузувчилар: Т.Тоғаев ва б. – Т.: Шарқ, 2015.
28. Фаҳри Камол. Ўзбек орфографияси ҳақида (Ўқитувчиларга ёрдам) - Т.: Ўқувпеддавнашр, 1957 - Б. 20.
29. Фаҳри Камол. Янги ўзбек алфавити ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек орфографияси ва терминологиясига доир масалалар. - Т.: Фанлар академиясининг нашриёти - 1952. - Б 25-50.
30. Шаобдураҳмонов, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Т.: Ўқитувчи. 1980.
31. Шаобдураҳмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. -Т.: 1955.
32. Ғозиев Ғ. Ўзбек пунктуацияси тарихи. / Тўплам: Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. Тошкент-Наманган: ЎзССР ФА нашриёти, 1959.-Б.71-192.
33. Ғозиев Ғ. Октябрь революциясидан олдинги ва кейинги ўзбек пунктуациясининг баъзи масалалари. -Т.: Фан, 1969 й. -Б.13.

### Мақолалар

34. Абдуллаев Й. Мозий ва янги алифбо // «Ўзбекистон овози», 1995-йил 24- январь.
35. Абдуллаев Й. Биринчи ўзбек алифбоси // О‘збекистон адабиёти ва санъати. 1991. 8-февраль.
36. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. 4-мақола (1940-1956-йиллар) // «Педагогик таълим» журналы,- 2002. - 3-сон. - Б.54 -57.
37. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. 3-мақола (1938-1940- йиллар) // «Педагогик таълим» журналы, - 2002,- 12-сон. - Б.36 -39.

38. Камолов Фахри. Рус графикаси асосида янги ўзбек алифбесига ўтиш тўғрисида жамоатчилик фикри // Ёш Ленинчи, 1939, 24-ноябрь.
39. Маҳмудов Н. Мустақиллик: ўзбек тили ва ёзуви // «Халқ сўзи», 1992-йил 19-май.
40. Сирождидинов Ш. Тил меъёрлари бузилганда жавобгарликка тортиш вақти етди./ «Оила даврасида» газ. 2016 йил 21 октябрь.
41. Тилимиз жозибасининг тилсими. (И. Кўчқортоев, А. Ҳожиев, О.Ёқубов, Н. Маҳмудов, Э.Бегматов, А. Жабборов, А. Рафиев, А.Мадвалиев). // «Халқ сўзи», 1993-йил 28-июль.
42. Тоғаев Т. Ўзбек алифбоси ва имлосини такомиллаштиришга муносабат. // Хорижий тилларни ўқитишда она тилининг аҳамияти: муаммолар, ечимлар ва истиқбол режалар. Республика илмий-амалий конференцияси. – Тошкент, 2017, 18-28 апрель.
43. Тўрахўжаева Ш. Лотинми, кирилл – қай бири маъқул? «Хуқуқ ва бурч» журнали, 2017-йил, январ.
44. Усмонов Олим, Гуломов Айюб. Янги ўзбек алифбеси. Қизил Ўзбекистон, 1939-йил 10-август.
45. Янги алфавит ва орфография юзасидан тажрибалар // Қизил Ўзбекистон, 1940-йил 18-март.
46. Янги орфография проекти тасдиқланди. Қизил Ўзбекистон, 1940 йил 9-июль.
47. Қораев С. Ёзувимиз такомилга муҳтож // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1991-йил 23-август.
48. Кўчқортоев И. Ўзбек ёзуви муаммолари // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1991-йил 22-март.
49. Кўчқортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993-йил, 13-август, 2-бет.
50. Ҳожиев А. Имломизни такомиллаштирайлик// Ўзбек тили ва адабиёти. 1977. №2.
51. Ҳожиев А. Катта меҳнат маҳсули // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябр, 43-сон.

ЎЗБЕК ӘЛИФБАШ. نوزېڭ نه لېكاسى

a-a تا - ا ata,	b-B ب	d-d د	f-f ف	m-m م
o-o ئو - و o-o ئۆ - ۆ solar, solsq.	t-T ت	r-r ر	q-q ق	n-n ن
u-u ئۇ - ۇ y-y ئى - ى buxuq, tyxyk.	p-P پ	z-Z ز	k-K ك	v-V و
k-p (ك) (پ) l-l (ل) (ل) qaldo, heldi.	x-Z ژ - ج	s-S س	g-g گ	h-h ه
o-o ئ - ۈ mon, son.	c-C چ	z-3 ش	n-n ئ - ڭ	j-j ي
e-e ئې - ې bel; sel.	x-X خ [خ]	cy° غ	l-L ل	m'silym' مه علوم



## ALIFBE

Aa	Bb	Cc	Çç	Dd
<i>Aa</i>	<i>Bb</i>	<i>Cc</i>	<i>Çç</i>	<i>Dd</i>
Ee	Əə	Ff	Gg	Q q
<i>Ee</i>	<i>Əə</i>	<i>Ff</i>	<i>Gg</i>	<i>Q q</i>
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll
<i>Hh</i>	<i>Ii</i>	<i>Jj</i>	<i>Kk</i>	<i>Ll</i>
Mm	Nn	Nn	Oo	Pp
<i>Mm</i>	<i>Nn</i>	<i>Nn</i>	<i>Oo</i>	<i>Pp</i>
Qq	Rr	Ss	Şş	Tt
<i>Qq</i>	<i>Rr</i>	<i>Ss</i>	<i>Şş</i>	<i>Tt</i>
Uu	Vv	Xx	Zz	Zz
<i>Uu</i>	<i>Vv</i>	<i>Xx</i>	<i>Zz</i>	<i>Zz</i>

1934-1940- yillarda qoʻllangan oʻzbek alifbosi

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RSIDA

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda qabul qilindi va u respublikaning har taraflama kamol topishi, jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvshi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan, quyidagi 26 harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat o'zbek alifbosi joriy etilsin.

**2-modda.** Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasining  
Prezidenti  
Toshkent shahri,  
1993-yil, 2-sentabr.

I.KARIMOV.

Lotinça			Kirillcha	Lotinça			Kirillcha
Harflar				Harflar			
Bosma	Yozma	Talaff.	Harflar	Bosma	Yozma	Talaff.	Harflar
Aa	<i>Aa</i>	a	А а	Rr	<i>Rr</i>	re	Р р
Bb	<i>Bb</i>	be	Б б	Ss	<i>Ss</i>	es	С с
Cc	<i>Cc</i>	ce	Ц ц	Tt	<i>Tt</i>	te	Т т
Dd	<i>Dd</i>	de	Д д	Uu	<i>Uu</i>	u	У у
Ee	<i>Ee</i>	e	Э э	Vv	<i>Vv</i>	ve	В в
Ff	<i>Ff</i>	ef	Ф ф	Xx	<i>Xx</i>	xa	Х х
Gg	<i>Gg</i>	ge	Г г	Yy	<i>Yy</i>	ye	Й й
Hh	<i>Hh</i>	he	Х х	Zz	<i>Zz</i>	ze	З з
Ii	<i>Ii</i>	i	И и	Çç	<i>Çç</i>	çe	Ч ч
Jj	<i>Jj</i>	je (Jōra)	Ж ж	Ĝĝ	<i>Ĝĝ</i>	ĝa	Ғ ғ
Kk	<i>Kk</i>	ka	К к	Јј	<i>Јј</i>	je (ajdod)	Ж ж (аждод)
Ll	<i>Ll</i>	el	Л л	Ññ	<i>Ññ</i>	ñe	Нг нг
Mm	<i>Mm</i>	em	М м	Ō ō	<i>Ō ō</i>	ō (ōrdak)	Ў ў (ўрдак)
Nn	<i>Nn</i>	en	Н н	Şş	<i>Şş</i>	şe	Ш ш
Oo	<i>Oo</i>	o (ota)	О о	( ' ) tutuq belgisi			
Pp	<i>Pp</i>	pe	П п				
Qq	<i>Qq</i>	qa	Қ қ				

## YANGI ALIFBO

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	er
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	i	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O'o'	<i>O'o'</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>G'g'</i>	g'e
Mm	<i>Mm</i>	em	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
Nn	<i>Nn</i>	en	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	Ng ng	<i>Ng ng</i>	nge
Pp	<i>Pp</i>	pe			

1993- yil 2- sentabrda qabul qilinib, 1995- yil 6- mayda o'zgartirishlar kiritilgan yangi o'zbek alifbosi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRPLAR  
MAHKAMASINING QARORI**

1995-yil 24-avgust

339-son

Toshkent shahri

**O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARINI  
TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘rsida»gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

*VAZIRLAR MAHKAMASINING  
RAISI*

*I. KARIMOV*

# O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI HARFLAR IMLOSI

## UNLILAR IMLOSI

### 1. **A a** harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

### 2. **O o** harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

### 3. **I i** harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida **o'** unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida **i** aytiladi va yoziladi.

### 4. **U u** harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmoviq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **Î î** harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizî't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator **o'**ta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **E e** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan **y** undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia**: *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io**: *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) **ai**: *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi ;

e) **oi**: *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) **ea**: *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi;

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

## UNDOSHLAR IMLOSI

8. **B b** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **P p** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangciz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **V v** harfi :

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovozdor sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda **v** ba'zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. **F f** harfi:



1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi soʻzlarda jarangciz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi soʻzlarda **f** tovushi baʼzan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **M m** harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **D d** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr* kabi soʻzlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **T t** harfi *tong, tun; butun, oʻtin, oʻt, kut* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) *zar, zamon; toza, oʻzbek; yoz, gʻoz* kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **S s** harfi *sogʻ, somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

**Sh** harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ( ' ) tutuq belgisi qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

18. **J j** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi soʻzlarda til oldi jarangli qarishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar; garaj, tiraj* kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqlik; kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi *lola, loyiq, laʼl, iloj, mahal* kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda **n** tovushi baʼzan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **G g** harfi *gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg* kabi soʻzlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **K k** harfi *koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Y y** harfi *yoʻl, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **Gʻ gʻ** harfi *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **X x** harfi *xabar, xoʻroz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **H h** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, past, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar=metallar, kilogramm+mi= kilogrammi* kabi.

### 32. ' - tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

## ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi-o'quvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkini, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat'iy nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

## QO'SHIB YOZISH

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* èààè.

39. **-(a)r** (inkor shakli **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Harsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Harsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Harsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Harsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki **obod** so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

*kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika; teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nima, himm, uff* kabi.

## CHIZIQCHA BILAN YOZISH

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15òà), biliar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

### **Eslatma:**

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq* kabi;

2) juft so'z qismlari orasida **-u(-yu)** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo'lasan, uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so'zi qo'shib yoziladi).

53. Soʻzning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yoziladi: *roʻbaroʻ, darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovat-soat* kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qoʻy-e, yashang-e, oʻgʻlim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: *keldimi, keliboq, oʻziyoq, koʻrganov, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqqina* êââè.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha **(-)** qoʻyiladi: *7- sinf, 5- «A» sinfi, 3-, 7-, 8-sinf oʻquvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1- sentabri* kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

## AJRATIB YOZISH

57. Qoʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, taʼsir et, tamom boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼl mustaqil feʼldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib koʻr, soʻrab qoʻy, koʻra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil feʼl bilan yordamchi feʼl orasida tovush oʻzgarishi boʻlsa, bunday qismlar qoʻshib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* êââè.

59. Koʻmakchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun boʻyi* kabi. Lekin **bilan** koʻmakchisining **-la** shakli,



**uchun** ko‘makchasining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun êââè*.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha** so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so‘zlari qo‘shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so‘zi yoq, yer so‘zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq êââè*.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko‘pdan ko‘p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga **yi** shaklida qo‘shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar êââè*.

## BOSH HARFLAR IMLOSI

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yarqoq* (yaylov), *Qoratog'*, *Romir* (tog'lar), *Oqtera, Uchtera* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum*.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: «*Tong*» (mehmonxona), «*Saodat*» (firma), «*Navro'z*» (xayriya jamg'armasi), «*Kamalak*» (matbaa birlashmasi), «*G'uncha*» (bog'cha), «*Botanika*» (sanatoriy), «*Raxtakor*» (stadion), «*Qutlug' qon*» (roman), «*Dilorom*» (opera), «*Tanovar*» (kuy), «*Ozodlik*» (haykal), «*Jasorat*» (yodgorlik), «*Sino*» (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zguna bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy*

*tiklanish demokratik partiyasi* kabi. Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: «*Oʻzbekiston Qahramoni*» (unvon), «*Oltin Yulduz*» (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: «*Sogʻlom avlod uchun*» (orden), «*Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi*» (faxriy unvon), «*Matbaa aʼlochisi*» (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O. Yoqubov).

### **Eslatma:**

1) koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: «*Bu men*», - qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:*

– mazkur ishni koʻrib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar toʻgʻri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi: *Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:*

1) umumturkiy soʻzlar; 2) oʻzbekcha soʻzlar; 3) tojik tilidan kirgan soʻzlar; 4) arab tilidan kirgan soʻzlar; 5) rus tilidan kirgan soʻzlar («Oʻzbek tili» darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (*Amerika Qo'shma Shtatlari*), *BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AES* (*atom elektr stansiyasi*) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

## KO'CHIRISH QOIDALARI

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son*, *si-fatli*, *sifat-li*, *pax-takor*, *paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da*, *ma'-rifat*, *mash'-al*, *in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy*, *e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma*, *mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (**sh**, **ch**, **ng**) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon*, *pe-shona*, *mai-shat*, *pi-choq*, *bi-chiq-chi*, *si-ngil*, *de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5- «A» sinfi, V «B» guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *«Navro'z-92»* (festival), *«O'qituvchi-91»* (ko'rik tanlov), *«Andijon-9»*, *«Termiz-16»* (g'o'za navlari), *«Boing-767»* (samolyot), *«Foton-774»* (televizor) kabi.

82. *A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek *v.b. (va boshqalar), sh.k.(shu kabilar)* singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

## TIL, ATAMA VA IMLO BAHSLARI

### TIL VA IMLO MASALASI

Idoradan: Biz bu maqolani muhokamamizni davom ettirish yo'li bilan bosamiz.

Biz bir qoncha masalalarda yozuvchining fikriga tamom qo'shila olmaymiz. Chunonchi, atamalar masalasida yozuvchining: «Agar ajnabiy so'zlar olinavursa, tilda sofliq bita-bita sal yilning ichida boshqa so'zlar u tilni qoplab tanimasliq holg'a keltiradi va yutadi», deyishiga va shuning uchun, elektrni «simchirog'», poravuzni «o'txona» va hokazo deb atalsin degan takliflariga hyech qo'shila olmaymiz. Hech narsa bilan hisoblashmasdan tilda «sofliq» saqlash nazariyasi bizning nazariyamiz emas. Texnikaning, iqtisodiyotning taraqqiysi asosida kelib chiqq'on yangi ma'nolarni anglatish uchun lozim bo'lg'on atamalarni mumkin qadar har tilning o'zidan olish kerak (lekin bu ham tilda «sofliq» saqlash uchun emas, balkim har millat mehnatkashlariga osonliq berish uchun). Lekin tilda «sofliq» saqlash g'oyasiga berilib, baynalmilal miqyosda qo'llanilayotg'on va xalq qabul qilg'on va qabul qilinishi lozim bo'lg'on «agronum», «elektr», «jo'g'rofiya» singari so'zlarni «ekin bilgich», «simchiroq», «yer biligi» degan qiyin va noqulay so'zlar bilan tabdil qilish – bizning nazariyamiz emas. Bu nazariyadan bizga yot mafkuraning hidlari kelib turadi. Biroq, muhokasa davomida bu masalaga ravshanlik kiritilur va yozuvchig'a javob berilur, degan umid bilan maqolani (salgina qisqartib) aynan bosamiz.

\* \* \*

### ASHURALI ZOHIRIY

#### ADABIY TIL

Bundan bu yoqqa o'zbek adabiy tilini muqarrar qilib qo'ymoq uchun tilimizni uchga bo'lish mumkin:

1. Jonli til.
2. Adabiy til.
3. Iilmiy til.

Adabiy til bilan ilmiy til o'rtasida uncha farq bo'lmasa ham, jonli til bilan adabiy til orasida (o'sish va taraqqiy jihatidan) ancha farq bor.

Ko'b yozuvlar, aloqalar, kitob, gazeta va jurnallar adabiy til (normativnaya – qoidaviy usul) bilan bo'lg'oni uchun u juda muhofazakor, tez o'zgaradurg'on emas. Ammo jonli til (so'zlash tili – xalq adabiyoti) juda tez sur'at bilan o'zgaradur. Zotan, «jonli til» deyilishining sababi ham shudur.

Jonli tilning ham o'ziga maxsus ko'b qiymatli asarlari bordurkim, ularning barchasig'a «xalq adabiyoti» deyilur. Bu (xalq adabiyoti) – adabiy va ilmiy tilning asosidur. Asl tabiiy til – so'zlanaturg'on til, xalq tilidur.

O'aqiqat shundoq bo'lg'oni holda, XV asrdan inqilobg'acha bo'lg'on davrda xalqning so'zlashaturg'on tili adiblar tomonidan qo'pol til, ko'cha tili sanalib, adabiy tilni ung'a yaqinlashdirish – kamchilik, xalq tilida yozishliq – qo'polliq, deb e'tiqod etilgan. Arabcha, forscha lug'atlarni tiqishtirish bilan qonoatlanmasdan, hatto tarkiblarni ham arabcha, forscha qilg'onlar.

Demak, arab, fors tillari nahviy yoqdan ham tilimizga ta'sir qilg'on. Shuning uchun chig'atoy (o'zbek) adabiyoti usmonli adabiyoti singari xalqdan uzoqlasha boshlag'on. Oddiy xalq uni anglay olmag'on. Uni bori o'qumishli, ziyoli sinf anglay oladurg'on bo'lg'on.

Misol uchun: *vahiy nozil bo'ldi yohu diyorning payg'omidurkim, g'amim taskini g'amgin xotirin oromidur, chillai kofur ayla mushkin raqamkim aylamish go'yyo subhi saodat uzra davlat shomidur* (Pirmuhammadjon yozgan maktubdan).

Mana shu ravishda kelayotgan adabiyot aristokratligi inqilob orqasida tabiiy holda ommaviylasha boshladi.

Bizdan madaniyrak xalqlarning til va adabiyoti – xalq tili va adabiyoti asosiQa qurilg'on va meva bergan. Bir zamonda, yangi madaniyat (prolitor madaniyati) qurmoqqa boshlag'on bizlar uchun adabiy til asosi mutlaqo jonli til (xalq adabiyoti) bo'lishi kerak.



Bu sohada hozirg'i (inqilobdan keyingi) adabiyotimiz anchagina muvaffaqiyatlar qozong'on va xalqqa yaqinlashg'on bo'lsa-da, adabiy til birligida boshvoqsizliq va bir yoqadan bosh chiqarmasliq bor. Eski adabiyotimizda bo'lg'on singari, hozirda ham mahalliychilik davom etkani ko'rinadi. Shuning uchun albatta, o'zbek shevalaridan birini asos qilib olish kerak.

Adabiyotimizning asosi jonli til (xalq adabiyoti) bo'lishi lozim, dedik. Shundoq bo'lg'och, men Farg'ona (vodiysi) shevasini taqdim etsam, xato qilmag'on bo'lurmen.

Bunda «qo'ng'uz oppog'im», «kirpi yumshog'im»dur degandak bo'ldi, deb mendan kulmasdan, balki so'zimni quvvatlaydurg'onlar ko'brak bo'lur. Chunki bu kungi o'zbek adabiyotining (bosma so'zining) tili (undag'i ba'zi bir mahalliychilikni e'tiborg'a olmag'onimizda) Farg'ona shevasining o'zidur. Shevaning o'zi bosma so'zni va uning tevaragidagi omillarni tabiiy ravishda o'ziga tortg'on.

Endi biz uning ichiga boshvoqsizliq yoki mahalliychilik ta'siri ostida kirib qolg'on va qoladurg'on so'zlar to'g'risida bir fikrga kelib olsaq, ham yana tag'in soddalashtirish, xalqqa yaqinlatish, ishchi, dehqon ommasi ichidan oling'on so'zlar bilan boyitish chorasini ko'rsak, bo'ldi.

Bu so'z – uzun dalil, alla qoncha misollar ko'rsatishga hojat ko'rilmay, qisqa qilib aytilgan so'z.

### **ATAMALAR TO'G'RSIDA**

(Bu qism imloga taalluqli bo'lmagani uchun keltirmadik –T.T.)

### **IMLO TO'G'RSIDA**

Profesur Afanasevning aytishicha, rus imlosi besh asosqa qurilg'on:

- 1) Savtiy (foneticheskiy),
- 2) Shakliy (morfologicheskiy),
- 3) Tarixiy-an'anaviy,

4) Chet soʻzlarini yozmoq asosi,

5) Ayrilma asosi.

Bizda esa inqilobgʻacha tarixiy-anʻanaviy ham chet soʻzlarni yozmoq asosi qoʻllangʻon. Yaʼni: oʻzbekcha soʻzlarda eski Navoiy va undan ilgari kitoblardagʻi imlo nusxasi mahkam ushlanib, chet (arabcha, forsiycha) soʻzlar va ularda qondoq yozilgʻon boʻlsa, bizda ham oʻzgartmasdan yozish asos tutilgʻon.

Inqilobdan keyin (bundan 5, 6 gʻina yil ilgari) bu ikki asosni tashlab savtiy ham shakliy (sarfiy) asosqa oʻtkan boʻlsaqda, arab alifbosi savtiy asosqa javob bera olmagʻonligʻidan, imlo chatoqliqlaridan haligacha ham qutila olgʻonimiz yoʻq.

Endi yangi alifbe qabul qildi. Bungʻa tamom koʻchsak, quyidagʻi baʼzi bir nuqtalarni yechib olsa, imlo masalasini ancha hal qilgʻon boʻlurmuz.

«Ancha hal qilgʻon boʻlamiz» dedik, «tamom hal qilamiz» demadik. Chunki (yuqorida aytganimizdek), til yozuvdan ilgari ketib turadi. Ilgarilayotgʻon til kundalik ehtiyojlarini sekin-sekin anglata borar. Balki hozir bizga koʻrinmagan, esga kelmagan tomonlarni aytib berar.

Masalan: ruslar 200 yildan berli imlogʻa urnaydurlar. Hali ham kam-koʻsti chiqib turadur.

Biz imlomizni savtiy (funetika) ham shakliy-sarfiy formologiya (morfolugiya) asosqa quramiz.

Shundoq boʻlgʻach, imlo chigallarining bir qismi (*tur, tor, kyz, kozga* oʻxshashlar)ni olgʻon asosimizning birinchisi yechib bersa, bir qismini (tamsillarni) ikkinchisi yechib beradur va tamsilga yoʻl qolmaydur.

Garchand soʻzlash tilida yengillik uchun jarangsiz dovushlar (oʻrtoq Q.Ramazon bu toʻgʻrida «Sharq haqiqati» 12-sonida ancha toʻqtagʻon boʻlsa ham, jarangsiz harflarni koʻrsatmagan) keyingi dovushlarni oʻmarib soʻzlashalarda, oʻshandoq (eshitilganicha) yozish hych yaramaydur. Sarfiy imlo birligini buzadur.

Biz, eshitilganicha yozish to'g'risida so'z ochg'onimiz yo'q ham ochmasmiz. Bu - bir.

Ikkinchidan, biz, imloda qonduq bo'lsada oson yo'lni tutmog'imiz lozim. Bu – oson deganimiz ham bir qoida (sarfiy birlik)ni mahkam ushlab, shuni turlamasdan temir qoziq qilib ushlab va ushlatdirishdur.

Masalani oydinlashdirmoq uchun «d» harfi bilan boshlang'on qo'shimchalarni olayiq:

1) -dim, -dik, -di.

2) -dir (otdir, kesdir singari) so'zlarda(gi) «d» harflari jarangsiz ovozlardan (p, t, ch, sh, s, q, k) dan keyin «t» bo'lib (kettim, kettik, choptir, kestir singari) eshitilsa va so'zlansa ham;

3) -dan, -don qo'shimchalari ham p, t, ch, s, sh harflaridan keyin:

p – iptan, ko'ptan, qoptan, soptan;

t – ittan, suttan, ottan, yottan;

ch – cho'michtan, ichtan, qilichtan, ochtan);

s – mistan, ketmastan, olmastan, yopmastan;

sh – ishtan, tushtan, oshtan, qoshtan singari (-tan, -ton) eshitilsa ham;

4) mana shu -dan, -don qo'shimchasi n, m harflaridan keyin:

n – mannan, sannan, nonnan, qonnan.

m - bilimnan, uyimnan, yonimnan, yo'limnan singari eshitilsa va so'zlansa ham sarfiy birlikni saqlash uchun «d» yozilmog'i lozim.

Yana imloda so'zlar yolg'uz-yolg'uz turg'onda aytilishi asos etib olinib, yonidag'i so'zlarning ta'siri yozuvda ko'rsatilmaligi kerak. (Keragiday, borg'onmikan, jinmidi, parimidi singari bo'lmaslig'i kerak)<sup>22</sup>.

Agar bundog'larg'a mandat berilsa, «borakan, yo'g'akan, ochakan, to'g'akan»lar ham qarindosh, urug'-aymoqlari bilan yasov tortib «qoni, bizga ham mandat kerak» deb, qatorlashib chiqib kela beradurlar. Faqat bu yerdagina emas, sarfiy qoidalarning har biri tepasida ham shundoq «imtiyoz» so'raydurg'onlarning alla qonchadan bo'lishi turgan gap. U

<sup>11</sup> «Sharh haqiqati» 12-son o'rtoq Q.Ramazon maqolasiga qaralsun.

vaqtda hych bir qoida ham kerak bo'lmagan: «eshitilganicha yoza ber, faqat, unisini nari, bunisini beri yoz, o'rtasini ajratib, chiziq tortib qo'y...» dan boshqag'a ehtiyoj ham tushmaydur.

Shuning uchun esa, edi, ila, -dim, -dik (barcha shaxslarda), -dan, -dan va boshqalar («obki, obketgan, obor, ober, kelalmadi, sotalmadi, sanalmayman» deganga o'xshashlar)ni asliga qaytarib yozish kerak. Yozma adabiyotda zarurat vaqtida, ba'zi pessaralarda (tanqid va masxara uchun hajviy jurnol va kulgi bo'limlarda keltirilgan jummalarda) alohida shaxslarning so'zini aynan ko'rsatish chog'larida ham intug'rafiy hikoyalar, dostonlar, til tekshirish uchun yiiladurg'on materiyollardag'ina eshitilganicha yozish durust (balki ilmi ahamiyatiga qarash lozim) bo'lib, boshqa o'rinlarda sarfiy birlikni buzishliq hych yaramaydur.

Nahviy qo'shimchalardan -ning, -ni o'rnig'a -di, -ti ishlatiladir. Ba'zan uni ham tashlab ishlatish bor.

Masalan: sichqondi uyi, itti bolasi, guldi urug'i, gapti po's kallasi, o'tti o'chirdi, chitti oldi, eshikdi ochti, qozondi sindirdi.

Sizi ko'rdim. Bizi uyimizga boring. Ukami to'ni qani? Sizi boshingiz tuzaldimi?

So'zlash tilida qonday aytilsa aytilsun, yozuvda sarfiy asosni buzmasliq kerak. (Bundoq tamsillar juda ko'b, so'z cho'zilmasun uchun shu bilan kifoyalanamiz).

Endi «-dur» to'g'risida, alohida to'qtab o'tish lozim ko'rildi.

Eski (arab) alifbe imlomizda -dr, -dir, -dur nusxalarida yozilib kelganidak, hozirg'i yangi (lotin) alifbemizda ham bir necha nusxada yozilmoqdadir.

Ingichka so'zlarda -dir, yo'g'on so'zlarda -dr, ozarbayjon gazetarida (yuqoridag'i bo'g'img'a tobe qilinib -dyr (dytylmysdyr -dutullushdur) nusxalarida – uch shaklda yozilib kelmoqda.

Holbuki, bu mustaqil so'z bo'lib, asli «turur»dur.

Forsda «ast», fransuzchada «as» ham shu ma'nidur.

Demak, borg'ondur – «borg'on turur», guftanast (guftan ast) – aytmak turur degani.

Bu ko'b iste'mol qiling'onligidan «turur» ning oxirg'i ikki xarfi yengillik uchun tashlanib «tur» qolg'on. Eski adabiyotda «qilibtur», «sotibdur» yozilg'oni uchraydir.

«t» bilan «d» ning chiqish o'rni (maxraji) juda yaqin bo'lg'on sababli (Toshkand shevasining «jo'ja», Farg'onaning «cho'ja»si yonglig') «tovush-dovush» «to'pchi-do'pchi» deyilgandak, «tur»-»dur» bo'lib ketgan.

Endi buni «mustaqillig'ini yo'qotg'on» deb, o'zidan ilgarigi so'zga tobe qilib, turli nusxada, xatto, hyech to'g'ri kelmaydurg'on qolipqa solib «-dr, -dir» yozish – tilni buzushdur: «borgandr» deb o'qushliq o'qug'uchig'a qiyinliq keltirgandak, turli o'rinda, turli nusxada yozishliq yozg'uchig'a ham qiyinliq keltiradur.

Shuning uchun, buni o'zidan ilgarigi so'zga tobe qilmasdan hamma yerda bir nusxada «-dur» yozishliq kerak. Bu – o'qug'uchi uchun qulaydur.

«Qizil O'zbekiston», 1929-yil 29-mart, 72-son

## LAB OHANGI TO'G'RISIDA

Bizda lab ohangi bor. Lekin, qirg'iz va ozarbayjonlilardag'i singari yoki singarmunizm qoidasi singari «boshdan oyog'ig'acha» qat'i bir yo'lda emas, ko'pincha (fe'llarda) o'zak bo'g'umlardag'ina bor. Ham avvalgi bo'g'imdag'i o'truning uzun-qisqa, qolin-ingichkaligiga tobe'liq yo'q.

Masalan: oqu, toqu, coqu, noqu. Bularning avvalgi bo'g'umidagi «o» cho'zg'usi, keyingi bo'g'imda ham o'tru kelishni talab qilsada, o'z avjidagina emas, balki ancha pasaygan avjda o'tru talab qiladur.

Shuning uchun ularni «oqo, toqo...» deb yozib bo'lmaganga o'xshash «oq, toq» deb yozib bulmaydur.

Negakim, bularning oxirida avvalgi bo'g'imdagi o'tryning zo'rg'a yetib kelgan «quvvati bor», degach, uni: «oq, toq...» nusxasida, «zo'rg'a yetib kelgan» degach, uni avvalgi bo'g'imday «o» bilan yozib bo'lmaydur.

Keyingi bo'g'imda bo'ladurg'on ikkinchi bir o'rin: «yzym, tyxym, toruq, qutul, nuqul» singari «m» («m») qo'shimchasi bilan ismga aylandurg'on so'zlarda ham yo'qoridag'i so'zlarg'a o'xshash «m» («m») dan ilgari o'tru talab qiladurlar. Masalan: «tozym» (chidam ma'nisida), «buo im», «orum» singari yasalma so'zlar ham «yzym» ismi olgan haqni talab qiladurlar.

Agar shundoq qilinmasa, ba'zi joylarda egalik olmoshlarining birinchi shaxs alomati bo'lg'on «m» qo'shilg'on ismlardan ajratib bo'lmay qoladur.

Masalan: olaylik ikki turli ma'nida keladurgan «o'r» (or) so'zini:

1— bo'g'doyni o'r! (жне); 2 — xandoq, chuqurlik ma'nilarida keladur.

Manim o'rim — xandag'im ma'nosini anglamoq uchun «o'rim» (orm) yozsaq, «birinchi o'rim beda» ma'nosidagini ham «o'rim» (orm) yozsak, ikkalasining farqi bo'lmay qoladi.

Shuning uchun ikkavi ikki turli yozilishi kerak.

Shunga o'xshash o'rta harfi o'tru cho'zg'ili buyruqlar «q»(q), «k» (k) bilan ism, sifatga aylantiriladurg'on bo'lg'onda haligi «q(q), k» (k) ilgari o'tru cho'zg'isi keltirilishini talab qiladilar. Masalan: koruk, tyzyk, boluq, juluq, buzuq, jygryk singari so'zlardir.

Bularning shunday yozilishig'a — tug'ilishdan shu shaklda bo'lg'on, «joruq» ham uzak-buyrug'ning oxiri «u» bo'lg'on «quruq» singari so'zlar jela tortadurlar. Ular ham shundoq yozilsun deb talab qiladurlar.

Ammo qo'shimchalar o'zaklarga (o'tru to'g'risida) tobe bo'lmaydirlar. Masalan:

1 -kir, -o r, -qr: otkir, alo r, tapqr, capqr, balas tushrki, jer jytkir.

2. -kin, -o n, -qn: turo n, toiqn, tutqn, buzo n, sotqn.

3. -lik: tygyglik, tyjnyklik.

**-dir** (qolim fe'llarni o'tunga aylandirguchi harf) : oqutdir<sup>23</sup>.

Bundoq qo'shimchalar bir qolipga solinib, qotirib unga bir shakl berib qo'yilmasa, ularning turli so'zlar oxirida turli shaklda kelishlari to'g'risida, sarfda bir necha qoidalar ortdirish lozim bo'ladi. Maqsadimiz yozuv yo'llari, sarf qoidalarini qoncha kerak oson qilish, yengillatish bo'lganidan, sarfiy birlikni yo'qotmaslik lozimdur.

Shung'a binoan ism va sifatlarning so'ngg'i bo'g'umlari avvalgiga tobi bo'lmaydurlar. Masalan: oo l, oo ri, tylki, too ri, egri (o'g'li, o'g'ri, tulki, to'g'ri, egri).

Lab ohangi to'g'risida xullas fikrimiz shu.

### **CHO'ZG'ILAR TO'G'RISIDA**

Cho'zg'ilar to'g'risida gapni cho'zib o'tirishning hojati ham yo'q, bu masala – boshqa masalalar singari avval ko'rilmagan, muzokara qilinmagan masala emas. Dovushimizga tamg'alar belgilanayotqon vaqtdayoq, ilmiy kishilar o'rtasida muzokara qilingan ham Yangi alifbe markazqo'mning bo'lib o'tgan yoppa yig'ilishlarida ham to'qqiz cho'zg'ining har biri ustida ancha so'zlashib o'tilgan.

Bundan boshqa mana bu tomoni ham bor: sof o'zbek tilida singarmunizm borligini hech kim inkor qila olmaydi. Hol shunday bo'lgandan keyin, cho'zg'ining (og'ir, yengillar bilan) to'qqizta qilinishi shu singarmunizmga asoslangan. Ya'ni: singarmunizm bilan cho'zg'ining to'qqiztalig'i bir-biriga qattiq bog'langan. Hol shunday bo'lgandan keyin, cho'zg'ining (og'ir, yengillar bilan to'qqizta qilinishi – shu singarmunizmga asoslangan, ya'ni: singarmunizm bilan, cho'zg'ining to'qqiztalig'i bir-biriga qattiq bog'langan. Shuning uchun imlomiz singarmunizm asosida bo'lib, bo'lmaslig'i to'g'risida og'iz ochmasdan (bu bo'lsin-bo'lmasin degandak sukut qilib) cho'zg'ining

---

<sup>11</sup> «-lik» bilan «-dir»ni Q.Ramazon «qo'shilg'an so'zg'a tobe bo'lsun deyduv va «oqittir, ygyglik»nususida yozadur. «Sharq haqiqati», 12-son.



to'qquztalig'i va uni qisqartish kerakligi to'g'risida so'z ochishliq mantiqsizlik va to'qqizta bo'lishining asosini tushunmaslikdir.

Agar singarmunizm o'zbek tilida hyech yo'q va bo'lmasun ham deb, cho'zg'ining kamaytirilishini da'vo qilib chiqquchi bo'lsa, u – boshqa gap.

Endi cho'zg'ining 9 dan ortiq (13, 14) bo'lishini olding'a surguchilar ham yo'q emas. Lekin ular da'volarini isbot qilmoq uchun hali kuchlirak dalil topa olg'onlari yo'q. Ularning: «Mana shu yerda shundoq cho'zg'i bo'lishi kerak» deganlariga hozirg'i cho'zg'ilar javob bera yotibdur.

Biz hozir tilimizni tekshirish davridamiz. Tilimizni tekshira borsaq, eshitilmagan so'zlar, bilinmag'on dovushlar, ehtimol, chiqib qolar. Bu vaqt tamg'alarimiz ortdirilar yoki kamaytirilar.

Chunonchi, bir necha yuz yillik tajribalar orqasida o'ruslar alifbesidan ba'zi harflarni chiqarib tashladilar. Bu bilan fo'netika jahatidan tilga hyech bir zarar ham yetgani yo'q. Balki osonroq bo'ldi. Bizda ham qondoq bo'lishini keyingi tajribalar ko'rsatadur.

Demak, hozirgi 9 cho'zg'i shu topdag'i ilmiy asosqa qurilg'on, uni ortdirmaymiz ham, kamaytirmaymiz ham.

## **SINGARMUNIZM TO'G'RISIDA**

Singarmunizm turk-totor tilining tabiiy tiligidur. Lekin zomonning o'tishi, jo'g'rofi(y) ahvollarning o'zgarishi, bir qavmning boshqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta'siri orqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo'qola borg'on (ozorbayjon, anqara turklarida).

Bu xususiyatni saqlab qolg'onlar: qozoq, qirg'iz, nug'oy, boshqirt, totor, turkman va o'zbeklardur.

Bizda sigarmo'nizm yuz foiz bo'lg'usidir. Tilimizga aralashg'on ajnabiy so'zlarni ham o'z qoidamiz (singarmunizm)g'a buyin sundiramiz. Bundan bo'yin tovlaydurg'onlari o'rnig'a o'z tilimizdan so'zlar topishg'a harakat qilamiz.

*g'ijjak, g'altak, g'ildirak, pildiroq, yo'lak* (bu so'zlarning «yo'lak»dan boshqasi o'zbekcha bilan forsiycha o'rtasida o'rtoq so'zlar bo'lib, «yo'lak» va ularning ham oxirlaridagi «ak», «oq» qo'shimchalari tom forsiychadur. Bularni singarmunizmga tobe qilsaq, «g'ijjaq, g'altaq, pildirak, g'ildiroq, yo'loq» bo'lib xalq onglamaydurg'on nusxag'a kirib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mustasno qilamiz. Bundoq mustasno bo'lg'uchilar tilimizda ko'pchilikni tashkil etmaydirlar) singari o'zlashgan forsiy so'zlari (yoki forsiycha qo'shimcha qo'shilgan so'zlar)ni o'zgartmasdan singarmunizm qoidasidan mustasno qilamiz.

Singarmunizm masalasini biz shu ravishda hal qilamiz.

### **BOSH HARFLAR TO'G'RISIDA**

Bosh harf masalasi o'stida bir oz to'xtab o'tishga to'g'ri keladir.

Ittifoqimizda yangi alifbe qabul qilingan jumhuriyatlarning ko'pchiligi bosh harf qabul qilg'on holda, Qirg'iziston bilan bizning qabul qilmasligimiz yangi alifbeda birlik usulini buzishdur. Shuning uchun bu masalani hal qilishimiz juda zarur.

Yangi alifbe qo'mitasining bo'lib o'tgan yoppa yiqilishlarida bu to'g'rida ancha muzokaralar bo'ldi. Ko'pchilik shung'a tarafdor bo'lg'oni holda, bizning O'zbekiston bilan Qirg'iziston qarshi turdi. Bunda so'zlangan so'zlar bilan tanish bo'la turib, biz bosh harfni olding'a suramiz.

Eski arab alifbesida bosh harfning yo'qlig'i - husni, yaxshilig'i emas, balki uning kamchiligi edi.

Bu kun butun Ovro'po yozuvida bosh harf ishlatiladi. Sharq ellaridan arab alifbesi mang'ulcha, tibetcha, xitoycha, yapunchada ishlatilmaydi, xolos.

Bizda qabul qilinmaslig'ig'a keltirilg'on dalillarning eng zo'ri: alifbe o'rganish va o'rgatishda ortiqcha qiyinliq tug'diradi ham bosmaxona harf terguchilariga mashaqqat bo'ladi,- emish!

Bung'a biz: «Ovro'poliklarga qiyinlik keltirmagan, bizga keltirarmi edi?» - deb o'turmasdan, ishning amaliy tomonini aytib, so'ngra ung'a javob beramiz.

Bosh harf ishlatiladurg'on o'rinlar: 1) jumla boshi; 2) maxsus ismlar; 3) jug'rofiy o'rinlar ismi; 4) alohida hurmat ko'rsatiladurg'on mazmunlar ham sog'liqni saqlash, kimyo va riyoziyot fanlarining fo'rmularida.

Jumla boshida qo'yilishining ahamiyati: a) mutolaa vaqtida nuqtadan boshqa harflarning oxiri aniq ko'rinib turadur; b) harf terilgan vaqtda, ehtimol, nuqta terilmay qolar yoki terilgan bo'lsa ham ezilgan nuqta qo'yilgan bo'lib, yozilg'onda chiqmay qolar. Bosh harf bo'lsa, mana shundoq hollar bo'lg'onda ham jumlaning tamom bo'lg'oni bilinib turar. Agar bosh harf bo'lmasa, shundoq holda, ikki-uch jumlaning (bosma mayizdak) bir-biriga qo'shilib ketish ehtimoli bor.

Maxsus ismlarga qo'shilishning ahamiyati: a) ko'b joy, qishloq va kishilarning oti oddiy so'zlardan bo'lur. Masalan: «Yangi qishloq ahli arzga keldi» desak, yangi bino qiling'on qishloq ahlimi yoki «Yangi qishloq» degan qishloq ahlimi? Bosh harf ishlatilganda, bundoq shubhaga hyech yo'l qolmaydur. b) «Bozor keldi» deyilsa, «bozor kuni ham keldi» degani bo'ladimi yoki «Bozor» degan odam edi, o'sha keldimi? Ma'lum emas. Bosh harf ishlatilsa, bundoqlarg'a ishtiboh qolmaydur.

Yana kishi mutolaa qilgan narsasida, keyin ko'rmakchi bo'lg'on jumla yoki kishi bo'lsa, bosh harf bo'lg'onda darrov topadur. Paypaslanib o'tirmaydur.

Bundan boshqa o'rinlar juda ko'p.

Jug'rofiy o'rin ismlari, kimyo ham boshqalarning formalalarida bosh harf ishlatishning ahamiyati yuqoridag'ilardan kam emas. Ular uchun dalil keltirishni maqola uzaymasun uchun lozim ko'rmadim.

Bosh harf oling'onda harf kassasining xonasi ko'payishi, o'qish va o'qitish uchun qiyin bo'lishi to'g'risida mana buni aytamiz:

Bosh harf oling'onda ham kassa xonasi 80 dan oshmaydur. 80 xonaliq kassa juda ixcham, hamma xona murattibining burni ostida, qo'li ortiq cho'zilmaydurg'on darajada bo'ludur.

Demak, hych bir qiyinliq yo'k. Ovro'palik kassasi ham bundan katta. O'qish-o'qitish to'g'risig'a kelganimizda, bosh harfni maktablarda ikkinchi yilda va undan keyin o'rgatsa ham mumkin.

Bosh harf-satr harfining katta shakli qilib olinsa, birinchi yildan boshlab o'rgatilganda ham qiyinlik qilmaydur.

Bosh harf ta'lim-tarbiya jihatidan to'g'ri kelmaydi emas, balki bosh harf va bosh harfli kitoblar bolalarni o'ziga jalb qiladi.

Ilmiy konferensiyadan qilinadurg'on tilaklar bayon qiling'on har qaysi bob oxirida va ichida aytilib o'tdi. Masalaning ikir-chikirlari konferensiyada hal bo'lur.

«Qizil O'zbekiston», 1929-yil 31-mart, 73-son

## FITRAT

## IMLO KANFIRENSIYASI MUNOSABATI BILAN

Ko‘b yillardan beri ko‘r bir taassub asosiga toyonib, oromizda yoshog‘on bir ko‘b buzuqliqlarni qottiliq boltasi bilan kesib toshlag‘on ulug‘ o‘ktabr inqilobi arab alifbosi bilan uning churuk imlosiga ham keraklik zarbalarni bermakdadir. Inqilobdan keyin boshlong‘on imlo masalasi shakldan shaklga kira-kira yangi alifbega o‘tushdan boshqa bir chora bo‘lmog‘oniga hammani ishondirdi. Yangi alifbega o‘tdik. Bu yo‘lda har tomondan jiddiy suvratda tirishilmakda. Tilimizdagi tovush ohangiga (qalinliq, ingichkalikka) tayanib yangi alifbemiz uchun to‘qqiz soit qabul qildi. Bizning tilga yot tillarning ta’sirlari bo‘lmog‘on, yot tillardan bizning tilga ko‘b so‘zlar o‘tib qolmog‘on bo‘lsa edi, to‘qqiz soit olish bilan tovush ohangi masalasini qat’iy suvratda hal qilg‘on bo‘lur edik. Holbuki, masala bunday emas, biz bilan madaniy, iqtisodiy, siyosiy-ilmiy munosabat qilg‘on xalqlardan bir ko‘b so‘zlar olg‘on va olmoqdamiz. Tashqaridan kelgan bu so‘zlarning *xabar, qabul, qalam, maqola* kabi bir qismlari bizda o‘zlashib qolg‘oni uchun tovush ohangiga tobe’ bo‘lg‘on, lekin turli sabablar bilan xanuz bizdagi tovush oxangiga tobe’ bulmog‘on, tobe’ bo‘lmoq istamagan *xususiyat, diyonat, parvona, balli, lola* kabi yot so‘zlar tilimizda bor. Buning ustida *g‘ijjak, g‘ildirak, og‘zaki* kabi tovush ohangiga uymog‘on o‘z so‘zlarimiz ham bor. Bularni nima qilamiz: tovush ohangiga tobe’ tutamizmi, yo‘qmi? Tuta edik, yaxshi edi, imlomiz mustasno qiyinlig‘idan qutulg‘on bulur edi. Biroq tajriba ko‘rsatdi: yot so‘zlarning, hatto *g‘ildirak* kabi o‘z so‘zlarning ham bir qismini tovush ohangiga tobe’ qila olmadiq. Demak, tovush ohangi qoidasidan bir qism so‘zlarni mustasnog‘a chiqorish majburiyati bor. Emdi «mayli bir qismi mustasno ekan» deb bu mustasnolarning chegarasini tayin qilmay o‘turish bilan bo‘lmaydir. Bu imlomizda onorxiyo tug‘diradir. Har kim istagan so‘zini qoida bog‘lab,

istamaganini mustasnoga chiqorib beradir, shuning uchun bu mustasnalarning chegarasini belgilash imlomizning birligi uchun lozim.

Shu kunlarda o'rtoq Alaviy tomonidan qiling'on imlo lug'ati bu masalani qisman yeshgan bo'ladir. Lekin Alaviyning lug'atidan tashqarida qolg'on so'zlar yana bor, ham ko'b. Shuning uchun bu yo'lda yana ishlash kerak.

Tilimizdagi ikkinchi masala «**lab ohangi**»dir». Lab ohangi» (**o, o, u, y**) o'trusi bo'lg'on bir bug'unning o'zidan keyin kelgan bug'unlarni tobe' qilishidir. *otun, butun, tutun* kabi masala bizning oramizda juda og'ir bir masala bo'lib qoldi. Bir necha rasmiy, g'ayri rasmiy majlislarda ko'rildi. Ovg'ust kanferensiyasida lab ohangini sarfiy qo'shumchalarga o'tkazmaslikka qaror berildi. Tajriba bu qarorning o'ng'aysizligini ko'rsatmaktadir. *Bolub (bo'lub), yurub* so'zlarini *bolib (bo'lib), yurib* shaklida yozishning sovuqligi sezilmakdadir. Buni qanday qilib yesha olamiz? *Alib (olib), barib (borib), qalib (qolib)* deb yozg'onimiz holda, lab ohangiga qarab *bolub (bo'lub), kulub, ucun* shaklida yozaylik. Masala shu bilan bitmaydir. «*boldi*» (*bo'ldi*), «*oqudi*» (*o'qudi*)lapni «*boldu*» (*bo'ldi*), «*oqudu*» (*o'qudu*) yozish kerakmi? Bu kun **-miş, -mi, -dir, -il** shaklida qabul qiling'on qo'shumchalar bor. Bularii lab ohangiga tobe' qildi. «ol+muş, ol+dur+muş, ol+dur+ul+muş, ol+dur+ul+muş+mu» dedik, «**-oʻjan**»», «**-gan**»larni nima kilamiz? «Ol+dur+ul+oʻjun» deyish mumkin emas-ku!

«**-niş,-ni**»larni lab ohangiga tobe' qildi, «buni» o'rnida «bunu», «uniş» o'rnida «unuş», «uniş qutisi» o'rnida «unuş qutusu» dedik, «-dan, -da, -ni, -ga»larni nima kilamiz?

Ko'ruledirkim, bu masalani qorong'i bir vaziyatda qoldirish yoromaydur. Tafsilli ravishda hal qilish kerak, so'ngra: eskidan beri arab alifbosini(ng) imlosida ochiq hijo, yopiq hijo degan bir qoida bor edi. So'zning har bir bo'g'umi yopiq bo'lsa soitsiz yozilar edi. Ovg'ust kanferinsiyasi bu masalani bitirdi, so'zning hech bir bo'g'umi soitsiz yozilmasin dedi. Biroq bu qoidaning haligacha tatbiq etilgani oz. Ondan

keyin bu qoidaningda mustasnosi bormi? «Broq», «profeso'r» so'zlari mustasno emasmi?

Yana bir muhim masalamiz Ovro'padan oling'on va olinmoqda bo'lg'on istilohlar masalasidir. Bularni haligi tovush, lab ohanglariga tobe' qilish qaysi darajalarda mumkindir? So'ngra bu istilohlarni olg'onda qaysi «talaffuz»dan olamiz? G'arbiy Ovro'pa talaffuzidanmi, rus talaffuzidanmi? «Pedag'o'ji»mi, «peda- go'giya»mi, «pedag'ug'iya»mi bo'lsun?

O'zaro so'zlashlarimizdan onglashilg'oniga ko'ra bizda bu to'g'rida ikki fikr bor. Ko'pchilik rusiy talaffuz shaklini olish tarafida, Farbiy Ovro'pa talaffuzi shaklini qabul qilish tarafdorlari ham bor.

Mana bir qator muhim masalalar bordirki, bizdan halni kutub turadir. Bu masalalarni qat'iy suvratda, hyech bo'lmag'onda qat'iylikka yaqin bir suvratda hal qilish uchun O'zbekistan maorif kamisarlighi tomonidan yaqinda kanfirensiya chaqiriladir. Bu masalalarning mazkur kanfirensiya tomonidan muvaffaqiyat bilan hal bo'lishi uchun eng muhim chora tajribali muallimlarimizning, imlochilarimizning, turli sheva vakillarimizning, til bilan mashg'ul bo'lg'onlarimizning shu to'g'rilardagi tekshirishlarni jiddiy suvratda davom qildirib, kanfirensiyaga muayyan pilon, aniq takliflar bilan ishtirok qilishlaridir.

***«Maorif va o'qutg'uchi», Toshkent, 1928-yil 3-son, 6-7-betlar.***



## Ashurali Zohiriy

### Harflar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari

Xatlarni durust o'qumoq va yozmoq, ham, so'zni ba'zi yerda to'xtatmoq; dovushni ba'zi yerda balandlatub va ba'zi yerda pastlatubroq chiqarmoqning some'larg'a ta'sir va tavhim to'g'risida ko'b munosabati bordur. Shuning uchun xatlar orasida onlarg'a doir bir xil ishoratlar qo'yiladur. Onlarni: «ishorat va vaqf alomatlari» deyilur.

1) ishorat « . » (nuqta) jumla tamom bo'IQonda qo'yulur. Chunonchi: Ollo(h) taolo to'g'riliqni do'st tutar. Xat yozmoq yarim ilmdur. Gazeta olamdan xabardor qilur.

2) ishorat « ? » (savol) so'rolg'on jumlaning oxirig'a qo'yilur. Ya'ni: bul ishorat o'shal jumla bilan bir narsa so'rolg'onini bildirur. Chunonchi: Ahvolingiz qanday? Kecha qayda edungiz? O'qub bo'ldingmi?

3) ishorat « ! » (Xitob ham taajjub). Bir odamga qarab so'z aytkada, yoki bir narsaga taajjub qilg'onda qo'yilur. Chunonchi: Abdulla boy! Shovqun solmanglar! Sallasi muncha katta! Ishning asli munda!

Agarda xitob qiling'on so'zning oldida muxotibning (xitob qilguchining - T.T) o'zi ham yozilsa, ul suratda muxotibning oxirig'a, ham aytilg'on so'z oxiriQa ishorat qo'yilur: Chunonchi: Ey bolalar! Tinch o'turingiz! Orif! Yozub tur! Umid! Buni ko'r!

4) ishorat « , » (vaqf) odamlar ismi, yoki narsalar ismi bir munosabat bilan so'z orasida kelsalar, bir biridan shul ishorat bilan ajratilur. Hamda uzun so'zlar ichida bir savolg'a javob bo'lg'udak jumlar bir biridan shul ishorat bilan ayrilurlar. Chunonchi: Orif, Yo'ldosh, Abdulla jon va Mirza Ahmad keldilar. Men aytkon edim, ul o'zi kelmaydur.

**Izoh:** Qaysi yerda nuqta qo'yilg'on bo'lsa, onda jumla tamom bo'lur. Agar vaqf ishorati qo'yillon bo'lsa, onda oz to'xtab olinur: Savol ham xitob ishoratlari qo'yilg'on yerlarda dovushni balandroq chiqorub, savol qiling'on va xitob aytilg'ong'a o'xshatub o'qumoq lozimdur.

Endi yoziladurg'on so'zlarning ishoratlarini yuqorida aytkanimizcha qilib o'qunglar.

Yaxshi bola maktabka hammadan avval kelib, yongi oladurg'on saboqlarini ko'rub, ango (unga) ko'zini oshno qilib turadur. O'rtoq! Sheriklarimiz ichida qanday shogirdni domla maqtabdurlar? Bul kitob, qalamlarni kimdan olding? Hoshimjon, Abdurahmon, Alixo'ja va Toshmuhammad keldilar. Ey erinchoq! Kecha nima uchun kelmading?

Tubandagi jumalarning qaysi birig'a qanday ishorat qo'yilur? Yozib chiqinglar. (nuqta, savol, xitob va vaqf ishoratlari qo'yilur.)

Yormuhammad afandi o'g'lingiz nima sababdan maktabka kelmay qoldi har xil shogirdlarning aytkonlarig'a qarag'anda o'g'lingizning ko'zi og'rig'on emish va ana shundog' bo'lsa, xotinlarning em-dum qilg'onlarig'a qarab yurmang dug'turg'a ko'rsating ko'z ko'b nozik a'zolardandur ozgina zararlik narsa bilan ko'r bo'lub qolish hyech gaf emas yoki tiraxuma digan yuqumlik yomon ovru bor o'shal bo'lmasun har holda ehtiyot bo'ling beparvolik qilmang

5) ishorat « : » (ostin ustin nuqta) bir necha simlarning va narsalarning aytilishidan avval qo'yilur. Chunonchi: maktab asboblari: javon, taxta, parta va kursidurlar. Bozorda do'konlar ko'b bo'lur. Onda savdogarlar har xil mollar: choy, qand, sobun, chit, movut, gugurd sotadurlar.

6) ishorat « » (naql) har qachon boshqa odamning so'zini aytiladurg'on, naql qilinadurg'on bo'lsa, ul vaqtda manqul (naql qilinadigan) so'zning avval va oxirig'a shul ishoratni qo'yub, oni boshqa so'zlardan ajratilur. Chunonchi: Domlamiz maktabka kirub: «Assalomu alaykum!» dedi. Shogirdlar ham o'rinlaridan barobar turub: «Va alaykum assalom!» dedilar.

7) Ishorat « - » (chiziq) savol bilan javob orasig'a tortilur. Chunonchi: Kitob qayda? – mana kitob. O'orma do'stim! – bor bo'!

Tubanda yozilg'on so'zlarning ishoratlarig'a zehn solib o'qunglar.

Bir kishi bozorg'a pichan yuqlab kelayotkan edi. Yo'lda, oning bir boy oshnasi uchrab: -- «Assalomu alaykum!» dedi. – «Va alaykum assalom!» – «Nima yuklab kelayotibsan?» →O'tun!» →Qanday o'tun!

Mana bul pichanku!» – «Agar o'zing ko'rg'on bo'lsang, nimaga so'rading?»

Tubandagi jumalarning qaysi biriga qanday ishoratlar qo'yilur? Yozub chiqinglar.

8) ishorat «( )» (qavsin yoki tafsir ishorati) bir so'zning ma'nosini so'z orasinda bayon qilg'onda, yoki so'z orasinda biro mazmunni eska tushurub ketmoqchi bo'lg'onda ikki chetiga qo'yilur. Chunonchi: Arz (yer) yumaloqdur. Johil (nodon) kishilarning suhbatlari aqlni kamayturur.

9) ishorat « = » (masoviy) ikki so'zning: o'ng tarafdagisi bilan so'l tarafdagisining birday ekanligini bildirur. Chunonchi: bir sajin = ikki gaz, ikki o'nbeshtur = bir o'ttuz.

10) ishorat « ; » (nuqta va vuquf) jumla tamom bo'lg'on bo'lsa ham, lekin keyingi jumla bilan avvalgi jumla orasinda ma'no munosabati bo'lsa, ikki jumla o'rtasiga qo'yilur. Ya'ni: ikki jumla orasinda ma'no munosabati borlikidan «vuquf» ishorati, bir e'tibor bilan jumla tamom bo'lg'onlikidan «nuqta» qo'yilur. Chunonchi: Bizning shaharda bir muncha adad madrasalar bordur; jadid maktablari ham oz emas.

11) ishorat «.....» (ko'b nuqtalar) so'zning tamom bo'lg'onini bildirur. Yoki aytilishi nodurust kalimalarning o'rniga qo'yilur. Chunonchi: Onlarning zamondan xabarlarlari yo'q, istiqbolni o'ylamaydurlar..... Bul shogir sherikini ..... dedi.

12) ishorat « (!) » (takzib) aytilg'on bir so'zga ishonmag'onlikini bildiradur. Chunonchi : Bizning eshon Qoyibdan xabar beradur (!) mulla kishining sallasi katta bo'ladur (!)

13) ishorat « (?) » (majhul) eshitilg'on bir ismning yoki bir kalimaning ma'nosiga va qanday kishi ekonligiga tushuna olmasa, «bu, kim ekon?» yoki «buning ma'nosi nima ekon? Bilolmadik» deganiga ishoratdur. Chunonchi: Bul kitobni menga, Ernazar (?) degan kishi beribdur. Mullo Xudoyberganni qo'shaloq (?) deydurlar.

**Ashrali Zohiriyning «Imlo» (1914) darsligidan**

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

### MAʼRUZALAR MATNI

<b>1-mavzu:</b> Yozuv tarixi. Hozirgi oʻzbek adabiy tili shakllanish bosqichida alifbo va imlo muammolari (XX asrning 20–30-yillari)....	5
<b>2-maʼruza:</b> 1940–1995-yillarda alifbo va imlo oʻzgarishlari.....	24
<b>3-mavzu:</b> Orfografiya tamoyillari. Oʻzbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalari, ulardagi tafvutlar.....	37
<b>4-mavzu:</b> Yangi alifbo va joriy imlo qoidalaridagi mavjud muammolar.....	56
<b>5-maʼruza:</b> Oʻzbek punktuatsiyasi tarixi. Oʻzbek yozma nutqida tinish belgilarining qoʻllanilishi.....	66

### AMALIY MASHGʻULOTLAR MATNI

<b>1-mavzu:</b> Arab grafikasidagi oʻzbek yozuvini isloh qilish munosabati bilan boʻlib oʻtgan alifbo-imlo bahslariga oid materiallar ustida ishlash.....	81
<b>2-mavzu:</b> Lotun grafikasidagi oʻzbek yozuvini joriy qilish munosabati bilan uyushtirilgan munozara materiallar ustida ishlash...	86
<b>3-mavzu:</b> 1929-yillarda bitilgan oʻzbek-lotin alifbolaridagi matnlarni grafik va orfografik jihatdan tahlil qilish.....	90
<b>4-mavzu:</b> Unli va undosh harflar, asos va qoʻshimchalar imlosi.....	94
<b>5-mavzu:</b> Qoʻshib yozish, chiziqcha bilan yozish va ajratib yozish qismidagi imlo qoidalari boʻyicha trening.....	98
<b>6-mavzu:</b> Bosh va kichik harflar imlosi. Boʻgʻin koʻchirish qoidalari.....	101
<b>7-mavzu:</b> Qoʻsma, juft, takroriy va qisqartma soʻzlar imlosi.....	106
<b>8-mavzu:</b> Tinish belgilarining imlosi .....	109

### SEMINAR MASHGʻULOTLARI

<b>1-mavzu:</b> Hozirgi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotining ilk bosqichida alifbo-imlo muammolari (XX asrning 20-yillari).....	113
<b>2-mavzu:</b> Oʻzbek yozuvini lotin yozuviga koʻchirish davrida alifbo-imlo muammolari (XX asrning 20-30-yillari).....	114
<b>3-mavzu:</b> 1940–1995-yillarda alifbo va imlo muammolari.....	115
<b>4-mavzu:</b> Joriy alifbo va imloni isloh etish harakatlari.....	118
<b>5-mavzu:</b> Oʻzbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivoji.....	119
<b>6-mavzu:</b> Mustaqillik yillarida oʻzbek punktuatsiyasi taraqqiyoti.....	120
«Oʻzbek imlo muammolari» fani boʻyicha tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	121

## ILOVALAR

<b>1-ilova:</b> O'zbek alifbasi.....	125
<b>2-ilova:</b> Alifbe.....	126
<b>3-ilova:</b> O'zbekiston Respublikasining Qonuni Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida...	127
<b>4-ilova:</b> Yangi alifbo.....	129
<b>5-ilova:</b> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida.....	130
<b>6-ilova:</b> Til, atama va imlo bahslari .....	147
<b>7-ilova:</b> Fitrat. Imlo kanfirensiyasi munosabati bilan.....	160
<b>8-ilova:</b> Ashurali Zohiriy. Harflar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari.....	163

**Togʻayev Toʻlqin Mamanazarovich**

## **OʻZBEK TILINING IMLO MUAMMOLARI**

**(oʻquv-uslubiy koʻrsatma)**

*Muharrir:*

**Nazira Ahmedova**

*Texnik muharrir:*

**Bobur Hamroyev**

*Musahhih:*

**Sabohat Bozorova**

**«Navoiy universiteti» nashriyat-matbaa uyi**

Terishga 2019-yil 27-sentabrda berildi.

Bosishga 2019-yil 7-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Timez New Roman garniturasida.

Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabogʻi: 10,2

Nashriyat bosma tabogʻi: 10,5 Adadi 300 nusxa.

100100., Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib, 103.

OOO «AKTIV PRINT» bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.

